Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi 2021—2022-o'quv yilidan boshlab mamlakatning dorivor o'simliklar florasi va uning ahamiyatini o'rganish maqsadida dorivor o'simliklarga oid mavzularni tegishli o'quv darsliklariga kiritadi.

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiiy holda o'suvchi dorivor va ziravor o'simliklarni saqlash va ko'paytirish yuzasidan tizimli tadbirlarni amalga oshirish, degradatsiyaga uchrayotgan yerlardagi dorivor va ziravor o'simliklarni saqlash va qayta tiklash, ajratilgan "maxsus hudud"larni muhofaza qilinishini ta'minlaydi.

O'zbekistonda eng keng tarqalgan dorivor o'simliklar rayhon (bazilik), kashnich (koriander), arpabodiyon, yalpiz, sebarga hisoblanadi. Yovvoyi o'simliklarni tekisliklarda va tog'larda topish mumkin, shuningdek, bozorlar va dorixonalarda sotib olish mumkin.

Madaniy o'simliklar kesishish (duragaylash), ko'paytirish (seleksiya), genetik muhandislik yo'li bilan olinadi. Yovvoyi o'simliklarni madaniy o'simliklarga aylantirish maqsadini izlash jarayonida madaniy o'simliklarni o'rganish va ulardan foydalanish markazlari paydo bo'ldi. Vavilov N. 1926-1939-yillarda to'plagan bilimlarida u yettita madaniy o'simlikning paydo bo'lish markazlarini ko'rsatdi. Manzarali o'simliklardan farqli o'laroq, madaniy o'simliklar tabiiy diapazonga ega emas.

Zafaron (*Crocus sativus*) sapsarguldoshlarga mansub ko'p yillik o'tsimon tuganak piyozli o'simlik. Yovvoyi holda uchramaydi. Hindiston, Pokiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda katta maydonlarda ekiladi. Tarkibida efir moyi bo'lgani uchun hidi juda o'tkir va yoqimli. 90-100 ming dona zafaron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi.

Zafaron gulining quritilgan tumshuqchalari murabbo, tortlar rangi va ta'mini yaxshilash, oziq-ovqat (pishloq, sariyog', likyor va boshqalarda rang berish uchun), parfyumeriya (atir-upa) sanoatida ishlatiladi. Tabobatda dori-darmon sifatida qo'llaniladi.

Zafaron o'simligi tibbiyotda onkologik kasalliklarni davolashda (xatto kasallikning oxirgi bosqichida saraton o'simtalariga qarshilik ko'rsatadi va ularning hujayralari o'sishini to'xtatadi), qonni tozalashda (uni yangilaydi va tozalaydi, demak yurak qon tomir tizimini mustahkamlaydi, organizmning barcha hujayralarini oziqlantiradi), miya

faoliyati aktivligini yaxshilaydi (bosh miya to'qimalarini o'stiradi, xotirani yaxshilaydi), nevrozdan forig' qiladi, bosh og'rig'i va uyqusizlikdan xalos etadi, oshqozon-ichak faoliyatini meyorga keltiradi, organizmni quvvatlaydi, ko'rish qobiliyatini tiklaydi, ko'z to'rpardasiidagi illatlarni davolaydi, butun organizmni yoshartiradi.

Kashnich (Koriander). Kashnich O'zbekistonda oson va erkin o'sadi. O'simlik mukammal tozalash xususiyatlariga ega. O'simlik tarkibidagi moddalar tanadan og'ir metallarni olib chiqish va zararli ta'sirini zararsizlantirishga yordam beradi.

Kashnich urug'lari suvni tozalash uchun ham juda yaxshi qo'llaniladi. Buning uchun qisqa vaqt ichida suv idishga urug'lar solingan paketni tashlasangiz bo'ldi.(1-rasm)



1-rasm. Kashnich (Koriander).

Arpabodiyon mevalari juda foydali. Uning tarkibida saratonga qarshi vosita – anetol, C vitamini, qondagi xolesterin kamaytiradigan oziq to'qimalar kabi kuchli moddalar mavjud. Bundan tashqari, arpabodiyon stressni kamaytiradi, asab va ovqat hazm qilish tizimlarini tinchlantiradi va shamollash, stomatit va faringit bilan muvaffaqiyatli kurashadi.

Arpabodiyon deyarli hech qanday qarshi ko'rsatmalarga ega emas, shuning uchun u yosh bolalar va homilador ayollarga beriladigan ovqatga bimalol qo'shiladi(2-rasm).



2-rasm. Arpabodiyon

Yalpiz. Yalpiz - bu efir moyining tarkibiy qismidir (mentol). Yalpiz choyi oshqozon-ichak traktining buzilishlariga qarshi kurashda samarali vositadir. Yalpiz asab tizimini tinchlantiradi, og‘riqni yengillashtiradi va tanadan ortiqcha suvni olib tashlaydi. Yalpiz yurtimizning deyarli barcha hududlarida keng tarqalgan.

Sebarga. Sebergani butun O‘zbekiston bo‘ylab topish mumkin, lekin eng muhimi – namligi juda yuqori bo‘lgan joylarda u ko‘proq bo‘ladi. O‘zbekiston hududida bir vaqtning o‘zida bir necha turdagi sebarga o‘sadi, ularning har biri an‘anaviy tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Qizil sebergadan damlamalar tayyorlanadi va taloq kasalliklarida qo‘llaniladi. O‘tloq sebergasi bronxit, yo‘tal, kamqonlik, bezgak, astma uchun ishlatiladi. Oq sebergadan tonik, og‘riq qoldiruvchi va kuch beruvchi dorivor sifatida ishlatiladi(3-rasm).



3-rasm. Sebarga

Bozulbang. (*L.inebrians*) ko'p yillik bo'yi 20-60 sm ga yetadigan asosiy ildizga ega bo'lgan o'simlik. Asosiy ildizning uzunligi 25-35 sm. Poyasi sershox, ko'tariluvchi, asos qismi yogochlashgan, to'rt qirrali bo'lib, qattiq bezli tuklar bilan qoplangan. Bargi oddiy, uch-besh bo'lakka bo'lingan, poyada va shoxlarida bandi bilan qarama-qarshi joylashgan. Yashil barglarning uzunligi 2-3 smni tashkil etadi. Gullari pushti rangli bo'lib, poyada va shoxlarida yarim halqa shaklida o'rnatilgan. Mevasi 4 ta jigarrangli yong'oqcha bo'lib, iyun-sentyabr oylarida gullaydi. *L.inebrians* o'simligini mevasini yig'ib olish vaqti iyul avgust oylari hisoblanadi.

Tog'oldi tekisliklarida, past tog'larda, shag'al va daryo irmoqlarida, ba'zan kanal va ariqlar qirg'oqlarida o'sadigan ushbu noyob tur o'simlik asosan O'zbekistonning Samarqand, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo viloyatlarida va O'rta Osiyoning ba'zi boshqa Tojikiston va Turkmaniston respublikalarida tarqalgan(4-rasm).



4-rasm. Bozulbang.

L.inebrians o'simligining kimyoviy tarkibida vitamin K, 0,6-1,97 % lagoxilin, 0,67 % flavonoid glikozidlari, 44-77 mg % askorbin kislota, 6-7 % organik kislotalar, 5-10 mg % karotin, 9,66-12,42 % smola, 2,58-2,78 % oshlovchi va boshqa moddalar hamda kalsiy va temir tuzlari bo'ladi. *L.inebrians* bargi tarkibida lagoxilin, 0,03 % efir moyi, 11-14 % oshlovchi moddalar, organik kislotalar, 7-10 mg % karotin va 77-100 mg % gacha vitamin C bo'ladi.

O'zbekistonda o'sadigan va ekiladigan dorivor o'simliklardan turli tuman dorilar tayyorlanadi. Dorivor o'simliklarni topish va ulardan alkaloidlar olishda O'zbekiston FA O'simlik moddalari kimyosi institutining xizmati katta. Intda 4000 dan ortiq o'simlikning turli

organlari alkaloid olish maqsadida o'rganilib, ulardan 1000 ga yaqin tabiiy birikmalar ajratib olingan. Shu asosda sitizin, galantamin kabi 20 dan ortiq qimmatli preparat yaratilgan va tibbiyotga joriy qilingan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Botanika instituti va Botanika bog'ining efir moyli, dorivor va bo'yoqli o'simliklar lab. ilmiy xodimlari mutaxassislar bilan hamkorlikda O'rta Osiyo hududida ko'p tarqalgan yuqumli kasalliklardan eng xavfli sariq (gepatit)ni davolashda ekologik jihatidan toza, samaradorligi yuqori bo'lgan dorivor o'simliklar xom ashyolaridan tayyorlangan „Safro haydovchi Hojimatov yig'masi“ni yaratdilar va bu yig'ma ilmiy tibbiyotda qo'llashga va ishlab chiqarishga ruxsat etildi (1997). Shuningdek, SamDU Botanika kafedrasida, Toshkent davlat farmatsevtika institutida dorivor o'simliklarni ekib yetishtirish texnologiyasi o'rganilmoqda. Toshkent, Namangan, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida va Xorazm Ma'mun akademiyasida dorivor o'simliklar yetishtiradigan maxsus xo'jaliklar bor. Yovvoyi dorivor o'simliklar xom ashyolari asosan „O'zfarm sanoat“ respublika davlat-aksiyadorlik konserni, matlubot shirkatlari va O'zbekistan Qishloq va suv xo'jalik vazirligining „Shifobaxsh“ ishlab chiqarish birlashmasi xo'jaliklari tomonidan tayyorlanadi.

Hozirda juda ko'p dorivorlik xususiyatiga ega bo'lgan ziravor o'simliklar biotexnologik usullar asosida intensiv ko'paytirilmoqda. Buning uchun o'simliklarga beriladigan su'niy oзуqalar, o'simlikni o'sishi va rivojlanishini boshqaruvchi tabiiy fitoregulyatorlar, o'simlik vitamin va gormonlari hamda boshqa moddalar ta'sirida kutilgan natijaga erishish mumkin. Ziravor o'simliklar

biotexnologiyasi bu ularni ko'paytirish sun'iy sharoitda hosil qilish yoki tezroq va sifatli hosil olishdan iborat. Misol uchun ukrop, kashnich, petrushka, rayhon, rukola, shalfey, janbul kabi ziravor va efir moyli o'simliklarga fitogormonlar, ta'sir ettirib tezroq biz istagan natijaga erishish mumkin. Ilmiy tadqiqotlarda yuqoridagi ziravor o'simliklarga giberillin fitogarmoni bilan ishlov berilganda tez fursatlarda eng asosiysi sifatli maxsulotlarni olish mumkinligi o'z isbotini topgan.

Bundan tashqari o'simliklarni urug'larini tajriba maydonlariga ekishdan oldin biogumus bilan ishlov berilganda ham ijobiy natijalarga erishish mumkin. Ziravor o'simliklarni yetishtirishda urug'larini ham albatta sinovdan o'tkazib ko'rish lozim, buning uchun „granit“ metodidan foydalanib tajribadagi o'simlik urug'larini alohida petri idishlarida unuvchanligi tekshiriladi. Bu tajribani o'tkazishda urug'larni

fitogormonlar aralashmasi bilan ishlov berilib, petri idishlariga solinadi va ma'lum bir harorat belgilanadi. Bu jarayonda albatta sinov tariqasida olingan urug'lar oddiy holatdagiga nisbatan unuvchanligi tezroq hamda unib chiqqan urug'lar soni ham ko'p ekanligini ko'rish mumkin. Olingan urug'larni alohida biogumus bilan ishlov berilgan tajriba maydoniga ekilganda tezroq maysa olganligini, va oddiy holatdagi o'simliklarimizga nisbatan vaqtdan oldin tayyor bo'lishini kuzatish mumkin.

Bundan tashqari ziravor o'simliklar biotexnologiyasida zamonaviy texnikaviy biologik usuli *in-vitro* sharoitda laboratoriyalarda ham urug'idan va vegetativ organlaridan yaxshi ko'paymaydigan ba'zi noyob o'simliklarni ham shu usuldan foydalanib ko'paytirish mumkin. Bu usul orqali yaratilgan maxsulot tabiatning noqulay sharoitlariga, har xil kasalliklarga chidamliligi va moddiy jihatdan tejalishi, eng asosiysi tezroq natijaga erishish mumkin.

Nazorat savollari

1. O'zbekistonda farmakologiya sanoatini tabiiy manbalarga asoslangan xom ashyo bazasi bilan taminlash bo'yicha izlanishlar.

2. O'zbekiston Respublikasidagi tashkil etiladigan farm zonalari.

3. Dunyoda qancha madaniy o'simliklar bor?

4. Madaniy o'simliklarni o'rganish va ulardan foydalanish markazlari.

5. O'zbekistonda o'sadigan va ekiladigan dorivor o'simliklar.

6. Dorivor o'simliklarni ekib yetishtirish texnologiyasi qaysi tashkilotlarda o'rganilmoqda?

7. Dorivor o'simliklar yetishtiradigan maxsus xo'jaliklar qaysi viloyatlarda tashkil etilgan?

8. Ziravor o'simliklar biotexnologiyasi bu ularni ko'paytirish sun'iy sharoitda hosil qilish biotexnologiyasi.

IV BOB. HUYAYRA VA TO'QIMA KULTURASI TEKNOLOGIYASINING ASOSIY PRINSIPLARI.

Ajratilgan to'qimalar kulturasida odatda yoki kallusli, yoki shish (juda kam holatda) to'qima bo'lishi mumkin. Kallusli kultura tabaqalashmagan hujayralardan tashkil topgan, tartibsiz to'qimalardir. Keyinroq ular kallusligiga ixtisoslashadi, ya'ni o'ziga xos ravishda tabaqalashadi. Kallus degani qadoq (qotib qolgan) degan ma'noni anglatib, *in vitro* sharoitida alohida olingan to'qimalarni (eksplantlar) bir qismida va butun o'simlikni bir qismida (shikastlanganda) paydo bo'lishi mumkin.

O'simlik hujayrasini tabaqasizlanishi va uni kallusga aylanishi uchun shart bo'lgan sharoit-bu ozuqa muhiti tarkibida ikki fitogormonlarni ya'ni auksinlar va sitokininlarni bo'lishidir. Auksinlar hujayralarni tabaqasizlanishini (dedifferensirovka) chaqirsa ularni bo'linishiga tayyorlaydi, sitokininlar tabaqasizlangan hujayralarni bo'linishiga olib keladi. Agar tarkibida gormon saqlamagan ozuqa muhitiga poya, barg yoki ildizni bir qismini tiqib qo'yilsa, hujayralarni bo'linishi amalga oshmaydi va kallus to'qima hosil bo'lmaydi. Bu tabaqalashgan hujayralarni bo'linaolmasligi bilan bog'liqdir.

Apeksni asosiy qismida kallusli o'sishga o'tish jarayoni hujayra bo'linishini to'xtashi bilan boshlanadi. Lag – faza 24-28 soat davom etadi. Bu davr mobaynida hujayra kattalashib, to'qimalar shishadi. Lag faza tugagandan keyin hujayra tez bo'linib, kallus to'qima hosil qiladi. Shunday qilib, agar ixtisoslashgan hujayralarni dedifferensiatsiyasi fitogarmonlar ta'sirida bo'linishni kuchayishi (induksiyasi) bilan bog'liq bo'lsa, bo'linadigan meristemali hujayralarni dedifferensiatsiyasi bo'linishini to'xtashi bilan hujayrani ixtisoslanishi va faqatgina undan keyin kallus hosil bo'lishiga olib keluvchi bo'linishni kuchayishi bilan bog'liq.

Hujayrani *in vitro* sharoitida differensiallangan holatdan didefferensiallangan holatga va hujayrani faol bo'linishga o'tishi, genlarni faolligini o'zgarishi bilan boshlanadi. (Epigenomli o'zgaruvchanlik). Bir genni faollashuvi va ikkinchisini repressiyaga uchrashi hujayradagi oqsil tarkibini o'zgarishiga olib keladi. Kallusli hujayralarda o'ziga xos bo'lgan oqsillar paydo bo'ladi va bir vaqtning o'zida bargning fotosintez qiluvchi hujayralarida oqsillar miqdori pasayadi. Ikki pallali o'simliklarda didefferensiallangan genlarni repressiya va depressiya jarayonlari nisbatan oson o'tadi.

Kallusli hujayra o'zini rivojlanish sikliga ega bo'lib, har qanday hujayrani rivojlanishini qaytaradi: bo'linish, cho'zilish va differensiya va undan keyin qarish va hujayrani o'lish davri. Kallusli differensiyani ikkilamchi deb atasa bo'ladi, ammo uni morfogenez asosida yotuvchi hujayralarni ikkilamchi differensiyasi bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Kallus hujayralari nobud bo'lib qolmasligi uchun ularning bo'linishga bo'lgan qobiliyatlarini yo'qotmasliklari uchun, eksplantlarda paydo bo'lgan birlamchi kallus, 4-6 haftadan keyin yangi tayyorlangan ozuqa muhitiga o'tkazib turiladi. Bu operatsiyani – passirlash deb ataladi. O'z vaqtida bu jarayon o'tkazib turilsa, kallus hujayralari o'n yillab o'z bo'lini xususiyatini yo'qotmasligi mumkin.

In vitro sharoitida kallusli hujayralar o'simliklar organizmidagi oddiy hujayralarga xos bo'lgan ko'plab fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarni saqlab qoladi. Ular, ikkilamchi metabolitlar sintez qilish qobiliyatini yo'qotmaydilar. Sovuqqa chidamlilik xususiyati kallusli hujayralarda, o'simliklardagidek qaytariladi. Bunday xususiyat, tropik yoki subtropik o'simliklardan olingan kallus to'qimalarda bo'lmaydi. Kallusli to'qimalarga fotodavriylik reaksiyasi ham xos, bu fitoxron faolligini saqlab qolganligi bilan bog'liqdir.

O'simliklarni normal va kallusli to'qimlari uchun umumiylik yana qator belgilarda namoyon bo'ladi, xususan, yuqori haroratga chidamlilik, osmotik faol moddalarga, sho'rlanishga chidamlilik va h.k. Shuning bilan birga, kallusli to'qimalarni normal to'qimalardan farqli tomonlari ham bor. Ularda spesifik oqsillar paydo bo'ladi va umumiy oqsil miqdori, xususan bargda fotosintez jarayonida qatnashadigan oqsillar kamayadi yoki butunlay yo'qoladi. Kallusli hujayralar ulkan genetik geterogenligi va fiziologik sinxronlikni buzilganligi bilan farq qiladi. Organizm nazoratidan chiqqanligi sababli kallusli hujayralarni o'sishi tartibsiz, sinxronsiz ravishda o'tadi va chegaralanmaydi. Ochiq tuproqda o'suvchi o'simlikga nisbatan, kallusli hujayralarni hujayra sikli uzunroqdir.

Kallus hujayralari genetikasi. Uzoq vaqt kallusli hujayralar genetik bir xil deb hisoblab kelinar edi. O'tgan asrning 60-yillarida kallusli hujayralar genetik geterogen (ko'psonli) ekanligi aniqlandi. Ularni bir xil emasligi eng avvalo har xil sonli xromosomalar saqlashi bilan namoyon bo'ladi. *In vitro* sharoitida meristematik to'qimalar genetik mo'tadil bo'ladilar. Kallusli va suspensyon kulturalarda dastlabki o'simlikka xos bo'lgan qator diploid xromosomalar saqlovchi hujayralar 3, 4, 5 va undan ham ko'proq xromosomalar to'plami saqlovchi

poliploidli hujayralar uchraydilar. Kallusli to'qimalarni qanchalik uzoq vaqt o'stirilsa, o'shanchalik ular plodligi bilan farqlanadilar. Tamaki o'simligini kallusli to'qimlarida to'rt yil o'stirilgandan keyin umuman, diploidli hujayralar qolmaydi. Barcha hujayrlar poliploidli yoki aneuploidli bo'lib qoladilar. Bu esa ploidlilikni o'zgarishi o'stirish sharoiti ta'sirida, eng avvalo ozuqa muhiti tarkibidagi moddalar ta'sirida amalga oshishini ko'rsatadi.

O'stirilayotgan hujayralarda mikroskop ostida ko'rinadigan xromosomali mutatsiyalardan tashqari ko'rinmaydigan o'zgarishlar ham sodir bo'lishi mumkin. Bunday o'zgarishlar xromosomalarni bir qismida hamda genlarni tuzilishida ham bo'lishi mumkin. Genli mutatsiyalar hujayralarni morfologiyasi va fiziologik-biokimyoviy xossalarini o'zgarishida namoyon bo'ladi. O'stirilayotgan hujayralarni genetik mo'tadil emasligi sabablari eng avvalo – dastlabki materialni genetik bir xil bo'lmaganligi (eksplantlarni geterogenligi). Ko'pchilik o'simliklarda tabaqalashgan to'qimalar, har xil ploidlilik hujayralarga ega bo'ladilar va faqatgina to'qimani ontogenezi davrida faol ko'payadilar, yuqori meristemalar, kambiyalar va boshqalar esa doimo diploid holatda qoladi. Boshqa bir sabab – bu to'qima va hujayralarni uzoq muddat ekilishi, o'z navbatida bunday sharoitda ulardagi genetik o'zgarishlar, jumladan ploidlilikni bir xil bo'lmagan o'zgarishi sodir bo'ladi.

O'simlik to'qimalarini bir qismini ajratib olib, ularni ozuqa muhitiga o'tkazishda bir biriga mos aloqalarni buzilishi ham hujayralarni genetik mo'tadillikdan chiqishiga olib keladi. Shunga o'xshash natijalar ozuqa muhiti tarkibidagi fitogormonlarni hujayraning genetik apparatiga ta'siri oqibatida namoyon bo'lishi mumkin. Kallus hosil bo'lishi uchun gormon sifatida albatta ozuqa muhiti tarkibida auksinlar va sitokininlar kiritiladi. Bu moddalarni mutagenlik xususiyati esa ko'pchilik olimlar tomonidan isbotlangan. Eng kuchli mutagenlik xususiyati esa ko'pchilik ozuqa muhitlari tarkibiga kiruvchi 2,4-D preparatida kuzatilgan.

Hujayra rivojlanishini tabaqasizlangandan keyin o'tadigan bir necha yo'li ma'lum. Birinchi yo'l – bu butun o'simlikni qayta regeneratsiyasi, balkim, hujayra, to'qima, organlar darajasida tabaqalanish. Ikkinchi yo'l hujayrani qayta tabaqalanish xususiyatini yo'qolishi va o'simlikni regeneratsiyasi, mustahkam tabaqasizlanish, gormonsiz muhitda o'sish xususiyati, ya'ni shishga aylanish. Bunday xossalar eski (qari) ko'chat kulturalarga xos. Uchinchi yo'l – kallusli hujayrani normal rivojlanish sikli, uni qarib, nobud bo'lishi bilan

tugaydi. Bu holatda hujayra ikkilamchi tabaqalanishga uchraydi va bo'linishdan to'xtaydi (o'sishni stasionar fazasi). Ammo bunday tabaqalanish morfogenezga olib kelmaydi va unda qarigan kallus hujayralari xossalarini mustahkamlaydi.

Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi uchun eng qiziqarlisi butun o'simlikni alohida hujayrasidan olingan to'qima kulturasini regenerasiyasi hisoblanadi. Ba'zida bu yo'l alohida organlar hosil bo'lish orqali o'tadi. To'qimalar kulturasini u organogenez sifatida (monopolyar tuzilishini hosil bo'lishi, ya'ni alohida organlarni) ko'rinish mumkin: ildiz, poya, kamroq feoral (gulli) yoki bargli hamda somatik embriogenez, ko'rinishida (somatik hujayralardan biftolyar zarodish kurtaksimon tuzilmalar holatida) ko'rinishi mumkin. Organogenezda dastlab alohida organlar regeneratsiya bo'ladi, keyin esa ulardan butun o'simlik paydo bo'ladi. Ildiz organogenezi bundan mustasno. Somatik embriogenez natijasida organogenezdan farqli o'laroq, ildiz meristemi hamda tepa qavat meristemalariga ega bo'lgan kurtak hosil bo'ladi va undan keyinroq butun o'simlik o'sib chiqadi.

Alohida olingan somatik hujayralarni o'z rivojlanish dasturini to'liq bajara olishi va butun o'simlik organizmi o'sib chiqishi uchun asos yaratib berish xususiyati, o'simlik hujayrasini totipotentligi deb ataladi. O'simlikni har qanday hujayrasi bir xil potensial imkoniyatlrga ega, chunki barcha kerakli genlar to'plamiga ega, demak, hujayra zigotaga xos bo'lgan rivojlanish dasturiga ega. Shuning uchun ham agar gul bargi hujayrasidan yoki poyani o'zaksimon parenxima yoki har qanday hujayra to'qimalardan kallus olinganda umuman hujayrani har qanday to'qimasidan butun o'simlik olish mumkin. Ammo, totipotentlik xossalari hamma vaqt ham namoyon bo'lavermaydi, chunki har xil tipdagi hujaylarni potensial imkoniyatlari bir xil namoyon bo'lavermaydi. Ulardan ba'zi birlarida genlar kuchli repressiya holatida bo'ladilar va shu sababli ham totipotentlikni namoyon bo'lishi chegaralangan bo'ladi.

O'simlik hujayralarida totipotentlik g'oyasi birinchilardan bo'lib, 1902 yilda G.Xaberlant tomonidan ilgari surilgan bo'lsada, tajribalar bilan isbotlangan emas edi. «O'simlikni har qanday hujayrasi yangi organizm paydo bo'lishiga asos bo'la oladi, faqatgina o'simlik organizmi hujayrani rivojlanish potensiyasini bosib qo'ygan holatdagina bunday bo'lmisligi mumkin» -degan edi Xaberlant. O'simlikdan hujayrani alohida ajratib olish mana shu potensiyalarni namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Morfogenezni hujayra asosini sitodifferensirovka tashkil qiladi. O'simlikni regeneratsiyasi hujayrani ikkilamchi tabaqalanishidan boshlanadi. Bunda, tabaqasizlangan hujayra boshqatdan ixtisoslashgan hujayrani strukturasi va funksiyasini egallaydi.

Kallusli hujayralarni ikkilamchi differensirovkasi har doim ham o'simlikni regeneratsiyasi va morfogenez bilan tugallanavermaydi. Ba'zida u faqat to'qima hosil bo'lishiga olib keladi xalos (gistodifferensirovka). Shu yo'l bilan kallusli hujayra floemli yoki ksilemli elementlarga aylanishi mumkin. Ikkilamchi tabaqalanishga boshqa bir misol bo'lib, tabaqasizlangan faol proferatsiya qiladigan hujayrani – eski (qari) bo'linmaydigan kallusli hujayraga aylanib qolishi xizmat qilish mumkin (rivojlanishni stasionar fazasi).

Barcha ko'rinishdagi ikkilamchi tabaqalanishdan eng katta qiziqish uyg'otadigani, bu morfogenezdir, chunki u kallusli hujayradan butun o'simlik yaratish imkonini beradi.

Tabaqalanish va morfogenezni asosida har xil genlarni birin-ketin qo'shilishi yotadi, ya'ni hujayrani tabaqalanishi genlarni tabaqalashgan faolligi bilan aniqlanadi. Struktura genlarini faolligini o'zgarishi ularni derepressiyasi (uyg'onishi), repressiyasi yoki amplifikatsiyasi (ko'payishi) bilan bog'liq. Bu jarayonda fitogormonlar katta rol o'ynaydilar. Kallusli to'qimalarni morfogenezini boshqarish mumkin. O'simliklarni alohida ajratib olingan hujayralarini morfogenezga bo'lgan qobiliyatlariga ham ichki, ham tashqi faktorlar ta'sir ko'rsatadilar. Ichki faktorlarga: dastlabki o'simlikni qaysi turga mansubligi, eksplant olingan organ, eksplantning yoshi kiradi. Tashqi faktorlarga esa, eng avvalo ozuq muhiti tarkibi, harorat, yorug'lik (uni intensivligi va fotodavrning uzunligi) kiradi. Morfogenezni eng kuchli induktori – ozuqa muhti tarkibiga kiruvchi sitokinin va auksinlarning o'zgarishi hisoblanadi. Buni stimulyoki morfogenezni signali deb ham yuritiladi. Auksinga nisbatan sitokininlar miqdori ko'proq bo'lganda, poya organogenezi boshlanadi, teskari bo'lganda esa (auksin sitokininga nisbatan ko'proq bo'lganda) ildiz yaxshiroq rivojlanadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, kallusli to'qimalar kulturasiidan hosil bo'lgan ildizdan hech qachon butun o'simlik hosil bo'lmaydi, poyali organogenezda esa dastlab novda hosil bo'ladi va uni ko'proq auksin saqlagan ozuqa muhitlariga ko'chirib o'tkazilgandan keyin, o'zidan ildiz chiqaradi va butun o'simlik hosil qiladi.

Agar organogenezni auksin yoki sitokininlar yordamida kuchaytirish mumkin bo'lsa, somatik embriogenez- ekzogen

fitogarmonlarga umuman bog'liq emas. Odatda embriogen zonalar kallusli to'qimalarda, kallus hosil qilish uchun ishlatilgan ozuqa muhitida paydo bo'ladi. Kallusli to'qimalarda somatik kurtaklarni rivojlanishi, ozuqa muhitidan tabaqasizlantiruvchi faktor (2,4-D yoki boshqa auksinlar) olib tashlangandagina boshlanadi. O'sayotgan kurtak ekzogen gormonlarga muhtojlik sezmaydi, chunki uni o'zi gormon sintez qilish imkoniyatiga ega va o'zini-o'zi gormon bilan ta'minlay oladi.

Mikroklonal ko'paytirish. Klonal mikroko'paytirishni dastlabki muvaffaqiyatlari o'tgan asrning 50-yillari oxirida fransuz olimi Jorj Morel orxideya o'simligining regenerantini yaratganda erishilgan edi. Bu muvaffaqiyatga o'sha vaqtlarda yaratilgan, *in vitro* sharoitida o'simliklarni apikal meristemalarini ko'paytirish texnikasi o'z hissasini qo'shgan. Odatda olimlar birlamchi eksplant sifatida o'tchil o'simliklarni ustki meristemalaridan foydalanadilar, va ozuqa muhiti tarkibini o'simlikni regeneratsiya va paydo bo'lish jarayonlariga ta'sirini o'rganadilar. Xuddi shu maqsadda chinnigul, xrizantema, kungaboqar, no'xat, makkajo'xori, qoqio't va boshqa o'simliklar o'rganib chiqilgan edi. Mamlakatimizda bu usul ilmiy laboratoriyalarda sinab ko'rilmogda. Xususan, Toshkent Davlat agrar universiteti biotexnologiya kafedrasida ilmiy laboratoriyasida kartoshkani klonal mikroko'paytirish usullari orqali kasalliklarga, issiqqa, shorlanishga chidamli navlarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmogda.

Shuni ham eslatib o'tish o'rinliki, mikroko'paytirishdan foydalanish doirasi juda keng bo'lib, kundan kunga yanada oshib bormogda. Eng avvalo bu *in vitro* sharoitida o'simliklarni yog'ochli turlarini, ayniqsa, ingibitorlar va bu usulni yo'qolib ketayotgan o'simliklar hamda dorivor o'simliklarni ko'paytirish uchun ishlatilganda katta samara beradi.

Klonal mikroko'paytirish jarayonini 4 ta bosqichga bo'lish mumkin:

✓ *birinchi – donor o'simlikni tanlash, eksplantlarni ajratish va yaxshi o'sadigan steril kultura olish;*

✓ *ikkinchi – mikroko'paytirishni o'zi, bunda meriklonlarni eng ko'p (maksimal) miqdorini olishga erishiladi;*

✓ *uchinchi – ko'paytirilgan navdani ildiz olishi va ularni tuproq sharoitiga moslashtirish, kerak bo'lganda regenerant – o'simliklarni sovuq xaroratda (+2⁰, +10⁰) saqlash;*

✓ *to'rtinchi – o'simlikni issiqxona sharoitida o'stirish va ularni maydonga chiqarib ekish yoki sotishga tayyorlash.*

Klonal mikroko'paytirishni ko'p usullari ma'lum. Ko'plab mualliflar eksplantlarni o'stirishga sharoitni morfogenez jarayoniga

ta'sirini o'rgana borib, o'stirish sharoitini o'zgarishiga har xil mofogenetik reaksiya bo'lishini kuzatganlar, bu esa klonal mikroko'paytirish metodlarini yangi klassifikatsiyasini yaratishiga olib keldi.

Bu jarayonni quyidagi yo'llar bilan amalga oshirish mumkin:

✓ *o'simlikda bor bo'lgan meristemalarni rivojlanishini jadallashtirish (poya apeksi, poyani kurtaklari);*

✓ *eksplantlar to'qimalarida to'g'ridan - to'g'ri adventiv kurtaklar hosil bo'lishini induksiya qilish;*

✓ *somatik embriogenezni induksiya qilish;*

✓ *birlamchi va ko'chat oluvchi kallusli to'qimalarda adventiv kurtaklarni tabaqalashtirish.*

O'simliklarni klonal mikroko'paytirishda ishlatiladigan asosiy usul – bu o'simliklarda bor bo'lgan meristemalarni rivojlanishini faollashtirish bo'lib, u apikal ustivorlikni olib tashlashga asoslangan. Bunga ikki yo'l bilan erishish mumkin:

➤ *poyani tepa meristemasini olib tashlash va keyin navdani in vitro sharoitida gormon saqlamagan muhitda mikroqalamchalash;*

➤ *ozuqa muhitiga sitokinin ta'siriga ega bo'lgan moddalar qo'shish (navdani o'sishini kuchaytirish).*

Odatda, sitokinin sifatida – 6-benzilaminopurin (BAP), 6-furfurilaminopurin (kinetin), hamda 2-izopenteniladenin (2ip) va zeatin ishlatiladi.

Shunday yo'l bilan olingan novdalarni birlamchi ona eksplantidan ajratiladi va qaytadan yangi tayyorlangan ozuqa muhitida o'stiriladi. Hozirgi vaqtda bu usul orqali qishloq xo'jalik o'simliklari va dorivor o'simliklarni virussiz ekuv materiallarini tayyorlashda keng qo'llaniladi.

Nazorat savollari.

1.Kallus nima va u qanday shakllanadi?

2.Suspension kulturalardan dorivor moddalar olish mumkinmi?

3.Kallusli kulturalar genetikasi haqida nimalarni bilasiz?

4.O'simliklarni mikroklonal ko'paytirish qanday ko'paytirish hisoblanadi?

5. Klonal mikroko'paytirish jarayonini necha bosqichga bo'lish mumkin?

V BOB. DORIVOR O'SIMLIKLARNI ZAXIRASINI ANIQLASH VA XARITAGA BELGILASH USULLARI.

O'simlik turlarini aniqlash murakkab vazifa bo'lib, biologik xilma-xillikni samarali o'rganish va noma'lum turlarni tadqiq qilishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatimiz hududi juda katta bo'lib, turli iqlimli tumanlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz o'simliklar dunyosi - florasida turli o'simliklarga boy. Ularning ichida dorivorlari ham ko'p bo'lib, har yili ming tonnalab dorivor o'simliklar mahsuloti tayyorlanadi hamda kasalliklarni davolash va oldini olish uchun ishlatiladi. Mamlakatimizda yovvoyi holda o'sadigan o'simliklarning tabiiy boyligi har qancha ko'p bo'lmasin, baribir ularni ham chegarasi bor. Cheksiz miqdorda yer yuzida hech qanday boylik bo'lmaganidek, o'simlik dunyosining zaxirasi ham cheksiz emas. Shuning uchun ham tabiiy holda o'sadigan o'simlik boyliklaridan to'g'ri foydalanilmasa bu «cheksiz boyliklar» bir vaqtlar kelib Yer yuzida yo'q bo'lib ketishi mumkin.

Dorivor o'simliklar va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida o'z ijobiy aksini topdi. Bu borada 1972-yil dekabr oyida qabul qilingan «Tabiat muhofazasini kengaytirish va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash to'g'risida» va 1977-yilda Sobiq Ittifoq Oliy Kengashi tomonidan qabul qilingan «O'rmonlar muhofazasini va o'rmon resurslaridan foydalanishni bundan keyin yaxshilash choralari to'g'risida»gi qarori va boshqa qarorlari diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, hamdo'stlik mamlakatlarining hududini o'ndan bir qismini o'rmonlar tashkil qiladi. Ular ichida juda ko'p miqdorda turli dorivor o'simliklar o'sadi. Shuning uchun ham o'rmonlarni muhofaza qilish ularda yosh holda o'sadigan dorivor o'simliklarni muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Tabiatni, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan (o'rmon, suv va suv boyliklari, yer osti boyliklari va boshqalar). To'g'ri va oqilona foydalangan holda, ularni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish zarurligi bizning asosiy qonunimiz – Respublika Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. Akademiklar E.M.Lavrenko va A.L.Taxtadjyanlar tashabbusi bilan tuzilgan «Qizil kitob»ning yo'qolib ketgan va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan o'simliklarni, jumladan dorivor o'simliklarni tabiiy o'sish sharoitida saqlab qolishda, ya'ni ularni muhofaza qilishda ahamiyati juda kattadir. «Qizil kitob» da yo'qolib

ketgan va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan o'simliklarni faqat ro'yxati keltirilgan bo'lmay, kitobda shu o'simliklarni tabiiy o'sish sharoitida saqlab qolish va tiklash qanday choralar ko'rish lozimligi hamda yo'qolib ketish sabablari keltirilgan.

Sobiq Ittifoq "Qizil kitob"iga 444 ta, O'zbekiston «Qizil kitob»iga 163 ta o'simlik, shu jumladan 20 tadan oshiq dorivor o'simliklar kiritilgan. Ularning xom-ashyosini turli maqsadlar uchun yig'ish qat'iy man etiladi. Shuning uchun zarur bo'lsa ularni plantatsiyalarda o'stirish talab etiladi.

O'zbekiston dorivor o'simliklaridan quyidagilar «Qizil kitob»ga kirgan:

1. Anjir (yowoyi holda o'sadigani).
2. Anor (yow oyi holda o'sadigani).
3. Bozulbang.
4. Viktor qoraqabug'i.
5. Yetmak.
6. Solab turlari.
7. Tillarang adonis va boshqalar.

Dorivor o'simliklarni tabiatdagi zaxirasini saqlab qolish va har yili ulardan ma'lum miqdorda mahsulot tayyorlab turish maqsadida, yuqorida aytib o'tilgan tadbirlardan tashqari yana quyidagi qoidalarga rioya qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Dorivor o'simlik mahsulotlarini o'z vaqtida to'g'ri va kerakli miqdorda tayyorlash, to'g'ri quritish va saqlash lozim. Bu esa yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklarni ortiqcha yig'ib, keyinchalik ularni mog'orlatib va chiritib ketishi natijasida tashlashdan saqlaydi.

2. Dorivor o'simlik mahsulotlarini ilmiy asoslangan reja bo'yicha, ko'p o'sadigan joylarni va zaxirasini to'g'ri aniqlab bilgan hamda tayyorlanadigan joylarini vaqt-vaqtida almashtirib turgan holda yig'ish lozim.

3. Ko'p yillik o'simliklarning yer ustki qismi (bargi, guli, mevasi) dan dori tayyorlanadigan bo'lsa, ularning ildizi bilan sug'urib olmaslik lozim. Bordiyu, yer ostki organlari (ildizpoya, ildiz, tuganak) kavlanadigan bo'lsa, mevasi pishib to'kilgandan so'ng yig'ish kerak. Aks holda shu dorivor o'simliklar keyinchalik o'sha joyida o'sib chiqmasligi mumkin.

4. Yovvoyi holda o'sadigan dorivor o'simliklar dori tayyorlash uchun yig'ib olingandan so'ng (ayniqsa, yer osti organlari kavlab olingandan so'ng) ularning keyinchalik yana o'sib chiqishiga katta

ahamiyat berish lozim. Buning uchun bir yerdan necha yilgacha o'simlik mahsulotini yig'ish mumkin va necha yil dam berish kerakligi haqidagi qoidalarga qat'iy rioya qilish kerak.

5. Dorivor o'simliklardan kompleks va hamma qismlaridan to'liq foydalanish zarur bo'lganda ularning xom ashyosini kamroq tayyorlash kerak. Natijada tabiiy o'sish joyida ularning zaxiralarini saqlab qolish mumkin bo'ladi. Agarda dorivor o'simliklar ildizpoyasi, ildizi, tuganak yoki piyozi dorivor mahsulot bo'lsa, shu o'simliklarning yer ustki qismini kimyoviy va farmakologik jihatdan o'rganib, yer ostki organlari o'rnida ishlatishga tavsiya etish, shu o'simlikning tabiiy o'sish joyidagi zaxirasini saqlab qolishda ahamiyati juda katta. Bu ham dorivor o'simliklarni muhofaza qilishning asosiy tadbirlaridan biridir.

6. Dorivor o'simliklarni sug'oriladigan yerlarga ko'proq ekib o'stirish va ularni agroteknikasini yaratilsa, respublikamizda tabiiy sharoitda o'sayotgan dorivor o'simliklar zaxirasini saqlab qolish imkoniyati yaratiladi.

O'simlik turlarini qo'lda aniqlash ko'p vaqt talab qiladigan jarayon bo'lib, bu sohada katta tajribani talab qiladi. Kompyuterni ko'rish va texnologiyani o'rganish texnikasiga asoslangan avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimlari ushbu vazifa uchun muqobil va yordamchi yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu tizimlar foydalidir, ammo ularning aniqligi turlarning xilma-xilligi tufayli farq qiladi. Yaqinda o'tkazilgan so'rov o'simliklarni barglar orqali aniqlash uchun texnologiyani o'rganish (ML) va chuqur o'rganish (DL) tobora ortib borayotganini ta'kidladi. Mobil ilovalar bilan integratsiyalashgan holda ML va DL texnikasi kasal va sog'lom o'simliklarni ajratish, o'tlar va dorivor o'simliklarni aniqlash va tasniflash uchun tobora ko'proq qo'llanilmoqda., umumiy o'simliklar va o'ziga xos o'simlik turlarining tasnifi, ekinlarga xos kasalliklarni aniqlash va dala ekskursiyalariga rahbarlik qilish uchun o'simliklarning umumiy identifikatsiyasi.

Dorivor o'simliklar va o'tlar qadim zamonlardan beri ko'plab jamiyatlarda turli kasalliklarni an'anaviy davolashda qo'llanilib kelinmoqda. Sun'iy intellekt (AI) va turli xil axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasidagi yutuqlar bilan minglab o'simlik turlaridan dorivor o'simliklarni avtomatik ravishda aniqlash zarurati faqat o'sishda davom etishi mumkin. Indoneziyadagi tadqiqotchilar 30 xil dorivor o'simliklarning barg teksturasini ajratib olish uchun mahalliy ikkilik naqshlardan foydalanishdi va keyin o'simlik barglarini avtomatik ravishda tasniflash uchun ehtimoliy Neyron tarmoqlarini qo'llashdi va

56% dan sal ko'proq tasniflash aniqligiga erishdilar. Ma'lumotnomada tadqiqotchilar mobil ilova yordamida Malayziyada topilgan 20 xil o'tlarni avtomatik ravishda tasniflash uchun qo'llab-quvvatlovchi vektor texnologiyasi (SVM) va DL Neyron Networksdan foydalanganlar. Mobil ilova kiritilgan barg tasvirini qayta ishlash va tasniflash natijalarini qaytarish uchun atigi 2 soniya sarflagani haqida xabar berdi, tasniflash aniqligi 93%. Xuddi shunday, Referenceda, Indoneziyada tez-tez uchraydigan 51 dorivor o'simlik turini avtomatik identifikatsiyalash imkonini berish uchun mahsulotni qaror qabul qilish qoidalaridan foydalangan holda loyqa mahalliy ikkilik naqsh va loyqa rang gistogrammasining sintezi amalga oshirildi.

Rangli gistogrammalarni tasniflash uchun ehtimolli neyron tarmoqlari ishlatilgan, xabarlarga ko'ra, 74% dan sal ko'proq aniqlikka erishgan. Ushbu tadqiqotlarda erishilgan istiqbolli natijalar dorivor o'simliklar tasnifini avtomatlashtirish uchun mobil ilovalarda ML va DL modellaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligini aniq ko'rsatib turibdi. 450 000 dan ortiq turli o'simliklar bo'lishi mumkinligi, ularning uchdan bir qismi yo'q bo'lib ketish arafasida ekanligi xabar qilingan. Shuning uchun o'simlik turlarini oson va avtomatik aniqlash ularni saqlab qolish yo'lidagi muhim qadamdir. Ilmiy tadqiqot hamjamiyati ushbu qadamni amalga oshirish uchun say-harakatlarni davom ettirmoqda.

Ma'lumotnomada tadqiqotchilar Backpropagation Neural Networks va og'irlashtirilgan K-NN yordamida qo'shma klassifikatorni qurdilar va Xitoyda topilgan 220 o'simlik turini (angiospermlar) avtomatik tasniflashni ta'minlash uchun uni android asosidagi mobil ilovada joylashtirdilar. Xabarlarga ko'ra, qo'shma tasniflagich deyarli 93% tasniflash aniqligiga erishgan. K-NN xuddi shunday Mavrikiyda keng tarqalgan 32 xil o'simlik turlarini aniqlash uchun Referenceda ishlatilgan, barg shakli xususiyatlari va rang gistogrammasidan foydalangan holda; xabarlarga ko'ra, 87% dan sal ko'proq aniqlikka erishilgan. Ma'lumotnomada, android asosidagi maxsus ishlab chiqilgan mobil ilova Fransiyaning O'rta yer dengizi hududida keng tarqalgan 126 daraxt turidan daraxtni daraxt barglaridan foydalanib, 90% gacha aniqlik bilan aniqlashga muvaffaq bo'ldi.

Tadqiqotchilar bunga daraxt barglari tasvirlarini xususiyat maydonini yaratish uchun segmentlash orqali erishdilar va keyin sinfni taxmin qilish uchun gistogramma kesishmasidan foydalanishdi. Xuddi shunday, Back-end klassifikatoriga ega maxsus qurilgan mobil ilova,

Bag of Words modeli va SVM bilan SIFT xususiyatlaridan foydalangan holda, Shri-Lankada keng tarqalgan 20 xil o'simlik turlarini 96,48% aniqlik bilan tasniflashga muvaffaq bo'ldi. Bundan tashqari, mobil ilovada joylashtirilgan CNN modellari, jumladan, VGG19, MobileNet va MobileNetV2 Yaponiyaning Sharqiy Xokkaydo shtatida keng tarqalgan 33 xil turdagi barglarni aniqlay oldi, MobileNetV2 99% dan yuqori aniqlikka erishdi.

Ma'lumotnomada tadqiqotchilar, shuningdek, butun dunyodan to'plangan 129 xil turdagi barglarning tabiiy tasvirlarini tasniflash uchun Androidga asoslangan mobil ilovada CNN modelini joylashtirdilar. Yagona tasvirni tasniflash 2,5 soniya davom etdi va 60% dan yuqori Top-3 sinov xatosini oldi. Xuddi shunday, Referenceda tadqiqotchilar Hindistonda keng tarqalgan besh xil o'simlik turiga mansub o'simlik barglarini barg rangi va shakliga qarab tasniflash imkoniga ega bo'lgan mobil ilovani taqdim etdilar. Barg shakllaridan foydalangan holda tasniflashni amalga oshirish uchun barglarning olingan morfologik xususiyatlari Sobel va Otsu usullaridan foydalangan holda, rangga asoslangan tasniflash esa dominant rang usuli yordamida amalga oshirildi. Ma'lumotnomada CNN yordamida barglar tasnifi uchun mobil ilovaning natijalari taqdim etildi.

Ushbu tadqiqot Kaliforniya va Shimoliy Karolinada keng tarqalgan o'simliklarning 15 barg turini tasniflashda turli CNN arxitekturalarining ishlashi bilan tajriba o'tkazdi. Ma'lumotlarga ko'ra, Deep CNN lar eng yuqori tasniflash aniqligiga 81,6% erishgan, mobil ilova galereyadan NN klassifikatoriga so'rovlar varaqlari tasvirini yuklash uchun taxminan 5.2 soniya sarflagandan so'ng tasniflash topshirig'ini 2,5 soniyada yakunlagan. Yuqorida qayd etilgan keltirilgan natijalar o'simlik turlarini avtomatik aniqlash va tasniflashni osonlashtirish uchun ML va DL modellaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan mobil ilovalar tasniflagichlarining istiqbolli samaradorligini ko'rsatadi. Bu nafaqat yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni saqlash yo'lidagi muhim qadam, balki bunday mobil ilovalar oxir-oqibat tabiatdagi turli plantatsiyalarga sayohatlar chog'ida ko'rsatma bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tadqiqotchilar barg morfologik xususiyatlaridan va burchak kodining gistogrammasidan foydalanadigan mobil ilova AQShda olti xil o'simlik turiga ega yovvoyi dalada qanday qilib ekskursiya bo'yicha qo'llanma bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi, xatolik darajasi 17%. va 53%. Ushbu xato darajasi yuqori bo'lib ko'rinsa-da, ochiq tabiatda dala safari uchun boshlash umid beruvchi natijadir.

Joriy tadqiqot real vaqt rejimida asosan Borneo mintaqasida joylashgan dorivor o'simliklar va o'simliklarni avtomatik aniqlash imkonini beruvchi mobil ilovani ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot adabiyotdagi tegishli ishlarda o'rnatilgan istiqbolli usullarning kuchli tomonlariga asoslanadi, shu bilan birga ularda aniqlangan zaif tomonlarni (bo'shliqlarni) ko'rib chiqadi. Ko'rib chiqilgan tadqiqotlarning aksariyati o'zlarining ML va DL modellarini o'rgatish va baholash uchun o'zlari yaratgan kichik o'lchamli ma'lumotlar to'plamlaridan foydalangan yoki butunlay (ya'ni, o'qitish va sinovdan o'tkazish) ba'zi ochiq mavjud tasvir ma'lumotlar to'plamlaridan (masalan, ImageCLEF, Flavia, ICL Plantae, PlantVillage, CVIP100, Flavia, Shvetsiya va boshqalar), potensial va mos ravishda haddan tashqari o'rnatilgan va to'liq o'rnatilgan modellarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, ko'rib chiqilgan ko'plab tadqiqotlar oq fonda olingan toza barg tasvirlarini ko'rib chiqdi, bu barg tasvirlari ko'pincha toza bo'lmagan fonda olinadigan haqiqiy dunyo sharoitida bunday holat bo'lishi mumkin emas. Bundan tashqari, mukammal (95% dan ortiq) tasniflash aniqligini bildirgan tadqiqotlar, asosan, bitta o'simlikni (masalan, pomidor) tasniflashni o'z ichiga oladi va shu bilan ularning keng doiradagi turlariga qo'llanilishini cheklaydi. Bundan tashqari, keyingi tasniflash uchun klassifikatorning bilim bazasini yanada boyitish maqsadida mobil ilova yakuniy foydalanuvchisining kuzatilgan tasnif natijalari bo'yicha fikr-mulohazalari hisobga olinmadi.

Joriy tadqiqotda taklif etilgan mobil ilovani ishlab chiqish, shuning uchun Borneo mintaqasiga xos bo'lgan o'tlar va dorivor o'simliklarni saqlash bo'yicha mavjud sa'y-harakatlarga qimmatli qo'shimcha bo'lib, birinchi navbatda, eng ko'p turlarga boy hudud hisoblanadi. Joriy tadqiqot turli xil EfficientNet chuqur o'rganish modellari bilan tajriba o'tkazdi va optimallashtirdi, chunki transferni o'rganish asosan real vaqtda ko'p sinfli tasvirlarni tasniflash vazifalari uchun eng yaxshi tasniflash natijalarini ishlab chiqarish uchun ajratilgan. Tadqiqotning o'ziga xos xususiyati mobil ilova yordamida kraudsorsing bilan bog'liq fikr-mulohazalarni taqdim etish va Borneo mintaqasidagi turlarning geoxaritasini yaratishdir. Bu mintqa uchun muhim, chunki bir nechta mahalliy o'simlik turlari (mahalliy nomlari va foydalari bilan) mutaxassislarga noma'lum. Tizim moslashtirilgan ta'lim yondashuvini taqdim etadi, unda modellar yangi to'plangan ma'lumotlar va odamlarning fikr-mulohazalari asosida yangilanishi mumkin.

Biz real vaqtda dorivor o'simliklar turlarini aniqlashni avtomatlashtirishga qodir bo'lgan texnologiya ko'rish tizimini taklif qildik.

Tasvir berilganda dorivor o'simlik turlarini aniqlash uchun konvulyutsion neyron tarmoq (CNN) modeliga ega bo'lgan uchdan uchiga kompyuter ko'rish tizimi ishlab chiqilgan.

Nazorat savollari

1.O'zbekiston dorivor o'simliklarining xom ashyo bazasi.

2.O'zbekiston yovvoyi holda o'sadigan va yetishtiriladigan dorivor o'simliklar.

3.Yangi istiqbolli dorivor o'simliklarni izlab topish usullari.

4.Xorijiy mamlakatlardan keltirilgan dorivor o'simliklar va ularning mahsulotlari ro'yxati.

5.O'zbekiston florasidan ilmiy tibbiyotga joriy qilingan yangi dorivor o'simliklar.

6. Dorivor o'simliklarni tabiatdagi zaxirasini saqlab qolish qoidalari.

7. Dorivor o'simliklarni tabiatdagi zaxirasini aniqlashda avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimlari.

8. Minglab o'simlik turlaridan dorivor o'simliklarni avtomatik ravishda aniqlash texnologiyalari.

VI BOB. DORIVOR O'SIMLIKLAR HUJAYRA, TO'QIMA VA ORGANLARINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYALARIDA YANGI YONDASHUVLAR.

Dorivor o'simliklardan o'simlik to'qimalari kulturalari bilan ikkilamchi metabolitlarni ishlab chiqarishdagi yutuqlar tufayli o'simlik kimyoviy moddalarini ishlab chiqarish uchun to'qima kulturalari texnologiyasi sohasidagi tadqiqotlar kutilganidan ham ko'proq gullab yashnadi. Hujayra kulturalari tizimining butun o'simliklarni an'anaviy yetishtirishga nisbatan asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Foydali birikmalar iqlim o'zgarishlari yoki tuproq sharoitidan qat'iy nazar, nazorat qilinadigan sharoitlarda ishlab chiqarilishi mumkin.

Kultural hujayralar mikroblar va hasharotlardan holi bo'lar edi.

Har qanday o'simlikning hujayralari, tropik yoki alp tog'lari, ularning o'ziga xos metabolitlarini berish uchun osongina ko'paytirilishi mumkin.

Hujayra o'sishini avtomatlashtirilgan nazorat qilish va metabolit jarayonlarini oqilona tartibga solish mehnat xarajatlarini kamaytiradi va hosildorlikni oshiradi.

Organik moddalar kallus kulturalaridan olinadi.

Ikkilamchi metabolitlarni ko'paytirish va ekstraksiya qilish uchun o'simlik hujayralari va to'qimalarining kulturalari muntazam ravishda o'simlik barglari, poyalari, ildizlari va meristemalari kabi eksplantlardan steril sharoitda o'rnatilishi mumkin. Shtammni yaxshilash, yuqori hosil qiluvchi hujayra liniyalarini tanlash usullari va o'rtacha optimallashtirish ikkilamchi metabolit ishlab chiqarishni kuchaytirishga olib kelishi mumkin. O'simlik hujayralari, to'qimalari va organ kulturalarining tabiatdagi ona o'simlik kabi qimmatli kimyoviy birikmalarning ko'pini ishlab chiqarish va to'plash qobiliyati deyarli *in vitro* texnologiyasi boshlanganidan beri e'tirof etilgan.

Bugungi bozorda tabiiy, qayta tiklanadigan mahsulotlarga bo'lgan kuchli va o'sib borayotgan talab *in vitro* o'simlik materiallariga e'tiborni ikkilamchi fitokimyoviy mahsulotlar uchun potensial zavodlar sifatida qaratdi va *in vitro*da ikkilamchi mahsulot ifodasini o'rganish bo'yicha yangi tadqiqotlar uchun yo'l ochdi. Bir qator mavjud butun ekin o'simlikda *in vivo* emas, balki o'simlik hujayrasi kulturasida qimmatli ikkilamchi mahsulotni ishlab chiqarishning aniq afzalliklari

Bularga quyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarish yanada ishonchli, sodda va bashorat qilinadigan bo'lishi mumkin.

- Fitokimyoviy moddalarni ajratish murakkab butun o'simliklardan ekstraksiya bilan solishtirganda tez va samarali bo'lishi mumkin.

- *In vitro* ishlab chiqarilgan birikmalar butun o'simlikdagi birikmalarga to'g'ridan-to'g'ri parallel bo'lishi mumkin.

- Hujayra kulturasida dalada o'stirilgan o'simlikda paydo bo'ladigan aralashuvchi birikmalardan qochish mumkin.

- To'qimalar va hujayra kulturasida katta hajmlarda aniqlangan standart fitokimyoviy moddalar manbasini berishi mumkin.

- To'qimalar va hujayra kulturasida elisitatsiyani tekshirish uchun potensial modeldir.

- Hujayra kulturasida radioaktiv etiketlanishi mumkin, shunday qilib to'plangan ikkilamchi mahsulotlar laboratoriya hayvonlariga ozuqa sifatida berilganda, metabolik yo'l bilan kuzatilishi mumkin.

Bugungi kunga qadar olib borilgan tadqiqotlar tashkillashtirilmagan kallus yoki suspenziya kulturalarida qimmatli ikkilamchi fitokimyoviy moddalarning keng assortimentini ishlab chiqarishga muvaffaq bo'lgan bo'lsada, boshqa hollarda ishlab chiqarish ko'proq tabaqalashtirilgan mikro o'simlik yoki organ kulturalarini talab qiladi. Bu holat ko'pincha qiziqish metaboliti faqat ixtisoslashgan o'simlik to'qimalarida yoki ona o'simlikdagi bezlarda ishlab chiqarilganda yuzaga keladi. Bunga asosiy misol saponin va boshqa qimmatli metabolitlar ginseng (*Panax ginseng*) ildizlarida maxsus ishlab chiqarilganligi sababli, *in vitro*da ildiz kulturasida talab qilinadi. Xuddi shunday, *Hypericum perforatum* (St. Jon's wort) kabi o'simliklar giperitsinlar va giperforinlarni barg bezlari ichida, differentsiatsiyalanmagan hujayralarda, fitokimyoviy moddalarni to'plash qobiliyatini namoyish etmagan tamaki (*Nicotiana tabacum*) ildizlarida to'playdi. Tamaki kallusi va kurtaklar kulturalarida nikotinning oz miqdori ishlab chiqarilishi mumkin, chunki ularda organga xos anabazin birikmasi mavjud emas.

Ikkilamchi metabolitlarni ishlab chiqarish uchun organ kulturalari.

- *Fritillaria unibracteata*ning organ kulturasida texnologiyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri piyozchalari kichik o'suv kurtaklaridan tezda ko'paytirilishi mumkin. O'stirilgan piyozchalari 50 kunlik kultural davridan keyin 4,44 - M BA va 5,71 - M IAA bilan to'ldirilgan MS

muhitida ajratib olish mumkin. O'sish sur'ati tabiiy yovvoyi o'sish sharoitidagidan 30-50 baravar yuqori va o'stirilgan piyozlarda alkaloid va foydali mikroelementlarning miqdori yovvoyi piyozdagidan ko'proq bo'ladi.

- *Frangula alnus*ning *in vitro*da indol-3-sirka kislotasi va 6-benzilaminapurin bo'lgan MS (1731 mg/100 g 1-naftilatsenasetik (NAA) (0,1 mg/l) va tidiazuron (TDZ) (0,1 mg/l) ozuqa muhitida o'stirilgan kulturalarda eng yuqori metabolitlar hosil bo'ladi

Hiperforin va adhiperforin biosintezida aminokislotalarning ishtiroki *H. perforatum* o'simalari kulturalarida qayd etilgan. Valin va izoleysin kurtaklar kulturalariga kiritilgandan so'ng, mos ravishda giperforin va adhiperforinning asil yon zanjiriga kiritilgan. Kurtaklar kulturasini 2 mM konsentratsiyada yorliqsiz aminokislotalar izoleysin bilan oziqlantirish giperforin ishlab chiqarishni 3-7 baravar oshirishga olib keladi. Kallus o'sadigan ozuqaga leysin qo'shilishi bilan asiaticozidlar to'planishining ko'p marta ortishi qayd etilgan.

***In vitro*da mahsulotlar ishlab chiqarish**

O'simliklar yoki o'simlik hujayralari *in vitro*da mikrobial, fizik yoki kimyoviy omillarga fiziologik va morfologik javoblarni reaksiyalarini ko'rsatadi, ular "elitsitorlar" deb nomlanadi. Elisitatsiya - bu o'simliklarning omon qolishi, qat'iyligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ikkilamchi metabolitlarning sintezini qo'zg'atish yoki kuchaytirish jarayoni. Tadqiqotlarda o'sishni va tukli ildizlarda biosintezni kuchaytirish uchun bir nechta abiotik elisitorlarda qo'llanilgan. Umuman olganda, elisitor muolajalari bir vaqtning o'zida ginseng saponin biosintezini kuchaytirsada, tukli ildizlarning o'sishiga to'sqinlik qilishi aniqlandi.

***Cuminum cyminum* L.** Apiaceae oilasiga mansub, bir yillik o'simlik bo'lib, Osiyo, Afrika va Yevropada an'anaviy dorivor o't yoki ziravorlardan biri hisoblanadi. Urug'lari cho'zilgan va oval shaklda, arpabodiyon urug'iga o'xshaydi. Ular xushbo'y hidga ega va achchiq-achchiq ta'mga ega. Bu ularni pishirishda ziravor sifatida keng qo'llaniladigan xushbo'y hidga aylantiradi. Zira urug'idan ajratilgan suvli ekstrakt, moy yoki noorganik birikmalarning terapevtik xususiyatlari va fiziologik ta'siri, jumladan, mikroblarga qarshi, antikanserogen xususiyatlari keng o'rganilgan. Antidiyabetik va antioksidant. Biroq, zira urug'i oqsil izolatining nisbiy fizik-kimyoviy va

funksional xususiyatlari haqida cheklangan ma'lumotlar topilgan. Proteinlarning xususiyatlari asosan ularning qo'llanilishi va funktsionalligi bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, izolyatsiya qilingan oqsilning fizik-kimyoviy xossalari va xususiyatlarini (masalan, aminokislotalar tarkibi, molekulyar og'irligi (MW), oqsil tuzilishi va potentsial biologik faolligi) o'rganish uning xususiyatlarini va potentsial qo'llanilishini yaxshiroq tushunishni ta'minlash uchun talab qilinadi. nutratsevtik preparatlarda, va oziq-ovqat sanoati. Bugungi kunga qadar zira urug'idan ajratilgan oqsilni ishlab chiqarish va tavsiflash bo'yicha tegishli tadqiqotlar mavjud emas(13-rasm).



13-rasm. *Cuminum cyminum* L

Biologik xilma-xillik to'g'risidagi qonun biologik xilma-xillikni saqlash, undan barqaror foydalanish va barcha joylarda biologik xilma-xillikni boshqarish bo'yicha qo'mitalar orqali biologik xilma-xillik bo'yicha davlat kengashlari va quyi qatlamlarda manfaatlarni teng taqsimlashni amalga oshirish uchun Milliy Biologik xilma-xillik organi (NBA) tayinlandi. Hozirda bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha 29 ta davlat kengashlari va 155 868 dan ortiq bioxilma-xillikni boshqarish qo'mitalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Nazorat savollari.

1. Dorivor o'simliklarning ekosestimasi.
2. *Linum usitatissimum* L.ning dorivorlik xususiyatlari.
3. *Nigella sativa* L ning dorivorlik xususiyatlari.
4. *Cuminum cyminum* L ning dorivorlik xususiyatlari.
5. Biologik xilma-xillik to'g'risidagi qonun va uning ahamiyati.

XIII BOB. DORIVOR O'SIMLIKLARNING EKOLOGIK GURUHLARI.

O'zbekiston florasida manbalarga qaraganda 4200 dan ortiq gullaydigan o'simliklar borligi takidlanadi. Ushbu o'simliklardan 577 turi dorivor hisoblanadi. Bu juda yaxshi ko'rsatgich. Ammo bu ma'lumotlar eskirgan bo'lib, hozirgi vaqtga kelib ularni zahirasi juda kamayib ketgan. Sanoat miqyosida tayyorlashni iloji deyarli qolmagan. Chunki bu ma'lumotlar to'plangan vaqtdan 50-60 yillar o'tib ketdi. O'sha vaqtda O'zbekiston aholisi 10 mln ga yetmas edi. O'zbekistonda yer maydonini ko'p qismi hali o'zlashtirilmagan bo'lib, asosiy qishloq xo'jalik ekini hisoblangan paxta maydoni ko'p paxta egallagan. Hosil esa 1,5 mln tonna atrofida edi. Oradan 10-15 yillar o'tar-o'tmas joy egallagan edi. Keyinchalik paxta maydonlari haddan tashqari kengaytirildi, Toshkent, Jizzax, Sirdaryo (Mirzacho'l)larni o'zlashtirilmagan erlari o'zlashtirib, faqat paxta ekiladigan maydonlarga aylantirildi. Joylardagi barcha yovvoyi holda o'sadigan o'simliklar, hatto ekin maydonlari ham yo'q qilindi. Paxta yetishtirish uchun hamma narsadan voz kechildi. Paxta hosili 5-6 mln tonnaga etkazildi. Aholi soni ham borgan sari ortib boraverdi va 20 mln dan ortib ketdi. YAngi shahar, qishloqlar, aholi yashaydigan joylar paydo bo'ldi. Juda katta maydonlarda texnika ishlari olib borildi, yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari o'tkazildi, kanallar qazildi, yo'llar qurildi. Bu olib borilgan barcha ishlar Ittifoq buyurtmasi asosida, ekologiyani buzilishini hisobga olinmagan holda olib borildi. Uning ustiga barcha paxta maydonlarida aviatsiya orqali sepiladigan gerbitsidlar, pestitsidlar, defoliantlar va boshqalarni qo'llash oqibatida barcha hududlardagi normal ekologik sharoit izdan chiqdi, o'simlik va hayvonot olamiga katta talofat etkazildi. Ammo sog'liqni saqlash tizimi uchun, aholi salomatligi uchun dorivor o'simliklar zaruriyati har doim ham dolzarb bo'lgan ayrim o'simlik dolzarb masala bo'lib qolaverdi.

O'zbekistonda tayyorlanadigan va tayyorlanishi zarur bo'lgan dorivor o'simliklar ro'yxati

Amaliy tibbiyot uchun zarur bo'lgan dorivor o'simliklar ro'yxati talaygina bo'lishiga qaramasdan dorixonalarda juda kam dorivor o'simlik mahsulotlari muomalada ekanligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa shu kunlarda tayyorlanayotgan dorivor o'simlik mahsulotlari (jadval 3) talabga mutlaqo javob bermaydi.

O'simliklarning foydali ekanligi ko'p jihatdan ularning kimyoviy tarkibiga bog'liq, dorivor o'simliklarda esa biologik faol moddalar (BFM) kompleksi asosiy o'rinni egallaydi. BFMni hosil bo'lishi va to'planishi dinamik jarayon bo'lib, ontogenezda (yoki o'simlikning o'sish sikli) bilan belgilanadi hamda tashqi omillariga (faktor) bog'liq. Farmatsevtlar bu jarayonni bilishlari zarur, chunki BFM to'planishi bilmiga asoslangan holda, dorivor o'simlik mahsulotlarini sifatiga qo'yilgan asosiy talablarga javob beruvchi dorivor o'simlik mahsulotlarni yig'ish, quritish va saqlash qoidalarini ishlab chiqiladi. Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni (DO') ekologik o'ziga xosligini bilish ham, zarur bo'lib, bu bilimlarsiz (DO') larni madaniylashtirish mumkin emas.

O'simliklarni tarkibidagi modda almashinuvi va tashqi sharoit o'rtasida bog'liqligi aniq. Bu joyda o'simliklarni nafas olishi va fotosinteziga to'xtalmaydi, chunki bu o'simliklarni fiziologiyasi faniga tegishlidir. Bu uchun esa ikkilamchi metabolitlar hisoblangan (BFM) hosil bo'lish yo'lini bilish, aniqlash muhimdir.

Ekologik faktorlarni ko'p qirrali va kompleks bo'lishiga qaramasdan, qator hollarda o'simlikni kimyoviy tarkibiga ta'sir qiluvchi asosiylarini aniqlanadi. Masalan, u yoki bu o'simlik tarkibidagi ikkilamchi metabolitlarni tarkibi va miqdorini har xil geografik mintaqalardagilarni taqqoslab, geografik faktorlar to'g'risida fikr yuritish mumkin, vaholanki bu faktor geografik kenglik, iqlim, yerning mineral tarkibi, yorug'lik sharoitlari bilan uzviy bog'liq. Misol tarqasida O'zbekistonda o'smaydigan, Rossiyada keng tarqalgan, ilmiy tibbiyotda qo'llaniladigan Botqoq ledumi o'simligini keltiramiz (sababi, O'zbekistonda shunday o'rganilgan o'simlik yo'q).

Botqoq ledumi tarkibidagi efir moyini o'rganishda, u o'sadigan 3 ta geografik tuman (rayon)ga ajratildi: shimoliy, o'rta va janubiy. Botqoq ledumi barglaridagi efir moyi miqdoriga geografik faktor aniq ta'sir qiladi: efir moyi o'rta rayonda o'suvchi botqoq ledum tarkibida maksimal to'planar ekan. Shu bilan parallel yorug'lik va yerning kislotali muhitini ham ta'siri o'rganiladi. Kimyoviy tarkibini o'zgaruvchanligi bunda murakkabroq ketishi aniqlandi. Demak turli rayonlarda o'suvchi o'simlikning optimal (mo'tadil) efir moyini to'planishiga o'sadigan joyi va yorug'lik sharoitlari ko'p ta'sir o'tkazar ekan. Masalan, janubda baland daraxtlar bor o'rmonlarda, o'rta rayonlar esa ochiq joylar, va shimoldagi o'rmonlarda (yorug'lik 30% tashkil qiladi). Bunday tekshirishlar, sifatli mahsulotni tayyorlash uchun katta

hamiyatga ega.. Janubiyroq rayonlardan (soya joylarda) yig'ilgan mahsulot tarkibida efir moyi kam saqlanishi aniqlandi. So'ngi tundra o'rmonlaridagi botqoq ledumi bargi tarkibidagi efir moyi juda kam (minimum)ligi aniqlandi.

O'simliklarni turli geografik (zonalarda) rayonlarda o'suvchi botqoq ledumini tarkibidagi efir moylarini miqdori

O'simliklarni zona va rayonlari

Efir moyi miqdori

Tundra o'rmonlari

Shimoliy taygani ninabargli o'rmonlari

O'rta taygani o'rmonlari

Janubiy taygani ninabargli o'rmonlari

Kengbargli ninabargli tayga o'rmonlari

Kengbargli o'rmonlar

Shimoliy rayon (60o shimoliy kenglik)

O'rta rayon (56o-60o shimoliy kenglik)

Ma'lumki ko'plab dorivor o'simliklardagi kimyoviy tarkibi o'zgaruvchanligi, bir arealni har xil joylarida ham kuzatiladi. U o'simliklarni morfologik belgilarida farq sezilmaydi. Bunday hollarda "Xemoras" tushunchasi, ya'ni bir xil o'simlikni, bir joyda guruh bo'lib o'sadiganlarini aniq areali bo'lib, ularni kimyoviy tarkibi boshqacha bo'lishi bilan farqlanadi. Bir areal ichida o'suvchi botqoq ledumini 3 ta xemorasga (1,2,3) bo'linishi mumkin, ular bir-biridan efir moyini miqdori va undagi ledolni miqdori bo'yicha farq qiladi.

Ayrim hollarda nisbatan katta bo'lmagan hududlarda (teritoriya) ham kimyoviy tarkibini o'zgaruvchanligi kuzatiladi, masalan, yassi bargli senetsio (*Senecio platiphyllodes*). Bu tur asosan Kavkazda tarqalgan bo'lib Kavkaz orti mintaqasida ma'lum bir o'ramlarda (orol kabi) uchraydi. Ushbu o'simlik tarkibida alkaloid saqlovchilardan bo'lib, platifillin, senetsifillin va sarratsin saqlaydi. Bunda o'simlikning ayrim guruhlarini g'arbiy uchastkalaridagisi tarkibida ko'p miqdorda sarratsin saqlaydi va platifillin, senetsifillin saqlamaydi.

Bu guruh o'simliklarni alohida kimyoviy boshqa bir turga ajratilgan *chemovar Sarracinifera*. Boshqa o'simliklar esa sarratsin saqlamaydi.

Geografik omil (faktor) *Bupleurum multinerue* o'simligi flavonoidlar tarkibiga ta'sir qiladi. Tabiiy sharoitda ushbu o'simlik Sibirni janubida (Oltoy) o'sadi, va Ukrainada esa o'ram – o'ram (orol) holida uchastkalar hosil qiladi. Oltoyda va Ukrainada o'sadigan

o'simliklar tarkibidagi flavonoidlarni qiyosiy o'rganilganda (taqqoslanganda), Oltoyni janubiy-sharqida o'sadiganlari tarkibidagi flavonoidlar miqdori, Ukrainadagilardan Novosibirskiyda o'sadiganlaridan, hamda Moskva viloyatida ekiladiganlaridan ham 2-5 barobar ko'p saqlashi aniqlandi. Undan tashqari Ukrainada o'sadiganlari Oltoydagilardan sifat jihatdan ham farq qilishi, tarkibida qo'shimcha kversetin va izoramnetinlarni hosilalari ham saqlanishi aniqlandi.

V- Platifillinli xemorasini tarqalgan joylari.

Malina (*Rubus idaeus*) mevasini kimyoviy tarkibini turli ekologik zonalardan yig'ib o'rganilganda kalsiy, fosfor va sink elementlarini malina mevalarida va erda bo'lishi ijobiy ta'sir etar ekan. SHunda malina mevasida ular ta'sirida fruktoza ko'p bo'lar ekan.

Dorivor o'simliklar ekologiyasini bilish ularni tabiiy zahiralardan oqilona, samarali foydalanishidan tashqari ularni madaniylashtirilgan holda ekib hosil olishda ham katta ahamiyatga ega. Misol uchun alkaloid saqlovchi sariq glatsium (*Glaucium falvum*) o'simligini keltirish mumkin. Bu o'simlik O'rta yer dengizini qirg'oqlari, Qrimda, Kavkazni Qora dengiz bo'ylariga yaqin joylarda tarqalgan. Sariq glatsium taglaridan suv bemalol siljib oqadigan, dengizni qumloq qirg'oqlarida, hamda toshloq tog'yon bag'irlarida o'sadi. Tabiiy sharoitda ko'p, katta maydonlarni tashkil qilmaydi. Shuning uchun uni madaniylashtirib Krasnodar o'lkasida ekiladi. Sariq glatsium o'simligini asosiy alkaloidi-glautsindir. Kavkaz va Qrimdan yig'ilgan o'simliklarni tahlil qilinganda, Qrimni quruqroq joylarida o'stirilgan o'simliklarda glautsin alkaloidi kavkazdagilardan ko'ra ko'p saqlashi aniqlandi. Demak Qrimdan yig'ilgan o'simlikni quruqroq sharoitda o'stirish (madaniylashtirish) maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday misollar ham borki geografik muhit kimyoviy o'zgaruvchanligiga ta'sir qilmaydi. Masalan Oddiy bo'ymadaron o'simligi Rossiyani 33 mintaqasidan yig'ib tekshirilganda tarkibidagi proxamazulenlar suv bug'i yordamida haydalganda xamazulenga aylanadi, ammo uning miqdori 0 dan 170 mg/100g gacha miqdori turlicha bo'lishi aniqlandi. Bunda o'simlik morfologik belgilari bo'yicha bir-biridan farq qilmasligi ham ma'lum bo'ldi.

Shoxkuya zamburug'ini alkaloid tarkibi o'rganilganda geografik muhitni sezilarli ta'siri borligi aniqlanmadi. Ammo zamburug'ni javdar (roj)da parazit holida tarqalganda ko'proq ergotamin alkaloidi to'planishi boshqa donli o'simliklardagisi esa ergokristin alkaloidini to'planishi ma'lum bo'ldi. Shu bilan birga shoxkuyani alkaloidlar

saqlamaydigan xillari (rasa) ham bor bo'lib, aralash, kengbargli o'rmonlarda, Sibir, Uzoq SHarqdagi shoxkuyani alkaloid saqlaydiganlari 60-80%ni tashkil qilishi, janubiy mintaqalarda (Rossiya) va Qozog'istonda alkaloid saqlovchi shoxkuya guruhlari ko'pchilikni tashkil qiladi.

Turli geografik zonalarda o'suvchi ayrim o'simliklarda kimyoviy tarkibi bir-biriga yaqin kimyoviy moddalar ham bo'ladi. Masalan dorivor valeriana o'simligini VILRda yetishtirilganda ildizpoya va ildizidagi biofaol moddalar bir xilligi aniqlandi. Yana shuni ham aniqlandiki efir moyi ildiz tarkibida ildizpoyadan ko'p saqlaydi, valepotriatlar (iridoidlar) esa ildizpoyada deyarli 2 barobar ildizdan ko'p saqlaydi. Bu ma'lumotlar mahsulotni tahlilida o'rtacha namuna olishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Yana shuni ham aniqlanganki valeriana o'simligini Klimandjarada o'sadigan turini yer ostki va ustki qismida valepotriatlar borligi, hatto ildizpoyadan ko'ra bargida ko'pligi aniqlangan.

Ko'pchilik biologik faol moddalar, alkaloidlar, flavonoidlar va boshqalar hujayra shirasida erigan hofda bo'ladi, shuning uchun ularga tashqi muhit ta'sirini o'rganish uchun o'simlikning shu qismidan o'sha moddalarni ajratib olinadi. Ammo shunday birikmalar ham borki, masalan mono- va seskviterpenlar bo'lib, ular efir moylari tarkibida saqlanadi va efir moyli bezlarda to'planadi. Ekologik sharoitlar o'simlik organlaridagi bezlarni ko'p yoki kam bo'lishiga ta'sir ko'rsatar ekan. Lavanda dorivor marmarak (*Salvia officinalis*) va oq yasnotka (*Lamium album*) o'simliklaridagi bezlar, o'simlikni dengiz sathidan qancha balandlikda o'sishiga qarab soni ko'p yoki kam bo'lar ekan. Jadval 6 dan ko'rinib turibdiki, o'simlik dengiz sathidan balandlashgan sari bezlar soni oshib borar ekan. Yasnotkadoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub o'simliklar ma'lumki ko'pchiligi efir moyiga boy o'simliklar hisoblanadi va ularni ko'pchiligi quruq joylarda o'sadiganlari bargni 1 xil qismi (edinitsa)dagi bezlari, etarli darajadagi namlik ko'p joylarda o'sadigan xillaridan ko'p bezlar saqlashi ma'lum bo'ldi.

Shunga qaramay quyidagi joylardan O'rtaer dengizi mamlakatlari, Kavkaz, O'rta va Markaziy Osiy tog'lik rayonlaridagi o'simliklardagi efir moylari Rossiyani Evropa qismini shimoliy-g'arbiy rayonlaridagi o'simliklarga nisbatan ko'proq bo'lishi aniqlangan. Ko'pchilik o'simliklardagi efir moylarini miqdori efir moyli bezlar soniga bog'liqligi ma'lum bo'lgan. Efir moyli bezlar soni namligi turi joylarda o'suvchi bir xil o'simliklarda turlicha bo'lib, namlikni ko'pligi o'simlik

bargini bir xil (edinitsa) sathidagi bezlarni kamayishiga olib kelishi aniqlandi.

Bu ma'lumotlar istiqbolli efir moyi saqlovchi o'simliklarni namligi ko'p bo'lgan shimoliy mintaqalarda madaniylashtirib, ekib ko'paytirishdan ko'ra, janubiy quruq va issiq iqlimli joylarda ekib ko'paytirish yaxshi samara berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Dorivor o'simliklarni birlamchi introduksiyasi (madaniylashtirish) va samarali madaniylashtirishda ekologik faktorlarni ahamiyati

Hozirgi vaqtda yovvoyi holda o'sayotgan va ekilayotgan dorivor o'simliklarni (DO') tayyorlanmoqda. Madaniylashtirilib ekilayotgan o'simliklar, tayyorlanishi lozim bo'lgan dorivor o'simlik mahsulotlari (DO'M) nomenklaturasi (ro'yxati) uchun katta ahamiyatga ega. DO'larni madaniylashtirib, dorivor va boshqa foydali o'simliklarni ekib hosil olish uchun mo'ljallangan tadbirlar majmuasi (kompleks meropriyatiya) introduksiya deb ataladi.

U yoki bu o'simlikni ekib ko'paytirish, hosil olish, madaniylashtirish (introduksiya)ni bir qancha sabablari bor. Ularga: o'simlikni tabiiy zahirasini etishmasligi, ularni teraverish oqibatida o'simlikni yo'q bo'lib ketishi mumkinligi (misol uchun ungerniya turlari, omonqora, qoraqovuq, senetsio, belladonna va boshqalar), bizning floramizda yo'q (saqlamaydigan) biologik faol moddalar (BFM) manbalari (podofill, bo'lakli ituzum va boshqalar), terish uchun etib borish qiyin bo'lgan o'simliklar va hokazo.

Introduksiya ishlari kelajagi porloq dorivor o'simliklarni izlab topish bo'yicha olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlariga katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Vaqt soati kelib ittifoqni parchalanib ketishi natijasida bir qancha BFM manbaalari bo'lgan DO'Mlari geopolitik nuqtai nazardan horijiy bo'lib qolishi tufayli, o'sha joylardagi DO'larni ekib ko'paytirish, hosil olish dolzarb masala bo'lib qoldi.

Introduksiya u yoki bu darajada o'simlikni o'sishiga moslashgan joydan boshqa joyga (moslashmagan) o'tkazish bilan bog'liq bo'lgani uchun, shu o'simlik turini ekologiyasi bilan bog'liq bo'lgan bilimni, yangi sharoitni ekologik xarakteristikasini bilish, dorivor o'simliklarni madaniylashtirishda birinchi darajali ishlardan bo'lib qoladi. Bu ayniqsa juda zarur bo'ladi, qachonki o'simlik o'zining tabiiy arealidan tashqarida ekilmoqchi bo'lsa, yovvoyi holda o'sayotgan sharoitidan introduksiya qilinayotgan sharoiti katta farq qilsa.

O'simliklarni shu jumladan dorivorlarini ham introduksiyasi bilan shug'ullanadi; botanika bog'lari, dorivor o'simliklar pitomniklari (maxsus o'stiriladigan xonalar), farmatsevtika institutlari va FA qarashli ilmiy-tekshirish institutlari.

Shu bilan birga botanika bog'larida introduksiya bo'yicha bajarilayotgan ishlar ushbu DO'larni xo'jaliklarda ekishgacha etib bormaydi, xo'jaliklarga joriy qilinmay qolmoqda, DO'larni sanoat miqyosida ishlab chiqarishga etib bormayapti. Buning ko'plab sabablari bor; introduksiya bu DO'larni fitopreparatlar yaratishdagi bo'limlardan bittasi xolos.

Undan tashqari ko'pincha introduksiya bo'yicha olingan natijalar bitta o'simlik uchun turli xil usullar qo'llanishiga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

1984 yili VILR olimlari tomonidan dorivor o'simliklarni introduksiyasi bo'yicha olib boriladigan ilmiy-tekshirish ishlari metodikasi ishlab chiqilgan edi. Unda madaniylashtirish uchun mo'ljallangan o'simliklarni o'rganish uchun kerakli bo'lgan barcha savollar, masalalar hisobga olingan edi. 1990 yili ushbu metodika qayta ishlanib DO'larni introduksiyasi uchun birdan-bir tadqiqotlar programmasi ishlab chiqilgan bo'lib, u 3 ta bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqich – o'simlik turlari kolleksiyasini o'rganish.

U o'rganilayotgan boshlang'ich materialni yig'ilgan momentdan (vaqtdan) eng istiqbolli turlarini ajratib olib, kelajakda chuqur (detalno) ilmiy-tekshirish ishlarini olib borishgacha bo'lgan masalalarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot ob'ektlari qaysi korsatkichlar (kriteriya) bo'yicha aniqlanib tanlanadi?

Tadqiqotlar ob'ektlari 3 kategoriya o'simliklari bo'lishi mumkin;

CHuqur kimyoviy yoki klinik sinovlardan o'tayotgan, dori shakllari ishlab chiqilgan yangi istiqbolli o'simlik turlari.

Tabiiy zahirasi kamayib ketgan, ishlatishga ruxsat etilgan dorivor o'simliklar.

Horijiy preparatlarni bizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, chet ellarda o'sadigan o'simlik turlari.

Ob'ekt tanlashda o'simlik sistematikasidagi ma'lumotlar (o'simlikni yaqin turlarini bor yoki yo'qligi), kimyoviy o'zgaruvchanligi, uni o'rganilganlik darajasi, qachonki u o'simlikni o'simliklar jamiyati (rastitelnoe soobuestvo)dagi o'rni, o'sish joyining ekologiyasi va boshqalar ham e'tiborga olinadi.

Masalan cho'l va qirlardagi o'simliklarni O'zbekistonni shimoliy mintaqalaridan hisoblangan viloyatlarda o'stirish imkoniyati (sharoiti) kam. Demak ob'ektlarni tanlashda o'simlikni tabiiy ekologik sharoiti bilan ekiladigan joyni o'xshashlik darajasini hisobga olish zarur bo'ladi.

Oldindan ob'ekt tanlangandan keyin boshlang'ich materialni (o'simlikni urug'i, vegetativ organi) yig'iladi. Bu ikki xil yo'l bilan amalga oshiriladi: ekspeditsiyalar vaqtida materialni yig'ish va ekiladigan materialni botanika bog'laridan yozdirib olish yo'li. So'ngi yo'l oson bo'lgani bilan, qo'shimcha o'simlikni identifikatsiyai qilish (o'simlikni gullashi va meva tugishi davrida) bilan bog'liq ishlarni bajarishga to'g'ri keladi. Ko'pincha shuning uchun eng maqsadga muvofiq to'g'ri yo'l birinchi yo'l bo'lib, qachonki tadqiqotchi tadqiqot ob'ektini o'sib turgan joyida ko'radi va yig'adi. Yig'anda ham (ob'ekt) o'simlikning eng hosildorini tanlab yaxshi urug'larni va ekish materialini yig'ib oladi.

Aniq bir misol qilib, ob'ektni tanlashda (*Phlojodicarpus sibiricus*)ni quyidagilarni aniqlandi. Ma'lumki ushbu o'simlikni ildiz va ildizpoyasi kumarin saqlovchi mahsulot sifatida qo'llaniladi. O'simlikni eng kattalari CHita viloyatida o'sar ekan. Tahlil uchun oldinda 6 (senopopulyasiy) xil joydan olingan o'simlik mahsuloti tekshirildi. Quyidagilar hisobga olindi: urug'ni hosildorligi (bir generativ shoxdagi urug'lar soni) 100 ta urug'ni massasi, bir o'simlikni qurigan ildizini massasi va qurigan 1 ta o'simlik ildizidagi kumarinlarni foiz miqdori (quruq mahsulot massasiga nisbatan). Har bir ko'rsatgich bo'yicha o'simliklar ko'rsatgichlar miqdori bo'yicha gruppalariga (klass) bo'lindi. Ko'rsatgichlar har birida turlichaligi aniqlandi, masalan kumarinlarni miqdori 1,5%dan 11,5% gacha ekanligi aniqlandi. SHuning uchun bir vaqtni o'zida hamma ko'rsatgichlar bo'yicha eng yuqori hosildorligini oddiygina tanlash bilan olib bo'lmasligi ma'lum bo'ldi. SHuning uchun, introduksiya uchun o'simliklar ichidan ko'rsatgichlari o'rtacha yaqinlari tanlandi.

Yig'ilgandan keyin ekish uchun materialni sifati: morfologik tomondan, laboratoriyada va erdagi unib chiqishi, unib chiqish tezligi va energiyasi va boshqalar aniqlanadi.

Olingan ma'lumotlar statistik ishonarli bo'lishi uchun bir necha eksperimentdan tanlab olinishi kerak. Masalan urug'ni quruq massasini aniqlash uchun 1000 dona urug'tanlanadi, unib chiqishi uchun esa-100 dona.

Keyingi etap (qadam) kolleksiya pitomnigida urug'lardan undirilgan o'simlikni nazorat qilish. Bu uzoq (bir necha yil sezon) davom etib, murakkab kompleks tahlillarni o'z ichiga oladi. Bularga o'simlikni urug'dan unib chiqqandan —ontogenezi-toki o'simlik quriguncha bo'lgan davrda o'rganiladi, o'simlikni rivojlanish ritmi (sezonda), kasallikka va zararkunandalarga chidamliligi, urug'va mahsulotni hosildorligi kiradi.

Ontogenezni o'rganish o'simlikni yoshini aniqlash va urug'ni xarakteristikasidan iborat bo'ladi.

Ontogenezni aniqlashda o'simlikni 4 ta asosiy davrda rivojlanishi farqlanadi: latent davri (urug'ni tinch uyqu davri), pregenerativ, generativ va postgenerativ davrlar ya'ni urug'unib o'sishi oldi, o'sayotgan va o'sishdan to'xtagan davrlar. Ayrim davrlarni ichida qator o'simlikni o'sishi bilan bog'liq holatlar farqlanadi. Masalan urug'ni unib chiqish oldi — pregenerativ davri quyidagi holatlarga bo'linadi: o'simta; juda kichkina o'simlik, urug'kurtagi o'sish vaqti; virginal holati, birinchi shoxlari chiqaboshlagan vaqti va hokazo.

Generativ o'sayotgan davrda; yosh, o'rtayoshi va qarigan generativ holatlari aniqlanadi.

Generativ davrning o'sish (yoshi) holati vegetativ va hosil beradigan novdalari hamda real urug'hosil bo'lishi soni bilan aniqlanadi.

Masalan, ayrim tuplarni ajratish mumkinki, ularda meva hosil qiladigan novdalari o'zgarmasdan, o'sadigan shoxlari soni va gul to'plamidagi gullar soni ko'payadi. Boshqa turlarida esa meva beradigan shoxlarini o'simlikni qarishi tufayli sekin-asta kamaya boshlashi bilan farqlanadi. O'simlikni qari holati asosan uyg'onadigan kurtaklari sonini qisqarishi bilan aniqlanadi.

Nazoratni odatda model o'simliklardan olib boriladi. Unda e'tiborni urug'kurtakni morfologik xususiyatlariga va birinchi bargni morfologiyasiga, o'rtadagi asosiy shoxni tuzilishiga, ikkinchi va keyingi barglarni morfologiyasiga, barg qo'ltig'i kurtaklarini joylashgan tartibiga, yon novdalarini hosil bo'lishiga va boshqa belgilariga qaratiladi. Bir vaqtni o'zida er ostki qismlarini rivojlanishini ham nazorat ostiga olinadi: ildizpoyani hosil bo'lishi, (stolonov), piyozboshi va boshqalarni. Vegetatsiya davrini oxirida qishga kirayotgan turli yosh holatidagi turlarni soni hisoblanadi. Bu, o'z navbatida ikkinchi va undan keyingi yillarda qishdan keyin qurib qolgan o'simlik turlarini yoshi bo'yicha guruhlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Misol tariqasida ittikanak (*Bidens tripartita*)ni ontogenezini qisqacha keltirish mumkin.

Latent davri avgust oxiri sentyabr boshlaridagi urug'lar to'kilishi bilan keyingi yil may oxiri – iyun boshlarigacha davom etadi.

Pregenerativ davri quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi: urug'ni shishib yorilishi (o'saboshlashi), yuvinil barg chiqib shakllana boshlashi va virginal (o'simlik bargini to'la shakllanish). Urug'ni o'saboshlashi (prorostki) uch tipda bo'lishi mumkin: faqat urug'kurtagini shigan holati (semyadoli), semyadolyasi bir par haqiqiy barglari bilan va semyadolyasi 2-3 juft barglari bilan. Semyadolya qurib qolgandan keyin o'simlik yuvinil rivojlani fazasiga o'tadi. Bunda xali asosiy novda shoxlanmagan, ammo bargi etilgan o'simlik bargini eslatadi, chunki o'simlik bargini asosida 2 bo'lagi bor (rasm 2).

Yana asosiy ildiz ham shoxlanib mayda ildizchalar hosil bo'ladi. Barg qo'ltig'idan qarma-qarshi chiqqan yon shoxchalari chiqishi bilan o'simlikni virginil o'sish holati hosil bo'ladi. Bu tipni barglari katta o'simlik barglaridek: toq patsimon qirqilgan bo'lib 2-3 ta juft lansetsimon segment (bo'laklari) bor.

Generativ davrni boshlanishi g'unchalashgan gulto'plamini hosil bo'lishi bilan boshlanadi. Asosiy novdadagi barg yirikroq bo'lib virginal

Asosiy va yon novdalari savatchalarga to'plangan gul to'plami bilan tugaydi. Gul to'plamlari hosil bo'lishi bilan o'simlik o'sishdan to'xtaydi. Birinchi bo'lib asosiy shoxdagi gullar ochiladi, keyin yon shoxlari 1 chi, 2 chi va 3 chi tartibdakilari ochiladi. Urug'larni etilishi ham shu tartibda davom etadi. Meva pishgandan keyin generativ shoxlar o'ladi (qurib qoladi).

Hamma o'simliklar ayni shu tartibda rivojlanmasdan, o'ziga xos bo'lib farq qilishi mumkin.

Tabiiy sharoitda o'sayotgan o'simlikni sharoiti madaniylashtirilganda bilinadi. Masalan sovuq iqlimdagi o'simlikni issiqroq o'lkalarga ko'chirilganda, rivojlanishi, kattaligi, bo'yi tezroq, balandroq, yirikroq bo'lishi ko'pincha kuzatiladi va aksincha.

O'simlikni madaniylashtirilyotganda uni sovuqqa, kasallikka va har xil xasharotlarga chidamliligi katta ahamiyatga ega.

Sovuqqa chidamliligini aniqlash uchun qishlashga kirgan o'simliklarni sanab, qishdan keyin unib chiqqanlarni aniqlab umumiy sondan foiz miqdori hisoblab topiladi.

O'simlik kasallikka va zararkunandalarga chidamliligini aniqlada, mikroorganizmlar tarkibi, turini aniqlash (kasallik chaqiradigan) va

zararkunandalarni aniqlab ularga qarshi himoya vositalari ishlab chiqiladi.

Madaniylashtirish maqsadida o'simlikni vegetativ ko'payishi darajasini aniqlashni katta ahamiyati bor. Ko'p yillik o'simliklarni vegetativ ko'payishini aniqlash uchun novdalaridan qalamchalar, ildizpoya, ildiz qismi, piyozboshchisi va boshqa qismlaridan foydalaniladi. Tajribalarni yoritilgan xonalarda, erda, turli haroratlarda olib boriladi. Agar tajribalar ochiq havoda olib borilsa hisob qishdan keyin, keyingi yil bahorida olib boriladi.

O'simlikni tutib qolganlari ballarda baholanadi.

Nazorat rejasiga mahsulotni hosildorligini aniqlash ham kiradi. U o'rtacha kamida 30 ta tupda hisoblanib o'rtachasi olinadi. Bunda o'simlikni mahsuloti quritilmasdan tarozida tortilib, qurigandan keyin ham tortilib (qoidasi bo'yicha) aniqlanadi. Quruq mahsulotda ta'sir qiluvchi asosiy biologik faol moddani miqdori va tarkibi aniqlanadi.

Birinchi etap (bosqichni) so'ngida keyinchalik o'rganish uchun istiqbolli ishlash formasi tanlanadi. Olib borilayotgan introduksiyaning yaxshi va istiqbolli ekanligi to'plangan materiallar asosida tahlil qilinadi.

Qishga chidamlilari, sog'lom, yaxshi urug'lar qiladigan, erta generativ davrga kiruvchilari, urug'laridan o'zi unib chiqadigan, iloji bo'lsa samarali vegetativ ko'paya oladiganlari tanlab olinadi. Ekiladigan material ajratilib tajriba uchastkasiga ekiladi.

Ikkinchi bosqichda (etap) – introduksiya uchun chuqur ilmiy-tekshirish ishlari ajratilgan o'simlik formalari ustida olib boriladi. Bu bosqichda quyidagilar olib boriladi: meva etilishi dinamikasi, tanlangan o'simlikni asosiy yetishtirish usullari, hosildorlik, BFM (biologik faol moddalar) miqdori dinamikasi, mahsulotni sifatini aniqlash. Mevani etilish dinamikasini o'rganishda, shunday ko'rsatkichlarga asoslanadiki ularga ob-havo sharoiti, hosildorlik koeffitsienti, ya'ni bor hosilni, olinishi mumkin bo'lgan hosilga nisbatan. Kam hosildorlikni sabablari ko'p bo'lishi mumkin, masalan, gul yoki gul to'plamlarini yaxshi rivojlanmaganligini, otalik changchini yaxshi rivojlanmaganligi, otaliklarini bo'lmasligi yoki yaxshi rivojlanmaganligi va hokazo.

O'simlikni asosiy o'stirish usullarini ishlab chiqish, va ularda agroteknika va agrokimyoviy usullarni qo'llash. Agroteknika qo'llashda o'simlikni o'stirishda sanoat texnologiyasini qo'llash ko'zda tutiladi, ya'ni urug'ni optimal muddatlarda sepish (ekish) va urug'ni qancha chuqurlikka qadash (ekish), o'simlikni o'sishiga doimiy qarab

turish, uni oziqlantirish maydoni, o'simlikni ustini yopish usullaridan foydalanish. Agrokimyoviy usullarni qo'llash esa, o'simlikni oziqlantirish muddatlari (rejim), hamda o'g'it solish orqali hosildorlikni o'zgarishi, mikroelementar bilan oziqlantirish kabilalarni o'z ichiga oladi.

Tajribalarni o'tkazish uchun ajratilgan maydon 20 dan 60 m² gacha bo'lishi mumkin bo'lib, o'simlikni hajmiga bog'liq. Ishonarli ma'lumotlar olish uchun barcha tajribalar 4 martadan qaytariladi.

Mahsulot va urug'larni hosildorligini aniqlash uchun hamma tuplarni o'rish yoki kavlab olish kerak. 1 m²dagi shoxlarni qirqib o'lchanadi, barglar sonini hisoblanadi, gullar va mevalar quritmasdan va qurigandan keyin tarozida tortiladi. Ayrim tur dorivor o'simliklarni hosildorligini aniqlash tajribalari orqali, qaysi muddatda hosil yig'ilganda rental (foyda) bo'lishi aniqlanadi.

BFM miqdorini aniqlash dinamikasi, o'simlikni rivojlanish fazasiga, yoshiga, ekish (introduksiya) uchun olingan boshlang'ich materialga, hamda o'simlikni organi yoki o'simlikni biror qismini (o'simlikni olingan muddati va to'plangan joyini aniqlash uchun. Mahsulot tarkibidagi ta'sir qiluvchi moddani foiz miqdorini hisoblanadi, hamda ma'lum bir maydondan olinishi mumkin bo'lgan ta'sir qiluvchi modda miqdori. Qachonki yig'indi moddalardan efir moyi, kumarinlar, flavonoidlar va boshqalar miqdori aniqlanganda, ularni tarkibini ham aniqlanadi.

2 chi bosqichni (etap) so'ngida dorivor o'simlik mahsuloti sifatiga qo'yilgan talablarga javob berishi, ya'ni son ko'rsatkichlar aniqlanadi: (o'lchamlari, rangi, hidi, mazasi, namligi, kullari va boshqalar), ularni asosida DS, SS yoki FM lar loyihalari tuziladi. Keyin ekiluvchi urug'yoki ekiladigan material sanoat bo'yicha ekish uchun (sanoat miqyosida) etkazib beriladi.

Uchinchi bosqichda tajriba- sanoat miqyosida o'rganilayotgan o'simlik turi mahsulotini ishlab chiqarish, ya'ni texnologiyasini iqtisodiy samaradorligini o'rganiladi.

Tajriba-sanoat miqyosida o'simlikni ishlab chiqarish sinovi, o'simlikni o'stirish texnologiyasini, o'stirilayotgan joyga moslab ishlab chiqiladi. Tajriba maydoni odatda 0,1-0,5 ga. (gektor) tashkil qiladi. Bunda o'simlikni sanoat miqyosida o'stirishda qanday qishloq xo'jalik texnologiyasini qo'llash mumkinligi aniqlanadi. Bu esa o'z navbatida erni ekishga tayyorlash, sepiladigan va ekiladigan materialni tayyorlash, sepiladigan yoki ekiladigan muddat aniqlanadi, yig'ish usuli va vaqti

beligilanadi. Bu ishlar natijasi o'simlikni ekishni texnologik kartasini tuzish hisoblanadi.

O'simlik ekishni iqtisodiy tomondan narxi va olingan oxirgi mahsulot narxi, olib borilgan barcha ishlarga, ekish, yig'ishni oxirigacha bo'lgan texnologik jarayon (texnik agregatlar, ularni amortizatsiyasi, o'g'itlar va pestitsidlar narxi, urug'ni tayyorlash, hosilni yig'ish va boshqalarga qilingan sarf harajatlarni hisoblab belgilanadi. Bu ma'lumotlarni 1 sentr mahsulotga nisbatan hisoblanadi. Amaliyot ko'rsatadiki hosildorlikni madaniylashtirib ekilayotgan o'simlik mahsulotiga qilingan hisobni sanoat miqyosidagi narxini 50% ga kamaytirish zarur bo'ladi, chunki sanoat miqyosida ishlab chiqarilayotganda, mahsulotni yig'ishda mexanizatsiyani qo'llashda, transportda tashishda va quritish va boshqa jarayonlardagi yo'qotishlar (poteriya) tufayli. Iqtisodiy tomondan baholash tufayli, tayyor produkt-dorivor preparatni yoki substansiyani oldindan narxini baholash imkonini beradi.

Ko'plab dorivor o'simlik mahsulotlarini ekish texnologiyasini yirik maydonlarda, plantatsiyalarda ishlab chiqarishni harajatlari yuqori bo'lganligi munosabati bilan sanoat miqyosida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni iloji bo'lmadi, masalan tangut rovochi, podofill o'simligi va boshqalar.

SHuning uchun birinchi navbatda ekish va shu bilan bog'liq ishlarni quyidagi qator o'simliklar bilan bir qatorda: igir, ko'k bo'tako'z, vzdutoplodnik sibirskiy, astragal, datiska konoplevaya, tog'rayhon, may marvaridgul va boshqa o'simliklarni rejalashtirilmoqda.

SHunday qilib dorivor o'simliklarni introduksiyasi bilan bog'liq ishlar kompleks xarakterga ega bo'lib, u yoki bu etaplarda kerakli mutaxasislarni jalb qilishni (agronom, kimyogar, iqtisodchi (ekonomist) taqozo qiladi. Ammo ular asosida, o'simliklarni o'sishi uchun kerakligi ekologik muhitga asoslangan bo'ladi.

Dorivor o'simliklarni ekologiyasi farmakognoziyani ajralmas bir qismini tashkil qiladi, chunki atrof muhitdagi faktorlar biologik faol moddalarni to'planishiga va shu orqali dorivor o'simlik mahsuloti sifatiga qo'yilgan talablarga mahsulot javob berishi yoki bermasligi bilan bog'liq bo'ladi. DO'Mni tayyorlash ham o'simlikni kimyoviy tarkibini dinamikasini aniqlash bilan bog'liq bo'ladi. Undan tashqari dorivor o'simliklarni ekologiyasini o'rganish natijalari ekilishi mo'ljallanayotgan DO'larni introduksiyasini fundamenti hisoblanadi.

O'zbekiston dorivor o'simliklarini madaniylashtirish. Kimyoviy sintez yo'li bilan olingan kimyoviy birikmalar o'simliklardan olinadigan dorivor moddalarni batamom o'rni bosa olmaydi, ularning terapevtik faolliklari ko'pincha toza bitta kimyoviy moddaga bog'liq bo'lmay, biologik faol moddalarni (BFM) kompleks ta'siri bilan belgilanadi. Uning ustiga ayrim BFM ni masalan xanuzgacha sintez yo'li bilan yurak glikozidlari va boshqalarni sintez qilishni iloji bo'lgani yo'q.

Ko'pincha DO'larni (dorivor o'simliklar) chuqur o'rganish, ular tarkibidagi yangi, fanga no'malum bo'lgan qimmatli moddalarni, yoki ushbu ishlatilib kelinayotgan DO'M (dorivor o'simlik mahsuloti)ni yangi xossalari (farmakologik ta'siri) borligi aniqlanmoqda.

Masalan, strofantin K (yurak-qon tomir xastaliklarida qo'llaniladi) Afrikada o'sadigan strofant kombe o'simligi urug'idan olinadi. MDXlarida esa ushbu o'simlikni introduksiya qilishni iloji bo'lmadi, shuning uchun strofantin K ni olish uchun urug'ini chet ellardan keltirilmoqda.

Hozirgi vaqtda strofantin K introduksiya qilingan kendir o'simligini ildiz va ildizpoyasidan olinmoqda. Quyidagi 9 jadvalda O'zR FAGa qarashli Toshkent shahrida joylashgan Botanika bog'i hududida introduksiya qilinib o'stirilayotgan ayrim DO'lar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Botanika bog'i olimlari O'zbekistonda Dorixonalar Bosh Boshqarmasi buyurtmasiga muvofiq qizil angishvonagul, dorivor marmarak, dorivor valeriana, qalampir yalpiz va boshqa dorivor o'simliklarni introduksiya qilish mumkinligini aniqladilar.

1946 yili Toshkent farmatsevtika instituti farmakognoziya kafedrasida ishtirokida Botanika bog'ida dorivor o'simliklarni introduksiya qilish, madaniylashtirish maqsadida dorivor o'simliklar maydoni (uchastkasi) tashkil qilindi va tadqiqot ishlari boshlab yuborildi.

1953 yilga kelib Botanika bog'ini dorivor o'simliklar bo'limidagi dorivor o'simliklar kolleksiyasi soni 170 turdan ortib ketdi.

Introduksiya qilish bo'yicha olib borilgan tajribalar natijasida Toshkentda katta maydonlarda kendir, bo'lakli ituzum, parpi, sekurinega, marmarak, moychechak va boshqa qimmatli dorivor o'simliklarni O'zbekistonni iqlim sharoitida ekib hosil olish mumkinligi aniqlandi.

Toshkent Botanika bog'i, ya'ni tajriba o'tkazilayotgan joyni er va iqlim sharoiti. Toshkent tog'yon bag'ri zonasiga joylashgan. YOz bu erda issiq, quruq bo'lib maksimal harorat eng ko'pi bilan 43oS gacha

bo'ladi. Er yuzasi yozda 60ogacha qiziydi, bu esa o'simliklarni umumiy holatiga yaxshi ta'sir qilmaydi. Er harorati va havo sug'orish natijasida bir oz pasayib, turli o'simliklarni ekish imkoniyatini beradi.

Kuz iliq va quruq, ertalabki shabnam ko'tarilgandan keyin yana quruq va iliq ob-havo sharoiti bo'ladi. Ayrim yillarda, masalan 1956 y. kuz quruq va uzoq davom etgani uchun ayrim o'simliklar (dastarbosh, moychechak, arslonquyrqu, qoncho'p va boshqalar) ikki marta gullab, ikki marta hosil berishga ulgurdilar.

Qish nam, yomg'irli, kam qorli, ayrim sovuq kunlar, haftalar, hatto oylar iliq quyoshli kunlar bilan almashib turadi.

Deyarli har yili er yuzasi qor bilar qoplanadi, ammo ular ko'pincha tez erib ketadi. Toshkentda faqat eng kuchli va uzoq sovuqli vaqtlarda er 15-20 sm gacha chuqurlikda yaxlaydi. Ko'pchilik qishlarni past harorati taxminan -18o, ayrim qattiq sovuqlarda harorat -29,5o gacha pasayadi.

Bahor odatda erta keladi, kamdan kam kech keladi va yomg'irli bo'lib, bir xil bo'lmaydi. U tez va kutilmaganda o'zgarib turadi. Sovuq kunlar ko'pincha yaxshi, quyoshli, yana qisqa yomg'irli kunlar bilan almashib turadi.

Toshkent bahorini xarakterli xususiyati kuchli sovuq kunlar kelib qolishi bilan bog'liq bo'lib, ayrim dorivor o'simliklarga yomon ta'sir ko'rsatadi. Masalan 1956 va 1957 y.y. harorat bahorda -3o gacha sovub, erdan o'sib chiqqan belladonna, obvoynik, solyanki rixtera va boshqalarni qismlari yaxlab qolgan.

Toshkentdagi bunday sovuqlar aprelni o'rtasigacha va hatto oxirigacha (1957y.) bo'lishi mumkin. Eng ko'pi bilan sovuqsiz davr 7-8 oy davom etishi mumkin.

Ko'p yillik ma'lumotlar Toshkentda bir yilda o'rtacha 360 mm yog'ingarchilik bo'lishi ko'rsatadi.

Qish va bahorda yog'ingarchilikni asosiy qismi yog'gani uchun havo namligi ko'p. Yozgi yuqori harorati havoni namligini nisbatan kam bo'lishini ta'minlaydi.

Toshkentda kun uzunlingi faslga qarab turlicha bo'ladi. YOzda u 15-16 soatni tashkil qiladi. Yozgi kunlar uzun bo'lgani uchun tropik va subtropik o'simliklar yozda yomon o'sadi va gullaydi. Masalan yapon parpisi, ituzum (qish) va sano yoz oxirida gullaydi.

Toshkent botanika bog'i tog'yonbag'rida bo'lib, chirchiq daryosi (o'zaniga) vodiysiga joylashgan. Eri ekib sug'oriladigan, ishqoriy reaksiyaga ega. Namlikni etishmasligi uchun ular ariq suvlari bilan sug'orish orqali qondiriladi. Sug'orishsiz Toshkentda faqat rixter

solyankasi, viktor ungerniyasi va boshqalarni yetishtirish mumkin. Hamma introduksiya qiinatgan o'simliklar sug'orilishga muhtoj.

Botanika bog'ida ko'pchilik o'simliklarni yetishtirish uchun ularni urug'lari 3 mahal sepiladi.

Qishki ekish yanvar-fevralda issiqxonalarda (qizil angishvonagul, qalampir-munchoq evgenolli rayhon, bo'lakli ituzum va boshqalar), bahorgi – mart, aprelda erga (arpabodiyon, timoqgul, xantal (gorchitsa), kuzgi – avgust o'rtalarida – qishlaydigan o'simliklar (marmarak, lavanda, tmin (qora zira), tishli kella, belladonna va boshqalar ekiladi.

Aconitum japonicum Decne – Yapon parpisi

Oilasi: Ayiqtovondoshlar -Ranunculaceae

O'simlik Xitoyini shimoli va Yaponiyani sharqiy qismlarida keng tarqalgan.

Ko'p yillik kuchli zaharli o'simlik. Poyasi 1 metr gacha bo'lib, shoxlangan, och-yashil, biroz tukli, tik o'suvchi baquvvat o'simlik.

Mahsuloti ildizpoyasi. Tarkibida alkaloidlardan akonitin, mezokoniin, gipokonitin topilgan. Nastoykasi surishga ishlatiladi: og'riq qoldiruvchi, nevrologiyada, revmatizmida va boshqa shamollashlarda ishlatiladi.

Botanika bog'ida yapon akoniti 1956 yili birinchi marta ekilgan bo'lib, tuganagi ekish uchun VILRdan olingan.

Tor bargli ivan chay – *Chamaenerium angustifolium* (L.) seop. o'simligi introduksiyasi

Sog'liqni saqlash tizimini dorivor o'simlik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida, xalq tabobatida keng qo'llanilib kelinayotgan, turli biologik faol moddalar saqlaydigan, rakka qarshi, shamollovga qarshi, o't haydovchi va boshqa faol ta'siri bo'lgan, ilmiy tibbiyot uchun kelajagi bo'lgan ushbu o'simlikni introduksiyasini o'rganish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar misol tariqasida keltirilgan.

Mahsulot sanoat miqyosida tayyorlash zaruriyati bo'yicha o'simlikni biologik tomonidan o'ziga xosligi va o'simlikni fasldagi (sezon) rivojlanish ritmlari, hamda farmakologik faol moddalarni to'planishi dinamikasi va shular asosida ilmiy asoslangan mahsulotni yig'ish va quritish, hamda mahsulotni chinligi va sifatini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan darajalar (kriteriyalar) asosida standartlanadi.

Ivan-chay o'simligini katta hayotini (siklini) o'rganish, eng kerakli, qulay bo'lgan vaqtda mahsulotni tayyorlash uchun o'simlikni ontogenezida o'rganib aniqlash, quyidagi masalalarni xal qilish bo'yicha tajribalar o'tkazildi.

Dorivor o'simliklarni muhofaza qilish – bu atrof muhitni, yoki tabiatni qo'riqlashdek katta bir vazifani bir qismidir. Tabiatni qo'riqlash – bu bajariladigan tadbirlar tizimidan iborat bo'lib, tabiiy resurslarni saqlash, ulardan tejimli foydalanish va ularni qayta tiklanishi kabi ishlarni o'z ichiga oladi.

20 asrning 30 chi yillaridayoq tabiiy resurslarni kamayib, yo'qolib ketish xavfi, nafaqat o'rni to'ldirilmaydigan foydali qazilmalar (neft, ko'mir va boshqalar), xatto o'rni to'ldiriladigan, ya'ni qayta tiklanishi mumkin bo'lgan (o'simliklar va hayvonot olami) ma'lum bo'lib qoldi. XVI asrning oxiridan 20 asrning 70 yillarigacha 100 dan ortiq tur qushlar, 20 tur suvda yashaydigan yirik kit: kashalot va boshqalar (mlekopitayushix) er yuzidan yo'qolgan. xalqaro tabiatni qo'riqlash tashkiloti (moop)ning ma'lumotiga ko'ra, har haftada o'simlikning 1 turi yo'qolmoqda, hamda ularning har o'ninchisi batamom yo'qolishi xavfi ostida.

O'simlik olami asta-sekin o'zining har xilligi va yaxlitligini yo'qotmoqda. er yuzining 1/6-1/4 gacha qismi tabiiy o'simliklar bilan qoplanmaganligi ma'lum. areal, qimmatli (noyob) o'simliklarni tarqalganligi, shu jumladan dorivor o'simliklar soni kamaymoqda. masalan, Toshkent viloyati, bo'stonliq tumani, chimyonda 1984-1990 yillarda dorivor o'simliklarga boy bo'lib, talabalar bilan ekspeditsiyaga chiqilganda har 20-30 m2 erda kamida 30-40 tagacha ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan dorivor o'simliklar turlari uchra edi va ularni talabalarga o'qituvchilar tanishtirar edilar. 2010 yilga kelib, shu joylarda ko'pi bilan 10 tagacha dorivor o'simliklar uchrashi, shu bilan birga ularni hajmi kam bo'lib, terishga mutlaqo etmaydi.

Borgan sari o'rmon maydonlari kamayib bormoqda. cho'l, qir adirlarda keng tarqalgan yovvoyi o'simliklar o'sadigan joylar o'zlashtirilib ularni ko'p qismini urug'ekiladigan yoki madaniy daraxtlar ekiladigan joylarga aylantirilmoqda. ko'pincha odamlarning tabiatni tabiiy rivojlanishiga aralshivu natijasida, ko'pchilik o'simliklarni o'sish sharoitlari o'zgarib, ularni qirilib ketishi kabi oqibatlarga olib kelmoqda. misol tariqasida shuni keltirish mumkinki,, tabiatni go'zal, so'lim bo'lgan joylar-tog', tog'oldi, ko'l, daryo bo'ylari va boshqalar ko'plab dala hovlilar, pansionatlar qurilishi tufayli barbod bo'lmoqda. ko'plab tekisliklarda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun o'zlashtirilishi tufayli ham, o'sha joylarda keng tarqalgan o'simliklarni kamayib ketishi, hatto yo'qolishiga olib kelmoqda.

Shunday qilib, jamiat industriyasini rivojlanishi bilan nafaqat o'simliklarning ayrim turlari yo'qolib ketishi jarayoni tezlashadi, hatto butun bir ekologik tizimni mutlaqo buzilishi ham mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish strategiyasini asoslash uchun hayot muhitini saqlashni asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

Biologik hilma-xillikni saqlash zarurligi prinsipi. faqatgina turli, xilma-xil bo'lgan tirik tabiatgina muhim va yuqori hosildordir.

Foydasi bo'lishi mumkin degan prinsip. bu prinsipni asosida, insoniyatga u yoki bu turning qanday nafi borligini oldindan bilib bo'lmashligini hisobga olish yotadi.

Jami tirik tabiatning o'zaro bog'liqligi prinsipi. tabiatning bir-biriga bog'liq bo'lgan murakkab zanjiridan bir halqa tushib qolsa, oldindan bilib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Dorivor o'simliklardan oqilona foydalanishning asosiy prinsiplari

Dorivor o'simliklarni muhofaza qilish ishlari, o'zining ichiga bir qancha tadbirlar tizimini olib, ular, o'simliklarni saqlash va tejamkorlik bilan ulardan foydalanish va qayta tiklanishini taminlash kabilardan tashkil topgan. har qanday dorivor o'simliklardan foydalanish, yig'ish ilmiy asoslangan shaklda yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning tabiatdagi zahirasini saqlab qolish va tabiiy qayta tiklanishini ta'minlanishi zarur.

Dorivor o'simliklar resurslaridan oqilona foydalanishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

Mahsulot tayyorlashni to'g'ri rejalash va joyini aniqlash.

Ayrim mintaqalar, tumanlar, joylar uchun uzoq vaqtga mo'ljallangan resurshunoslik tadqiqotlari dasturini yaratish va dorivor o'simliklar tayyorlash joyi, hajmini nazorat qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Masalan, ma'lum bir regionda terish mumkin bo'lgan yovvoyi holda tarqalgan o'simliklarni ro'yxati va eng ko'pi bilan qanchagacha hajmda terish mumkinligi aniqlanadi. bunda teriladigan turlar shu ko'rsatilgan joy atrofida (kiyik o'ti er ustki qismi, mayda gulli tog'rayhon o'ti va boshqalar); yoki qishloq atrofidagi joylardan terish ruxsat berilgan (yapon saforasi g'unchalari, do'lana mevalari) yoki alohida ajratilgan uchastkalar – institut sog'lomlashtirish ormgohi atrofidan (tubulg'ibargli bo'ymadaron guli va boshqalar).

Dorivor o'simliklarni biologik o'ziga xosligini hisobga olish.

Dorivor o'simliklardan oqilona foydalanishda, ularni biologik rivojlanish qonuniyatlari bilimini bilish, terilgandan keyin qancha muddatda bu o'simlik yana o'zining tabiiy zahirasini tiklanish muddatini

aniqlash, shu o'simlikdagi biologik faol, ta'sir qiluvchi moddasini hosil bo'lishi va to'planish dinamikasiga atrof-muhitni ta'sirini hisobga olish. bular o'simlik mahsulotlarini yig'ishni optimal muddati, usuli va sharoitini aniqlash, shu bilan birga tayyorlash ishlarini samarali bo'lishiga olib keladi.

Mahsulot tayyorlashni me'yorlash.

Asosanmagan va me'yorlanmasdan dorivor o'simliklarni va boshqa foydali o'simliklarni tayyorlash, ularning tabiiy zahirasini tez kamayib ketishiga olib keladi. bunday hollar, ko'pincha tayyorlash ishlari bilan ma'suliyatsiz mutuxassis bo'lmagan, tasodifiy odamlar va tashkilotar shug'ullanganda sodir bo'ladi. ko'pchilik dorivor o'simliklar, o'zlari bilan birga o'sadigan o'simliklarni orasida alohida ahamiyatli o'rni bo'lib, ularni ko'plab terish, birga o'sadigan o'simliklar orasidagi bog'liqlikni, tizimni, mutanosiblik (balans)ni buzilishiga olib keladi. masalan doimi terish chimyonda dalachoy, oddiy va tubulg'ibargli bo'ymadaron, achchiq shuvoq, samarqand bo'znochi kabi o'simliklarni kamayib ketishiga olib kelgan.

4. Mahulotni tayyorlash qoidasi va usullariga bo'ysunish.

Ma'lumki har bir dorivor o'simlik mahsuloti uchun tuzilgan vfm, shu dorivor o'simlik mahsulotini tayrlash uchun ishlab chiqilgan qoida, talab (instuksiya) tasdiqlangandan so'ngra qabul qilinadi. ushbu instruksiyada dorivor o'simlik mahsulotini oqilona yig'ish, quritish reglamenti bilan bir qatorda o'simlikning tabiiy zahirasini saqlash va qayta tiklanish muddatlari ham o'rganilgan va aniqlangan bo'ladi. dorivor o'simliklarni vegetatsiya davrining bosqichlarida, uning tarkibidagi biofaol moddalar sifat va miqdor jihatidan o'zgarib turishi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'tiborga olgan holda dorivor o'simlik mahsulotini optimal yig'ish muddatlari va quritish yo'llari, hamda saqlash qoidalari ishlab chiqilgan bo'ladiki, bu qoidalarga amal qilingandagina, dorivor mahsulotni sifatiga qo'yilgan me'yoriy-texnik hujjat talablariga javob berishi kafolatlanadi.

5. Istiqbolli yangi o'simliklarning turlarini izlash.

bu borada olib boriladigan ishlar bir necha yo'nalishlarda olib boriladi. birinchidan qardoshlik turlarini kimviy tarkiblari va farmakologik ta'sirlari bir-birlariga o'xshash bo'lishi mumkin. shuning uchun so'nggi vaqtlarda ilmiy tibbiyotda ishlatilib kelinayotgan dorivor o'simlikning qardoshlik bo'yicha boshqa yaqin turlari ichidan zahirasi ko'p, etarli bo'lganlarini izlash bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. shuni ham takidlash lozimki,

agar doimiy ishlatilib kelinayotgan o'simliklarni o'rmini bosa oladigan yangi turlari topilsa, doimiy ishlatilib kelingan joylardagi o'simliklar zahirasini kamayib ketishini oldini olingan bo'ladi, hamda ularni kamaygan joylardagi zahiralari ham tiklanishi tezlashadi. ularga misol qilib bo'ymadaron, kiyik o'ti, achchiq ermon, samarqand bo'znochi va boshqalarni keltirish mumkin.

Xalq tabobati tajribalarini o'rganish orqali, olib borilgan fitokimyoviy tadqiqotlar natijasida ishlatilib kelinayotgan offitsinal dorivor o'simliklar qatorini istiqbolli boshqa o'simlik turlarini hisobiga boyitish mumkin bo'ladi, hamda ular tibbiyot amaliyotida qo'llanilishi mumkin.

6. Zahirasi chegaralangan dorivor o'simliklarni madaniylashtirish va ekish. bu dorivor o'simliklarni himoya qilishni ixtisoslashtirilgan shakli bo'lib, o'simliklarni iqtisodiy jihatidan samarali ekib hosil olish yo'nalishiga qaratilgan. bu usul birinchi navbatda ta'minlay oladigan tabiiy zahirasi bo'lmagan dorivor o'simliklar xom ashyolari (tirmoqgul, qalampir yalpiz, dorivor moychechak, bo'ymadaron, achchiq shuvoq va boshqalar), etarlicha tarqalmagan dorivor o'simliklar bo'lib, sanoat miqyosida ishlab chiqarish ehtiyojini qondira olmaydiganlar (yapon soforasi, do'landa turlari, arslonquyruq, adonis turlari).

Ayrim o'simlik turlarini himoya qilishni eng ishonchli, samarali usullaridan biri, o'simliklar urug'lari bankini yaratish bo'lib, o'simlikni toza genetik materialini saqlanib, u ilmiy va amaliy maqsadlar uchun foydalaniladi.

Dorivor o'simlik mahsuloti sifatiga va uni hosildorligiga antropogen faktorlarni ta'siri biosferani tarkibi va rejimini o'zgartirishga ta'sir qiladigan asosiy antropogenlarga quyidagilar kiradi:

havoga sanoat chiqindilarini chiqarib ifloslantirish, sanoat axlatlari va boshqa tashlab yuboradigan chiqindilar.

sug'orish tizimi, sug'orish, erlarni haydash va maydonlarni sug'orib bo'ktirish, haddan tashqari chorvachilik hayvonlarini boqish, o'tlarni yig'ish, daraxtlarni kesish va olib ketish;

maydonlarda qurilish ishlarini olib borish, transport yo'llarini qurilishi;

shovqin-suron, elektromagnit ta'siri, radiatsiya fonini ortishi;

ommaviy dam olishni tashkil qilinishi va bular ta'sirida erni tepkilab, zichlantirib va bulg'otib, ayrim joylarda yong'inlar uyushtirilishi;

ko'plab o'simliklarni terib ketish va hayvoblarni o'ldirish, shu jumladan kommersiya maqsadida (brakonerstva).

bu ta'sir qiladigan faktorlarni shartli ravishda 2 ga bo'lish mumkin, to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan (bevosita), bilvosita (kosvenno).

to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) ta'sirga (yig'ish, yo'q qilish) uchastka biosferasi holatiga ta'sir qiladi (to'g'ridan-to'g'ri).

insonlarni biosferaga kosvenno ta'siri, ayrim hollarda kim va qachon ta'sir qilganini vaqt o'tib ketgani tufayli aniqlash qiyin bo'ladi va yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

tabiiy muhitga eng ko'p ta'sir qiladigan, shu jumladan dorivor o'simliklarga ham – bu texnogen faktorlardir.

Dorivor o'simliklarni ifloslanishini o'rganishni dolzarbliigi shundaki, zaralangan dorivor o'simliklar inson organizmiga tushadigan biofaol modda bilan bir vaqtda zaharli moddalarni manbaasiga aylanib qolishi mumkin. og'ir metallar, politsiklik aromatik uglevodorodlar, ftoridlar, mishyak, radionukleidlari, uy chiqindilari, foydali qazilmalar, rangli va qora metallurgiya, texnologiyasozlik, elektr energiya ishlab chiqarish. pestitsidlar, nitratlar va nitritlar o'simlik to'qimalarida, qishloq xo'jalik zararkunandalariga har xil kimyoviy reaktivlarni qo'llash natijasida to'planadi.

Dorivor o'simlik mahsulotlari sifatini reglamentirovat qilinayotganda, ksenobiotiklar (pestitsidlar, nitrat va nitritlar va x.o.) va og'ir metallar mutlaqo mahsulot tarkibida bo'lmasligi kerak.

Og'ir metallar deb atom massasi 40 dan ortiq va atom nomeri 20 dan ortiq aytildi. ularni reaksiyaga tez va oson kirishib ketishi va kompleks hosil qilishi, yuqori biokimyoviy va fiziologik faolligi bilan ajralib turadi. o'simliklar tarkibida og'ir metallarni, ayniqsa pb, cd, hg bo'lishi, antropogen ta'sirlarni natijasi deb hisoblanadi.

Dorivor o'simlik mahsulotlari va oziq-ovqatlardagi og'ir metallarni bo'lishi biosferani zararlanganligidan dalolat hisoblanadi va ularni to'planishiga quyidagi faktorlar sababidan bo'ladi:

Yerdagi metalni konsentratsiyasi;

Muhitdagi metalni shakli (formasi);

O'simlik turlaridagi modda almashinuvini o'ziga xosligi, hamda ularni rivojlanishi;

Ma'lum yashash sharoitiga o'simlikni moslashish darajasi.

Dorivor o'simlik mahsulotlari (do'm) (yovvoyi holdagilari) tayyorlash odatda transport yo'llariga yaqin maydonlarda tashkil qilinadi. do'mni benz(a)piren va metal birikmalari bilan zararlanganligi

(ifloslanganligi) shu yo'llardan qatnaydigan transportlarni soniga bog'liq, yo'l bilan mahsulot orasiga, o'simlikni morfologiyasiga ham bog'liq. do'm tarkibidagi benz(a)piren shaharda va shahar tashqarisidagi texnologiya yo'llariga yaqin bo'lganda bir sutkada 1000 dan ko'p avtomobil o'tganda ko'p bo'lib, texnologiyalar 1000 dan kam bo'lganda esa nisbatan kam bo'lishi aniqlangan. yo'ldan 200 m naridagi do'm dagi benz(a)piren miqdori doimiy ekanligi aniqlangan. agar begona moddalar do'm tarkibida erdagidan ko'p bo'lsa, aytish mumkinki atmosfera havosi u moddalar bilan ko'p ifloslangan. agar bir xil klimatik sharoitda bo'lsaku, ammo joylarda og'ir metallar bilan zararlanganligi ko'p bo'lsa, u holda bu zararlanganlik shu erga yaqin bo'lgan sanoat tufayligi ham aniqlangan. agar og'ir metallardan floridlar, myshyaklar 3,5 km radiusda tarqalgan bo'lsa, ularni miqdori epitsentrdan ko'p bo'lib, epitsentrdan uzoqlashgan sari kamayib boradi.

Yerdagi kimyoviy elementlar dorivor o'simliklardagi (do') biofaol moddani biosinteziga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yurak glikozidlari saqlovchi mahsulotlar mn va mo elementlarini to'playdi, saponinlar esa – mo, v, sr, cu, mn to'planishiga olib keladi.

Geokimyoviy tomondan ko'p elementlar saqlaydigan erda o'sgan do'boshqa joylardagidan biofaol moddalar (bfm) miqdori bo'yicha farq qiladi. bfm sintezini borishi, o'simlik va muhitdagi elementlarni konsentratsiyasi va o'zaro ma'lum nisbatda bo'lgandagina mo'tadil bo'ladi.

Ayrim og'ir metallarni do'larni ayrim organlarida to'planishi shu do' fiziologik va morfologik o'ziga xosligiga ham bog'liq.

Do'larni barg plastinkasini yuzasi kattalari boshqalardan ko'ra og'ir metallar (om) changini ko'proq to'playdi, ularni tozalash natijasida om miqdori 14-50% kamayishi mumkin.

Ayrim o'simliklar, ayniqcha qalampirmunchoqlar, karamdoshlar va boshqodoshlar mikroelementlar va zaharli og'ir metallarni ko'proq to'playdilar.

Shunday qilib do'larni tejamkorlik bilan foyalanishni ajralmas, kerakli bir bo'limi do'larni muhofaza qilish masalalarini echish bo'lsa, ikinchi tomondan o'simliklarni genofondini saqlab qolish, hamda do'ga bo'lgan ehtiyojni qondirishga ham erishiladi. atrof muhit qonunlarini bilish, insonlarni xo'jalik faoliyatlarini olib borishlari bilan bog'liq salbiy oqibatlarni minimumga keltiradi, chunki odamlarni xo'jalik faoliyati tufayli tabiatga ta'siri ham biosferani elementi hisoblanadi.

O'simliklar va hayvonot turlari (genofondi)ni saqlab qolishni eng zarur va kerakli yo'nalishi qizil kitob chop etilishi hisoblanadi. bu esa o'z navbatida spravochnik va yuridik maqomiga ega bo'lgan hujjat hisoblanadi.

Qizil kitobni o'simliklar va hayvonot olamini muhofazasidagi o'mi.

Hozirgi vaqtda er yuzida 20-25 ming o'simlik turlari yo'qolib (qirilib) ketish xavfida. masalan aqsh da 200 turi yaqinda yo'qolib ketgan, nihoyatda kam bo'lib yo'qolish arafasida turgan hisoblanadi. yangi zellandiyada kamayib ketgan va yo'qolayotgan o'simliklar ro'yxati 314 turdan iborat bo'lib, shu mamalakatni bu ko'rsatgich 14% florasini tashkil qiladi.

Yer sharidagi o'simlik va hayvonot olamidan qator o'simlik turlarini yo'qolib ketish xavfi 1948 yilda xalqaro tabiatni muhofaza qilish tashkilotini (msop) (mejdunarodnyy soyuz ohrany prirody) doimiy komissiyasini tuzilishiga olib keldi. ular o'simlik va hayvon turlarini yo'qolish sabablarini o'rganadilar va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadilar. shu vaqtdan boshlab butun dunda yo'qolayotgan o'simlik va hayvon turlari ro'yxatini tuzish boshlangan. angliyalik zoolog piter skot taklifiga ko'ra xalqaro qizil kitob tashkil qilindi - unga noyob (redkie), yo'qolib ketish xavfi bo'lgan hayvon va o'simliklar bo'yicha qisqa ma'lumotlarni chop etish 1966 yildan boshlangan. 1979 yili shu xalqaro qizil kitobga 321 ta dengiz maxluqlari (melkopitayuyux), 485 tur qush, 141 tur sudralib yuruvchilar va 41 tur erda va suvda yashaydiganlar va 194 tur baliq kiritilgan. o'simlik turlari (sosudistye rasteniya) bu kitobda 250 turni tashkil qilgan. shu bilan birga komissiya 1600 yildan boshlab er yuzidan yo'qolib ketgan hayvonot va o'simlik turlari ro'yxatini ham tuzgan.

Mustaqil hamdo'stliklar davlatlarida (mdh) qo'riqlanishga muhtoj bo'lgan o'simliklar ro'yxati kiritilgan "qizil kitob yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning muhofazaga muhtojlari" 1975 yilda butunittifoq botaniklar jamiyati tomonidan tayyorlangan. ushbu kitobni 2 chi nashri 1981 yili "mdx (sssr)dagi muhofazaga muhtoj yo'qolayotgan flora turlari" ("redkie i ischezayushie vidy flory sssr, nujdayuyuesiya v oxrane") chop etilgan. bu ishlarda ilmiy jamoatchilikni takliflari keltirilgan bo'lib, qaerda va qanday o'simliklarni muhofaza qilish, qo'riqlash ko'rsatilgan bo'lib ular sssr qishloq xo'jaligi minstrligining, 1978 y. chop etilgan qizil kitobini (krasnaya kniga sssr) asosini tashkil qilgan. ushbu kitobni ikkinchi nashri sssr minstrlar soveti

qarori asosida 1984 yilda chop etilgan. sssr qizil kitobiga 681 tur o'simliklar kiritilgan bo'lib, ular to'g'risida qisqacha xarakteristika (tavsifi), biologik o'ziga xosligi va ularni himoya qilishni choralari keltirilgan.

O'zbekiston respublikasi hududida hozir 4500 ga yaqin yovvoyi o'simlik turlari mavjud. ular orasida jiddiy muhofazaga muhtoj ko'pgina kamyob, endem va relik turlar ham bor. bunday turlarning soni 400 atrofida bo'lib, ular O'zbekiston florasining 10-12 foizini tashkil etadi.

Respublika qo'riqxonalari muhofaza qilinayotgan floralarning umumiy holati nisbatan yaxshi bo'lishiga qaramay, ko'plab yovvoyi turlarning tabiiy zahiralari keskin kamayib ketmokda. dunyoga dong'i ketgan lola va sallagullar, qimmatbaho o'simlik -Yetmak, dorivor o'simlik - bozulbang, oziq-ovqat o'simligi - anzur piyozi kabilar keyingi yillarda butunlay kamayib ketdi. bir qancha turlar yo'qolib ketish holatiga kelib qoldi.

Aholining tabiatga noto'g'ri munosabati ham o'simliklarning kamayib ketishiga sabab bo'lmokda. ayniqsa shahar va qishloqlar atrofidagi qizil lola, sallagul, shirach va shunga o'xshash nafis gulli o'simliklar juda kamayib ketgan. tabiatga, o'simliklar dunyosiga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lishga chek qo'yish, tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ko'paytirish hammamizning asosiy burchimiz.

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach, atrof mu-hitni, xayvonot va o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga alohida e'tibor berildi. 1992 yil 9 dekabrda "tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", 1993 yil 7 mayda "alohida muhofaza qilinadigan hududlar to'g'risida" va nihoyat, 1997 yil 26 dekabrda "o'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. bu qonunlar barcha o'simliklar turlarini saklab qolish, uni asrab-avaylash va muhofaza qilishda muhim xujjatlar bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston florasining yo'qolib ketish xavfi ostida turgan 163 turi qizil kitobning 1984 yilgi nashrida kiritilgan va ushbu turlarning takdiri bilan respublika mutaxassislari, olimlari muttasil shug'ullanib kelmokdalar. o'tgan yillar mobaynida olib borilgan kuzatishlar ayrim o'simlik turlarining soni va maydoni ancha kengayganligini ko'rsatdi. masalan, anzur va suvorov piyozlari oldingi holatiga kelmagan bo'lsada, ma'lum darajada ko'paydi. eng kamyob o'simliklardan sanalgan minkvitsteziumi nomli o'simlik turining soni 7 tadan 17 tagacha etdi. qurama tizmasida kamyob o'simliklardan hisoblangan korovin

shirachining mavjudligi aniklandi. ayni vaqtda ayrim o'simlik turlarining soni keskin qisqarib ketgan. omonqora o'simligi, piskom piyoz, margarita marmaragi kabilar shular jumlasidandir.

Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar o'lkamiz florasidan yana 138 o'simlik turini qizil kitobga kiritish lozimligini ko'rsatdi. shunday qilib, o'zbekistonning qizil kitobiga kiritilgan o'simlik turlarining soni 301 taga etdi. qizil kitobga kiritilgan o'simlik turlari tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga binoan 4 guruhga ajratildi.

1. yo'qolgan yoki yo'qolish arafasidagi turlar bir necha yillar dovomida tabiatda uchratilmagan, lekin ayrim yig'ib olish qiyin bo'lgan joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlanib qolish ehtimoliga ega bo'lgan o'simlik turlari.

2. yo'qolib borayotgan turlar yo'qolib ketish xavfi ostida turgan, saqlanib qolishi uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

3. kamyob turlar ma'lum kichik maydonlarda o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

4. kamayib borayotgan turlar ma'lum vaqt ichida soni va tarqalgan maydonlari tabiiy sabablarga qo'ra yoki insonlar ta'siri ostida qisqarib ketayotgan turlar. ayni vaqtda, bunday o'simliklar har tomonlama nazorat qilib turishni talab etadi.

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni qo'riqlash tizimini tashkil qilish

Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar mintaqada, qolaversa er yuzida ekologik muvozanatni boshqarib turadi, chunki busiz tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish, har qanday xo'jalik faoliyat oqibatini oldindan ko'raolmaslik, tabiiy muhitni saqlashni ham iloji bo'lmay qoladi.

O'simliklarni davlat tizimidagi hududlarini muhofaza qilishni quyidagi shakllari mavjud.

Qo'riqxona quruqlik va suv havzasining xarakterli tabiiy landshaftlari bo'lgan ma'lum bir maydon bo'lib, tabiatni muhofaza qilishning eng samarali shakllaridan biridir. alohida muhofaza qilinadigan hududlar orasida qo'riqxonalar muhim rol o'ynaydi.

Qo'riqxonalarning asosiy vazifasi va maqsadlari nimalardan iborat? qo'riqxonalarning asosiy vazifasi - tabiatning diqqatga sazovor, qimmatli landshaftlarning jamiyat manfaatlar uchun saqlashdan iborat. qo'riqxonalarning xududlaridagi majmualar tabiiy holda saqlanadi. ular

inson tomonidan o'vlashtirilgan va o'zlashtirilayotgan qo'shni hududlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi.

Qo'riqxonalar hududlaridan xo'jalikda foydalanish, pichan tayyorlash, ov qilish, baliq tutish, qo'ziqorin terish umuman taqiqlanadi. qo'riqxonalar atrofi xam, foydalanib muhofaza kilinadigan zona bo'lishi kerak.

Qo'riqxonalarning vazifasi tabiatni bir butun holda o'rganishdir. ular landshaft tarkibiy qismlari o'rtasidagi uzviy bog'lanishlarni bilib olib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish uchun zarur. inson tomonidan o'zlashtirilgan landshaftlarga moslasholmagan hayvonlarni faqat qo'riqxonalarda saqlash mumkin bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qancha o'simlik turlari faqat qo'riqxonalarda saqlanmoqda. qo'riqxonalar ovlanadigan hayvonlarni saqlash va ularni ko'paytirishda ham katta rol o'ynaydi. shunday qilib, qo'riqxonalar hududlari turli xil hayvon va o'simlik turlarini, ovlanadigan hayvonlarning mikdori va genetik fondini saqlash uchun xizmat qiladi. mamlakatimizda hamma qo'riqxonalar ilmiy muassasalar hisoblanadi. qo'riqxonalarda minglab xodimlar tabiiy majmualarni va ularning ayrim tarkibiy qismlarini tekshiradilar.

Keyingi yillarda inson tomonidan dengiz va okeanlar boyliklari o'zlashtirilishining tobora kuchayib borishi bilan bog'liq holda atrof-muhitning ifloslanishiga, ekologik tuzumlarning buzilishiga, ayrim hayvon va o'simlik turlarining yo'q bo'lib ketishiga olib keluvchi antropogen ta'sirlar kuchayib bormokda. shuning uchun dunyo akvatoriyalarida ham qo'riqxonalar tashkil etilib, ularning soni 170dan ortib ketdi. ular avstraliya, daniya, isroil, yaponiya, flippin, janubiy afrika va boshqa davlatlarda joylashgan.

O'zbekistonda birinchi qo'riqxonalar 1926 yilda zomin rayonining Jizzax o'rmon xo'jaligiga qarashli kulsoy va g'uralashsoy havzalarida „g'uralash" tog'archa qo'riqxonasi nomi bilan tashkil qilingan edi. u keyinchalik zomin tog'- o'rmon qo'riqxonasi nomi bilan qayta taklangan.

O'zbekistonda umumiy maydoni 460ming gektarni tashkil qiluvchi 14ta qo'riqxonalar mavjud. qo'yida ularga to'xtalib o'tiladi.

Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasi. u turkiston tizmasi g'arbiy qismining shimoliy yonbag'rida, zomin tog'ida 1900 - 3500 metr balandlikda joylashgan. bu erda tog', dasht, o'rmon va subalp o'simlik mintaqalari mavjud. qo'riqxonalar hududida 150dan ortiq o'simlik

turlaridan iborat. bu erda archaning uch turi uchraydi. o'rmonzorning pastki qismida zarafshon archasi, o'rta kismida saur archasi, yuqori qismida turkiston archasi o'sadi.

Zomin tog'-o'rmon qo'riqxonasida archazorlarning tabiiy geografik majmualarini saqlash ularni har tomonlama tadqiq etish, tabiiy resurslar sifatini yaxshilash, ularni ko'paytirish shuningdek, archa biologiyasini o'rganish, archazorlarni kengaytarish, xayvonot dunyosini saqlash va tiklash bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qo'riqxona chotqol tizmasining janubiy-g'arbiy qismidagi dengiz satxidan 1000 - 3200 metr balandlikda joylashgan bo'lib, maydoni 47,5 ming gektar erni tashkil qiladi. qo'riqxona hududida quruq dashtdan tashqari mevali o'rmonlar, archazorlar, alp o'gloqlari kabi ladshaft mintaqalari mavjud. bu erda 600 dan ortiq o't, 40ga yaqin daraxt va buta o'simlik turlari uchraydi. qo'riqxonaning deyarli yarmi archazorlardan iborat. bundan tashqari pista, kavkaz shamshodi, zirk, irg'ay, va boshqa o'simlik turlari o'sadi.

Payg'ambarorol qo'riqxonasi. bu Termiz shahridan 20 km quyida joylashgan. orolning maydoni 4000 gektar. payg'ambarorol qo'riqxonasining to'rtidan uch qismi qalin to'qayzorlar bilan qoplangan. to'qaylarda asosan turangi, jiyya va turli xil o'tlar o'sadi. qum tepalarida esa yulg'unlar ko'p bo'lib, ularning atrofini tikanli jingilzorlar o'rab olgan. pastroq erlar qamishzorlar bilan qoplangan. orolning janubiy qismida saksovul, juzg'un, efemerlar tarqalgan.

Qorako'l qo'riqxonasi. Buxoro viloyatida joylashgan. qo'riqxona xududidan amu-qorako'l va amu-Buxoro kanallari oqib o'tadi. kanal suvi to'lib, atroflarda bir necha ko'llar hosil qilgan. bular ko'plab baliq va qushlarning oromgohiga aylangan. qo'riqxonada 200 ga yaqin yuksak o'simliklar uchraydi, shundan 30 tasi daraxt va butalardir. kanal yoqasi va ko'llar atrofidagi to'qayzorlarda asosan jiyya, turangi, tol, terak, qizil jing'il yulgunlarning bir necha turi, qamish va boshqa o'simliklar keng tarqalgan. qumlarda asosan qora saksovul, qandimning 6 turi, singrenning 3 turi, cherkez, illoq va boshqa o'simliklar tarqalgan.

Qizilqum qo'riqxonasi. bu qo'riqxona ham Buxoro viloyati hududida joylashgan. unda o'simlikning 150 turi o'sadi. to'qayzorni ko'proq daraxt-butazorlar egallaydi. bundan tashqari, bu erda har xil o'tlar, qamish, qug'alar, ro'vak, ajriq va boshqalar o'sadi. qumli joylarga qora va oq saksovul, cherkez va quyonsuyak xarakterlidir.

Bodayto‘qay qo‘riqxonasi. Qoraqalpog‘iston hududida joylashgan. qo‘riqxonada o‘simlik va hayvon turlari ko‘p. bu erda turangi, yulg‘un va qiyozzorlar mavjud.

Nurota qo‘riqxonasi. Nurota tog‘tizmasi yonbag‘irlarida tashkil etilgan. Nurota qo‘riqxonasining asosiy vazifasi tog‘-dasht mintaqalarini, ayniqsa, seversov qo‘yi ekologiyasini o‘rganish va muhofaza qilish.

Zarafshon qo‘riqxonasi. bu qo‘riqxona samarkand shaxrining zarafshon daryosi qayirida tashkil etilgan. ko‘riqxonaning o‘simlik va xayvonot dunyosi xilma-xildir. qayir to‘qaylarida 140 dan ortik o‘simlik turi o‘sadi.

Qizilsuv qo‘riqxonasi. Qashkadaryo viloyatida tashkil etilgan. uning xududida ayiq, qoplon, tog‘echkisi, umuman tog‘-o‘rmon mintaqasi, archazorlar va uning xayvonlari muxofaza qilinadi.

Miroki qo‘riqxonasi. hisor tizmasi shimoliy yonbag‘rida, oqsvu daryosi irmoqlari xavzasida joylashgan. u o‘ziga xos o‘simlik va xayvonlarga juda boy bo‘lib, ularning tarqalishi balandlik mintaqalari qonuniyatiga bo‘ysinadi.

Asosiy vazifasi balandlik mintaqalarining tabiiy majmualarini o‘rganish va muxofaza qilishdir.

Vardanzi qo‘riqxonasi. qo‘riqxona qadimgi Vardanzi shaxri o‘rnida tashkil etilgan. saksovul o‘rmoni bu er uchun xarakterli bo‘lgan fumli cho‘l tabiiy majmuasining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. ayni vaqtda bu qo‘riqxonada tarixiy yodgorliklar xam muxofaza qilinadi.

Arnasoy cho‘l-ko‘l qo‘riqxonasi. Jizzax shaxridan 60 km shimolda joylashgan arnasoy ko‘l tekislik qismida cho‘l uchun xos bo‘lgan “efemer o‘simliklar” juzg‘un o‘sadi. asosiy vazifasi cho‘l va suniy hosil bo‘lgan akvatoriyada yashovchi va qishlovchi qushlarni, cho‘l xamda botqoqlik-qamishzor majmualarini o‘rganish va muxofaza qilishdan iborat.

Abdusamat to‘kay qo‘riqxonasi. farg‘ona vodiysida tashkil etilgan. bu qo‘riqxona sirdaryo yoqasidagi to‘qay majmualarini, shuningdek, ingichka bargli jiyda, aralash tolzorlarni saqlash uchun tashkil etilgan.

Zarafshon (kitob) paleontologik-stratigrafik qo‘riqxonasi. kitob shaxridan 52 km sharqda tashkil etilgan bo‘lib, u o‘zbekistonda yagona geologik qo‘riqxonadir. bu qo‘riqxonada qoyali tog‘lar muxofaza qilinadi. qo‘riqxonada marjonlar, mollyuskalar, dengiz liliyalari, qadimgi umurtqalilar-grantolitlar, kosali baliqlarning izlari topilgan. ana

shularga qarab 400-500 million yillar avval tabiat qanday bo'lganligini bilish mumkin.

Zakazniklar tabiatni muhofaza qilish tadbirlaridan biri sifatida juda qadimdan ma'lum. zakazniklarda tabiiy - geografik majmualar tarkibiy qismlarning ayrim bo'laklari, ayrim hayvon yoki o'simlik turlari muhofaza qilinadi. unda qator tabiiy resurslardan xo'jaliquda foydalanishga ruxsat beriladi. zakazniklar vaqtinchalik va doimiy bo'ladi. vaqtinchalik zakazniklar ko'pincha ovchilik xo'jaliklarida ov qilinadigan hayvon va qushlarning sonini tiklash va ko'paytarish maqsadida ma'lum muddatga tashkil qilinadi. doimiy zakazniklar o'simliklar, hayvonlarni muhofaza qilish uchun tuziladi. o'zbekistonda umumiy maydoni 197 ming gektardan iborat 8 ta zakaznik bo'lib, ularda respublikamizning hayvonot va o'simliklar dunyosi muhofaza qilinadi va tiklanadi.

To'dako'l cho'l-ko'l davlat buyurtmasi. Buxoro viloyatida tashkil etilgan. bu erda o'rdaklar, oqqushlar, sakokushlar, ko'lrang g'ozlar, kuyonlar, kamish mushugi, jayronlar muxofaza kilinadi.

Ko'xitang tog-o'rmon davlat buyurtmasi. Surxondaryo viloyatida tashkil etilgan. bunda burama shoxli echki, tog'ko'yi, burgut xamda arxeologik yodogorliklar muxofaza qilinadi,

Nurumtubek tog'-o'rmon davlat buyurtmasi. buning xududida yovvoyi cho'chka, bo'rsik, tolay kuyoni, xiva kirgovuli muxofaza kilinadi.

Oqbuloq tog'davlat buyurtmasi. Toshkent viloyatida tashkil etilgan. bu erda osiyo echkisi, oktimokli ayik oksuv-sar, bo'rsik, bars, ilvirs, burgut va boshkalar muxofaza kilinadi.

Dengiz cho'l-ko'l davlat buyurtmasi. Buxoro viloyatida tashkil etilgan. bu erda mavsumiy va qishlovchi qushlar xamda ko'lga suv ichish uchun keladigan hayvonlar muhofaza qilinadi.

Amudaryo qayir davlat buyurtmasi. qayirda uya quradigan va mavsumiy suv parrandalarini muxofaza kilish maqsadida qoraqalpog'istonda tashkil etilgan.

Shabboz to'qay davlat buyurtmasi. Xorazm viloyatida tashkil etilgan. bunda cho'chka, chiyabo'ri, ko'm bo'rsigi, kamish mushuti, kum kuyoni, xiva kirgovulini saklash xamda to'kaylarda yashaydigan xongul bugusi va eliklari tiklash.

Xorazm cho'l davlat buyurtmasi. bu xam Xorazm voxasining chekkasidagi suv xavzalariga va kumli cho'llarga xos xayvonlarni tiklash va muxofaza kilish maksadida barpo qilingan.

Nazorat savollari.

1. O'simliklarning kimyoviy tarkibini o'zgaruvchanligi va ularning omillari.

2. Dorivor o'simliklarni birlamchi introduksiyasi (madaniylashtirish) va samarali madaniylashtirishda ekologik faktorlarni ahamiyati.

3. O'zbekiston dorivor o'simliklarini madaniylashtirish.

4. Botanika bog'ida introduksiya qilingan dorivor o'simliklar.

5. O'rta Osiyo tabiiy florasida o'simliklarni O'zR FA Botanika bog'ida, introduksiya qilish nuqtai nazaridan o'rganishdagi ayrim uslubiy masalalar

6. dorivor o'simliklarni muhofaza qilish omillari.

7. dorivor o'simliklarni resurslaridan oqilona foydalanish.

8. dorivor o'simlik mahsuloti sifatiga va uni hosildorligiga antropogen

faktorlarni ta'siri

9. "Qizil kitob"ning o'simliklar va hayvonot olamini muhofazasidagi o'rni.

10. O'zbekiston qo'riqxonalari va ularning vazifalari.

XIV BOB. DORIVOR O'SIMLIKLARNING HAYOTIY SHAKLLARI.

Hayotiy shakl (biomorfa) - o'simlikning muhit sharoitlariga moslanishini aks ettiruvchi tashqi qiyofasi (gabitus) hisoblanadi. «Hayotiy shakl» atamasini fanga Daniya botanigi E. Varming (1884) kiritgan. Hayotiy shakl o'simlik vegetativ tanasining o'simlik urug'dan unib chiqqanidan to halok bo'lgunicha o'tgan yashash davrida tashqi muhitga moslanishi, o'simliklarning ekologik tasnif birligi, ya'ni moslanish natijasida tashqi strukturasi bir-biriga o'xshash o'simliklar guruhi. Bu o'xshashlik qarindoshlikka bog'liq bo'lmay, ko'pincha konvergentsiya natijasi bo'lishi mumkin (masalan kaktuslar va ba'zi bir sutlamadoshlar poyali sukkulentlar hayotiy shaklini hosil qiladi). Hayotiy shakl, asosan, o'simliklarning yer osti va yer ustki vegetativ organlari strukturasi bog'liq, ularning rivojlanish ritmiga va uzoq yashashiga qarab o'zgaradi. Hayotiy shakl evolyutsiya jarayonida turli iqlim, tuproq va biotsenotik sharoitlarda tabiiy tanlanish natijasida vujudga keladi.

Har bir o'simlik (daraxt, buta, liana va boshqalar) ning muayyan hayotiy shakli uning ontogenezida o'zgaradi. Ayni bir tur har xil sharoitda turli hayotiy shaklda bo'lishi mumkin. Masalan, o'rmon zonasi va tog'-o'rmon mintaqasida baland o'sadigan qoraqayin, qoraqarag'ay, tilog'och va boshqalar shimoliy va balandlik mintaqalarida buta shaklida yoki yer bag'irlab o'sadi. Bada turlarida balandlik mintaqasiga ko'tarilgan sari o'simlik bo'yini pastlashishi va bir tupdagi poya sonini ortishi qayd qilinadi. O'simliklar joy landshaftini belgilovchi tashqi qiyofasiga tegishli asosiy shakllarining birinchi fizionomik tasnifini nemis tabiatshunosi A. Gumboldt (1806) sharhlab bergan. U o'simliklarning 19 xil hayotiy shaklini ajratgan. Keyinchalik o'simliklarning o'ziga xos moslashuv alomatlariga qarab tasniflanishi paydo bo'ldi. O'simliklar hayotiy shakllari bo'yicha K. Raunkier klassifikatsiyasi mavjud bo'lib, bir qator nazariy va amaliy masalalarni hal qilishda o'simlikning hayotiy shaklini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Masalan, K. Raunkier iqlim tavsifi uchun u yoki bu hudud florasining hayotiy shakl foiz tarkibidan foydalangan. Hayotiy shaklni o'rganish orqali yashash muhitining o'ziga xos xususiyatlari va organizmlar moslanishining o'zgarishi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Hayotiy shakl tushunchasi ko'pincha o'simliklar bioformasining umumiy ekologik sharoitlar ta'sirida o'zgarishi bilan

bog'liq holda o'rganiladi. Daniya olimi K.Raunkier 1905- yilda o'simliklarning qishlovchi kurtaklarining novdada joylashishi va noqulay sharoitda himoyalinishiga qarab o'simliklarning klassifikatsiyasini tuzib chiqdi

- 1) Fanerofitlar (faneros – ochiq) - Ph
- 2) Xamefitlar (xame – past) - Ch
- 3) Gemikriptofitlar (gemi – yarim, kriptos –yashirin) - H
- 4) Kriptofitlar (kriptos – yashirin) - K
- 5) Terofitlar (teros – yoz) – Th39

Fanerofitlar. Kurtaklari qisman ochiq va yerdan ancha balandlikda joylashgan (daraxtlar, butalar, lianlar). Kurtaklari tangacha barg bilan qoplanib saqlanadi. O'rmonlarda yashovchi daraxtlarda ochiq kurtaklar ham uchraydi. O'simliklarning balandliklariga qarab megafanerofitlar (mega - yirik, katta), mezofanerofitlar (mezos - o'rta) , mikrofanerofitlar (mikro – kichik) hamda nanofanerofitlarga (nanos– pakana) bo'lgan.

Xamefitlar. Kurtaklari yerdan ozgina balandlikda (20-30 sm oralig'ida) joylashgan. Bu guruhga yarimbutalar, yarimbutachalar, yostiqlimon o'simliklar, ko'pchilik o'rmonlovchi o'simliklar kiradi. Ularning kurtaklari sovuq paytlarida qor tagida qishlaydi.

Gemikriptofitlar. Asosan ko'p yillik o't o'simliklar kiradi. Bu o'simliklarning kurtaklari yer yuzasida yoki ozgina tuproqqa ko'milib yoki o'simliklarning qurigan shox –shabballari va barglarining tagida qishlaydi. Bu guruhni Raunkier yana bir necha guruhchalarga bo'ladi:

1) Protogemikriptofitlar – poyasi uzun, har yili yer ustki qismi kurtaklari joylashgan joylarga quriyidigan o'simliklar.

2) Rozetkali gemikriptofitlar - qisqa poyali, qishda kurtaklari bilan yer yuzida tuproqda qishlaydi.

Kriptofitlarga ildizpoyali, tuganakli, piyozboshli o'simliklar kiradi. Ularning kurtaklari tuproqning ichida yer yuzasidan ancha chuqurlikda (geofitlar : geo- yer) yoki suv ichida (gidrofitlar: gidro - suv) qishlovchi o'simliklar kiradi. Ushbu guruhga kiruvchi gelofitlar botqoqlik (gelo-botqoq) o'simliklari bo'lib, ularning kurtaklari suv ostida joylashgan bo'ladi, vegetativ organlari esa suvdan ko'tarilib turadi.

Terofitlar. Bir yillik o'simliklar bo'lib, qishda yoki kuzda butunlay quriydi. Keyingi yili ular urug'idan o'sib chiqadi. Biologik spektr ma'lum bir hududdagi o'rganilayotgan o'simliklar jamoalaridagi hayot shakllarining foizdagi nisbatlaridir. K.Raunkier hayotiy shakllarining iqlim bilan o'zaro bog'liqligini tushuntirishga harakat qiladi hamda Yer

sharining turli mintaqalari va rayonlar uchun biologik spektrlarni tuzib chiqadi.

I.G. Serebryakov (1962) gulli o'simliklar uchun ekologomorfologik klassifikatsiyani taklif qiladi. Unga ko'ra o'simliklar 4 ta katta bo'limga ajratiladi:

I. Daraxtsimon o'simliklar (daraxt, buta va butachalar);

II. O'tsimon o'simliklar (bir, ikki va ko'p yillik o'tlar);

III. Oraliq o'simliklar (chala buta va butachalar);

IV. Suv o'simliklari (suzib yuruvchi, suv osti va qirg'og'ida yashovchi o'simliklar).

O'simliklarni qaysi guruhga kiritishda novdaning o'sish shakli va vegetatsiyasi davomiyligi hisobga olingan. Ushbu klassifikatsiyada quyidagi tasniflash birliklari qabul qilingan: bo'lim, tip, sinf, sinfcha, guruh, guruhcha, hayot shakllari seksiyalari va hayotiy shaklning o'zi. Shulardan quyida 6 ta tipni izohlab o'tamiz.

Daraxtlar - ko'p yillik, doimo ko'p yoki kam rivojlangan, har xil darajada yog'ochlangan markaziy tanadan iborat bo'ladi. Hayotining davom etishi 10 va 100 yillar bilan o'lchanadi; balandligi 3-5 m dan 150 m gacha yetadi. Daraxtlar ekvatoridan to mo'tadil - sovuq poyaslarning nam va qisman quruq mintaqalarida tarqalgan.

Butalar - asosan tanasi o'simlik hayotining boshida kuzatiladi, keyinchalik esa bir necha tartibdan iborat kuchli shoxlanadi. Yoshi kattalashgan sari asosiy tana to'liq yo'q bo'lib ketadi. Daraxtlardan farq qilgan holda yer ustki qismining davomiyligi 2-3 yildan (ko'p hollarda 10-20 yildan) 30-40 yilgacha davom etishi mumkin. Butalarning balandligi 0,8-1,0 m dan 5-6 m; yer ustki qismi diametrik esa 1-2 sm dan 5-8 sm gacha. Kontinental, subal va subarktika chegaralaridagi o'rmon o'simliklari qoplamining kamdan-kam edifikatorlari sifatida tarqalgan.

Butachalar - yog'ochlashgan o'simliklar bo'lib, ularning asosiy poyasi ontogeneznining boshlanishida kuzatiladi, keyin esa halok bo'ladi va yer ustki yon poyasi bilan almashadi. Butalardan farq qilib, tik o'suvchi yer ustki poyasi odatda 5-10 yil yashaydi, balandligi esa 5-7 sm dan 50-60 sm atrofida bo'ladi. Asosan mo'tadil sovuq va sovuq zonalarining baland tog' mintaqalarida tarqalgan.

Chalabutalar va chalabutachalar - poyasining faqat pastki qismi yog'ochlanib, qolgan qismlari har yili qishda qurib qoladi, faqat ko'p yillik bazal qismi saqlanib qolinadigan o'simliklar hisoblanadi. Monokarp novdalarning rivojlanish jarayoni 3-5 yildan oshmaydi. O'simlikning umumiy balandligi odatda 50-80 sm bo'lib, ba'zan 1,5-2

m gacha yoki undan ham baland bo'lishi mumkin. Asosan quruq mintaqalarda tarqalgan.

O'tsimon polikarplar - ko'p marta gullab, meva beruvchi ko'p yillik o'tlar hisoblanadi. Yer ustki tikka o'suvchi novdalari vegetatsiya davrining birinchi yili oxirida nobud bo'ladi. Yoniga o'suvchi novdalari esa bir necha yil davomida saqlanishi mumkin. Bu hayot shakllari yer yuzida juda keng tarqalgan.

O'tsimon monokarplar - hayot jarayoni 1 yoki bir qancha yil davom etishi hamda bir marta gullab meva berishi, undan keyin esa vegetativ qismining qayta tiklanish qobiliyati yo'qolishi hisobiga halok bo'ladigan o'simliklardir. Ushbu guruhga ko'pgina madaniy va begona o'tlar kiradi. Shimoliy yarim shar mo'tadil hududlarning adir va subadir mintaqalarida keng tarqalgan. A.E.Vasilev va boshqalar (1987) muallifligida nashr qilingan "O'simliklar morfologiyasi va anatomiyasi" o'quv qo'llanmasida o'simliklar hayotiy shakllarining ekologomorfologiyasiga asoslangan klassifikatsiyasida o'simlikning o'sish shakli va vegetativ organlarining yashashiga qarab, shuningdek kurtaklarning joylashishiga asoslanib, bir necha guruhlarga bo'lingan:

I. Yog'ochli o'simliklar – daraxt, buta, butachalar kiradi.

II. O'tsimon o'simliklar - ko'p va bir yillik o'tlar.

III. Oraliq guruhlar (yarim yog'ochlangan) – yarim butalar, yarim butachalar.

Shuningdek ayrim botanikaga oid adabiyotlarda poyalarning o'sishiga qarab dorivor o'simliklar bir necha guruhlarga bo'lingan:

1. tik o'suvchi
2. yotib o'suvchi daraxt, buta, o'tlar
3. o'rimalab o'suvchi yog'ochlangan, o'tsimon lianalar kiradi.

Oziqlanishiga binoan:

1. aftotrof
2. simbiotrof
3. yarim parazitlar o'tsimon o'simliklar
4. parazitlar
5. hasharotxo'rlar

O'tsimon o'simliklarning klassifikatsiyasi. Bu tizimga ko'p yillik o't o'simliklar, ya'ni gemikriptofit va geofitlar kiradi:

1) O'q ildizli (kaudeksli) o'simliklar. Yaxshi rivojlangan, jamg'aruvchi, tuproq qatlamlariga chuqur kirib boruvchi ildizlarga ega

bo'lgan o'simliklar. Kaudeksning shoxlanishiga qarab bir boshli, ko'p boshli bo'lishi mumkin (qashqarbeda, shuvoq).

2) Popuk ildizli o'simliklar. Asosiy ildizi bo'lmaydi. Qo'shimcha ildizlari yo'g'on jamg'aruvchi, buralib zich joylashgan ildizlar hosil qiluvchi o'simliklar. Poyasi kalta bo'g'im oraliqlari qisqa (zubturm, ayyiqtovon va boshqalar).

3) Qisqa yer osti – ildizpoyali o'simliklar. Ko'p yillik o'simliklar qo'shimcha ildizlari hisobiga yashaydi. Lekin yer ostki ildiz poyasi ko'p yillik, yaxshi rivojlangan, bo'g'im oraliqlari qisqa (ildiz poyasi – epigeogen – yer ustida paydo bo'ladi) bo'ladi (gulsapsar va boshqalar).

4) Uzun yerosti poyali o'simliklar – gipogen ildizpoyali o'simliklar ya'ni ildiz poyasi yer ostida hosil bo'ladi. Ildizlari qo'shimcha ildiz tipida bo'ladi (miya turlari va boshqalar).

5) Zich tup hosil qiluvchi o'simliklar – ildizpoyalari qisqa, zich, ko'p sonli qo'shimcha ildizlar hosil qiluvchi ko'p yillik bir pallali o'simliklar.

6) Tuganak hosil qiluvchi o'simliklar;

1) Bitta ko'p yillik poya tipidagi tuganak hosil qiluvchi o'simliklar va yana har yili tuganaklarini almashtiruvchi;

2) Ildiz tipidagi o'simliklar (yatrishnik va boshqalar);

3) Stolon tuganakli o'simliklar (kartoshka).

7) Piyozboshli o'simliklar – ko'p yillik qismi turli tipdagi piyozboshlar, almashib turadigan qo'shimcha ildizlarni hosil qiluvchilar. Bu o'simliklar ko'p yillik va bir yillik bo'lishlari mumkin.

8) Yer yuzida o'rmalovchi, yer ustki stolonli o'simliklar. Ko'p yil yashovchi o'tsimon o'simliklar, plagiotrop o'rmalovchi poyaga ega bo'lgan (piyozboshli choy va boshqalar) yoki stolonli tez qurib qoluvchi o'simliklar (qulupnay). Bir yillik o'simliklarga o'z vegetatsiyasini qisqa muddatda tugatuvchi efemerlar ham kiradi.

Monokarpik va polikarpik o'simliklar. O'z hayotida bir marta gullab, meva berib quriyigan o'simliklar monokarpik (mono- bir, karpos- meva) o'simliklar deyiladi. Ko'p yillik o'tlar ichida 50-60 yil yashab, bir marotaba meva hosil qilib quriyigan o'simliklar ham bor (ayrim palmalar, agava, aloe, bambuklar). Ikki yillik o'simliklar (sabzi, karam) ham monokarpiklardir. O'z hayoti davomida ko'p yillar davomida mevalar hosil qiluvchi o'simliklar polikarpiklar (poli –ko'p) deyiladi. Ko'pchilik ko'p yillik o'simliklar polikarpiklardir (behi, shirinmiya, yantoq, goji va boshqalar).

Dorivor o'simliklarni ekologik omillarga nisbatan guruhlari.

Dorivor o'simliklarni namlikka, haroratga, tuproqqa va boshqa ekologik omillarga bo'lgan talablariga qarab ma'lum guruhlarga ajratish mumkin.

O'simliklar namlikka bo'lgan munosabatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1) Kserofitlar (kseros - quruq; fiton - o'simlik) - tuproq va havoda doimiy yoki vaqtinchalik suv tanqisligiga moslashgan o'simliklar.

2) Mezofitlar (mezos - o'rtacha) namlik yetarli bo'lgan joylarda o'sadigan o'simliklar.

3) Gigrofitlar (gigra - nam) tuproqda havo namligiga nisbatan ko'proq nam bo'lgan yerlarda o'sadigan o'simliklar.

4) Hidrofitlar (gidro-suv) suv muhitiga moslashgan o'simliklar. Bu o'simliklar suvga yarim botib yashaydilar.

5) Gidatofitlar – butun tanasi suvga botib yashovchi o'simliklar. Gidatofitlarga laminariya, elodeya, vallisneriya, suv ayiqtavonlari kabi o'simliklar kiradi. Bu o'simliklarning ba'zilarining ildizlari xovuzlarning tubidagi loylarda yopishib o'sadi, ba'zilar suvda suzib yuradi. Faqat gullash vaqtida to'pgullari suv yuzasiga chiqadi.

Gidatofitlarda gaz almashinish suvda erigan kislorodning kam bo'lganligi sababli qiyinlashadi. Suvni harorati qancha baland bo'lsa suvda shuncha kislorod kam bo'ladi. Shuning uchun gidatofitlarning organlarini yuzasi umumiy massasidan ko'p bo'ladi, ularning barglari juda yupqa bo'ladi. Masalan elodeyaning barglari faqat 2 qator hujayralardan tashkil topgan, ba'zi burglar ipsimon bo'laklarga bo'lingan ham bo'ladi. Epidermasida esa fotosintezga qatnashuvchi xloroplastlar mavjud. Epidermasida kutikula bo'lmaydi yoki juda yupqa bo'lib suvning kirib chiqishiga halaqit bermaydi. Shuning uchun suv o'simliklari, suvdan chiqazilganda suvini butunlayiga yo'qotib bir necha minutda qurib qoladi. Suv havoga nisbatan zichroq shuning uchun suv o'simliklarni ushlab turadi. Bu guruh o'simliklarining to'qimalarida yirik hujayra oraliqlari mavjud bo'lib gaz bilan to'lib yaxshi ko'rinadigan ayrenximani hosil qiladi. Shuning uchun suvda yashovchi o'simliklar suvda bema'lol botib yashaydi, ular hech qanday mexanik to'qimaga muhtoj emas. O'tkazuvchi naylari mutlaqo bo'lmaydi yoki juda sust rivojlanadi, ular suvni butun tanasi bilan shimadi.

Hujayra oraliqlari faqat suvda suzishini ta'minlabgina qolmasdan gaz almashinish joyi hamdir. Kunduzi fotosintez vaqtida ular kislorod bilan to'ladi, qorong'ida esa kislorod to'qimalarning nafas olishi uchun

sarflanadi, nafas olganda ajralib chiqqan karbonat angidridi tunda hujayra oraliqlarida to'planadi, kunduzi fotosintezga qatnashadi. Ko'pchilik gidatofitlar vegetativ yo'l bilan ko'payadilar.

Gidrofittlar esa tanasining bir qismi suvdan tashqarida, qolgan qismi suv qatlamida joylashgan o'simliklardir. Bu guruhga suv nilufarlari, g'ichchak, nayzabarg, suv ayiqtovoni, o'qbarq va boshqa suvda o'suvchi gulli o'simliklar kiradi. Ular yashash sharoitiga ko'ra suzib yuruvchi yuzasining katta bo'lishi, vegetativ organlarining shilimshiq parda bilan qoplanishi, mexanik to'qimaning kuchsiz rivojlanganligi, hujayraning havo bo'shliqlariga ega bo'lishi, qoplag'ich to'qimaning yaxshi rivojlanmaganligi, suv qatlamida yashaydigan turlarda og'izchalarning bo'lmasligi yoki og'izchaning suzuvchi barglarning faqat ustki tomonidagina bo'lishi, barg mezofilining ustunsimon va bulutsimon to'qimalarga ajralmasligi, ildiz tizimining kuchsiz taraqqiy etganligi kabi qator moslanishlarga ega bo'ladi.

Gidrofittlarning barcha organlarida hujayra oraliqlari mavjud bo'lib, suvga botib turgan organlarini kislorod bilan taminlaydi. Gigrofittlar tuproqda ortiqcha miqdorda namlik yoki suv bo'lgan sharoitda yashovchi o'simliklardir. Ular daryo va ko'l bo'yleri, botqoqliklarda, sernam o'rmonlar va tog'li hududlarda ko'p uchratiladi. Gigrofittlar ham ortiqcha namlik sharoitiga moslashgan gidrofittlar kabi xususiyatlarga ega bo'ladi. Mezofittlar o'rtacha namlik sharoitida yashovchi o'simliklar hisoblanadi. Bu ekologik guruhga ko'pchilik madaniy va yovvoyi holdagi o'simliklar kiradi. Mezofit o'simliklarning ildiz tizimi odatda yaxshi rivojlangan, barglari ko'pincha yirik, yassi, yumshoq, etsiz, to'qimalari o'rtacha rivojlangan bo'ladi. Bargining eti ikki xil to'qimaga ajralgan. Barglar ko'pincha tuksiz, og'izchalari odatda bargning ostki tomonida joylashgan. Suv sarfi og'izchalar orqali boshqariladi.

Kserofittlar qurg'oqchil sharoitda yashashga moslashgan o'simliklardir. Ular dasht, cho'l va chala cho'l zonalarida keng tarqalgan. Bu guruh o'simliklar tuproq va havoda namlikning tanqisligiga qarab turlicha moslashish belgilarini hosil qilgan. Bu moslamalar o'simlik tanasidan transpiratsiya jarayonida kam suv bug'latishga qaratilgan.

Kserofittlar morfologik jihatdan turli hayotiy shakllarga ega bo'lgan o'simliklar bo'lib, ular orasida bargli va poyali sukkulent o'simliklar ham uchraydi. Ular uzoq vaqt davomida o'z tanasida suv saqlab turishga moslashganlar. Ba'zi bir kaktuslar o'z tanasida 1-3

tonnagacha suv saqlashi mumkin. Bu guruh o'simliklari yana barglarini turlicha shakl o'zgartirib qisqartgan (bargsiz, mayda bargli, barg o'rniga tikonlarning hosil bo'lishi, ya'ni kladodii, fillokloidiy, fillodiyalar kabi). O'rta Osiyoning cho'llarida va boshqa yozi quruq, issiq bo'ladigan joylarda o'sgan juzg'un (*Calligonum*), saksovul n(*Haloxylon*), efedra (*Ephedra*) va boshqa ko'pgina butalarga barglarini qisqartirish xos hususiyatdir. Bu o'simliklarning qurg'oqchil sharoitga moslashish belgilaridan hisoblanadi. Kserofitlarning ko'pchiligining barglari dag'al qalin kutikulali bo'lib, sklerofitlar (yunon. skleros - dag'al) yoki sklerofillashgan o'simliklar deyiladi. Sklerofitlar (saksovul, yantoq, chalov, shuvoq, betaga) qurg'oqchilikka chidamli, ko'p yillik, dag'al, ko'pincha barglari reduksiyalashgan yoki tikanlarga, tangachalarga aylangan, qalin kutikula qavatiga va yaxshi rivojlangan mexanik to'qima ega bo'ladi. Bu o'simliklarning barglari va poyalari qalin tuklar (trixomalar) bilan qoplangan bo'ladi. O'simlikning anatomic tuzilishlari ularning transpiratsiyani kamaytirishga moslashganligini ko'rsatadi. Kserofitlarning anatomic tuzilishiga qarab ularning yashash joylari to'g'risida xulosa chiqazish mumkin.

Kseromorflik belgilari epidermada yaxshiroq ko'rinadi. Ularning tashqi hujayra po'sti qalinlashadi. Qalin kutikula epidermani ustiki tomonidan qoplab, og'izcha tirqishigacha kirib boradi.

2. Adir mintaqasi o'simliklari dunyosi.

O'simliklar qoplamining asosini rang va qo'ng'irbosh tashkil qiladi. Shuningdek, adir o'simlik qoplamida karrak (*Cousinia*), qo'ziquloq (*Phlomis thapsoides* Bunge), oq quray (*Cullen drupaceum* (Bunge) C.H.Stirt.) kabi o'tlar ham uchraydi. Adirda yog'ingarchilik serob kelgan yillari o'simlik turlari ancha boy hisoblanadi. Adirlarga xos turlar jumlasiga yaltirbosh (*Anisantha tectorum* (L.) Nevski), nuxatak (*Astragalus filicaulis* Fisch. & C.A. Mey. ex Kar. & Kir.), chitirlar (*Malcolmia grandiflora* (Bunge) Kuntze, *M. turkestanica* Litv.), karamashoq (*Leptaleum filifolium* (Willd.) DC.) va boshqalar kiradi.

Pastki adirda dorivor o'simliklardan Yetmak (*Acanthophyllum gypsophiloides* Rgl.), Qoqio't (*Taraxacum officinale* F.H. Web.), Mingbosh (*Convolvulus subhirsutus* Regel & Schmalh.), Isfarak (*Delphinium semibarbatum* Bien. ex Boiss.), Oqquray (*Psoralea drupacea* Bunge), Cho'lyalpiz (*Ziziphora tenuior* L.) uchraydi.

Yuqori adir tog' poyasiga yaqin bo'lganligidan baland qirlar, toshloq tuproqli yerlar, chala buta va buta o'simliklarning ko'pligi bilan tavsiflanadi. Mavjud adir tabiiy o'simliklaridan tartibsiz foydalanish

tufayli ayrim turlar soni juda kamayib ketgan. Faqat odam chiqishi qiyin bo'lgan qiyaliklarda, o'simliklar siyrak holda saqlanib qolgan. Yuqori adirlar uchun xos bo'lgan o'simliklardan quydagilar:

Bodomcha (*Prunus spinosissima* (Bunge) Franch.) – uning mag'zida moy ko'p bo'ladi, shuning uchun ham uni konditer sanoatida ko'p ishlatiladi. U xushbo'y, yoqimli hidli bo'lganligidan bir qancha qandolat mahsulotlariga qo'shib ishlatiladi. Bodomchaning mag'zida oz miqdorda zaharli modda – amigdalinalar bo'lib, u meditsinada ishlatiladi. Achchiq bodomni ko'p yeyish mumkin emas.

Ravoch (*Rheum maximowiczii* Losinsk.) – etli bandini xalqimiz iste'mol qiladi. Uning barg bandi va gulidan konditer sanoatida va sabzavot sifatida foydalaniladi. Ravochning ildizi oshlovchi tanid moddasiga boy bo'ladi. Undan dorilar tayyorlashda keng foydalaniladi.

Gazako't – (*Gentiana olivieri* Griseb.) – xalq tabobatida bezgak kasali va oshqozon-ichak hamda boshqa har xil kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

Gulxayri- (*Althaea rhyticarpa* Trautv.) va Andiz (*Inula grandis* Schrenk ex Fisch. & C.A.Mey.) larning yo'g'on ildizlarida karbon suvlari, inulin moddasi va efir moyi ko'p bo'ladi. Undan turli shirinliklar tayyorlashda, asosan texnik spirt olishda ishlatiladi.

Adir mintaqasida sug'oriladigan yerlar va madaniy ekinlar maydoni ham anchagina bor. Bu mintaqada O'zbekistonning asosiy lalmikor yerlari hisoblanadi. Ko'pgina tekis adirlarda arpa, bug'doy va suli ekiladi. Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Navoiy viloyatlarining adir hududlaridan qorako'lchilikda yaylov sifatida, bundan tashqari lalmi dehqonchilik, qisman shartli sug'oriladigan mevachilik, uzumchilik ekinzorlari sifatida ham foydalaniladi.

Adir mintaqasida tarqalgan dorivor o'simliklarning oilalari va vakillari.

Apiaceae – Ziradoshlar – Сельдерейные.

Daucus carota L. – Yovvoyi sabzi – Морков дикая.

Coriandrum sativum L. – Ekma kashnich – Кориандр посевной

Apium graveolens L. – Xushbo'y qarafs – Селдерей пахучий

Elwendia persica (Boiss.) Pimenov & Kljuykov – Zira – Эльвендия персидская.

Carum carvi L. – Qora zira – Тмин обыкновенный

Pimpinella peregrina L. – Xashaki arbabodiyon – Бедренец чужестранный.

Capparaceae – Kovuldoshlar - Каперсовые

Capparis spinosa L. – Tikonakli kovul – Каперс колючий.

Fabaceae – Бурчокдошлар – Мотыльковые.

Sophora pachycarpa Schrenk ex C.A.Mey. – Eshakmiya – Софора толстоплодная.

Thermopsis alterniflora Regel & Schmalh. – Afsonak – Термопис очередноцветковый.

Melilotus officinalis (L.) Lam. – Dorivor qashqarbeda – Донник лекарственный

Cullen drupaceum (Bunge) C.H.Stirt. – Okkuray – Псоралея костянковая.

Alhagi pseudalhagi (M.Bieb.) Desv. ex Wangerin – Soxta yantoq – Верблюжая колючка, Янтак ложный.

Polygonaceae – Torondoshlar – Гречишные

Rheum maximowiczii Losinsk. – Maksimov rovochi - Ревень Максимовича.

Ranunculaceae – Ayiqtovondoshlar – Лютиковые.

Ranunculus cantoniensis DC. – Kanton ayiqtovoni – Лютик кантонский.

Tog' mintaqasi dorivor o'simliklari asosiy oilalari va vakillari.

Rosaceae – Ra'nodoshlar – Розоцветные.

Prunus bucharica (Korsh.) Hand.-Mazz. (*Amygdalus bucharica*) – Achchiq bodom – Горкий миндаль

Sorbus tianschanica Rupr. – Tyanshan chetani – Рябина тяньшаньская

Prunus griffithii var. *tianshanica* (Pojark.) Ingram (*Cerasus tianschanica*) – Tiyon Shon chiyasi, govchiya – Вишня тяньшанская

Crataegus turkestanica Pojark. — Turkiston do'lanasi, qizil do'lane - Боярышник туркестанский

Crataegus pontica – Pontik do'lanasi – Боярышник понтийский

Rosa beggeriana Schrenk – Begger na'matagi – Шиповник Бергера

Fabaceae - Burchoqdoshlar- Бобовые

Caragana alaica Pojark. – Oloy qorag'ani – Карагана алайская

Calophaca tianschanica (B. Fedtsch.) Boriss. – Tiyon Shon moyqorag'ani - Майкараган тяньшанский

Cicer flexuosum Lipsky – Burama po'xat – Нут извилистый

Rhamnaceae – Жумрутдошлар – Крушиновые

Rhamnus coriacea (Regel) Kom. – Teribarg tog‘jumrut – Жостер
кожистостлистный

Ziziphus jujuba Mill. – Oddiy chilonjiyda – Унаби
обыкновенный

Oleaceae – Zaytundoshlar – Маслиновые

Fraxinus sogdiana Bunge – Sug‘d qorashumtoli, shumtol – Ясень
согдийский

Berberidaceae – Zirkdoshlar – Барбарисовые

Berberis integerrima Bunge – Butunbargli zirk, qizil zirk –
Барбарис цельнокрайний

Ephedraceae – Zog‘ozadoshlar – Хвойниковые

Ephedra equisetina Bunge – Qirqbo‘g‘imsimon zog‘oza –
Хвойник хвощевый

Papaveraceae – Ko‘knoriguldoshlar – Маковые

Glaucium elegans Fisch. & C.A.Mey. – Bejirim o‘rmonqora –
Глауциум изящный

Araceae – Kuchaladoshlar – Ароидные

Arum korolkovii Regel – Korolkov kuchalasi – Аронник
Королькова

Betulaceae – Qayindoshlar – Березовые

Betula pendula Roth – Coqolchali qayin – Береза бородавчатая

Campanulaceae – Qo‘ng‘iroqguldoshlar – Колокольчиковые

Codonopsis clematidea (Schrenk) C.B. Clarke – Qoraqurt, dug‘voy
– Кодонопсис ломоносовидный

Lamiaceae – Yalpizdoshlar – Губоцветные

Leonurus turkestanicus V.I. Krecz. & Kuprian. – Turkiston
arslonqulog‘i – Пустырник туркестанский

Hyssopus serawschanicus (Dubj.) Pazij – Zarafshon issopi – Иссоп
заравшанский

Asteraceae – Qoqio‘tdoshlar – Сложноцветные

Tussilago farfara L. – Oddiy oqqaldirmoq – Мать-и-мачеха
обыкновенная

Datiscaceae – Datiskadoshlar – Датисковые

Datisca cannabina L. – Nashasimon datiska – Датиска
коноплевая

Brassicaceae – Karamguldoshlar – Крестоцветные

Erysimum repandum L. – Kengo‘yiqli chitrong‘i – Желтушник
широковымчатый

Lepidium perfoliatum L. – Teshikli torol – Клоповник пронзенный

Malvaceae – Gulxayridoshlar – Мальвовые

Althaea broussonetiifolia Iljin – Brussoniyabarg gulxayri - Алтей бруссоцеилистный

Althaea cannabina L. – Kanopsimon gulxayri – Алтей коноплевый

Althaea officinalis L. – Dorivor gulxayri – Алтей лекарственный

To‘qay landshaftlarida joylashgan qo‘riqxonalar – Bodayto‘qay, Qizilqum, Zarafshon, Payg‘ambarorol – asosan daryo qayirlari va deltalaridagi o‘simlik va hayvonot olamini muhofaza qilishga xizmat qiladi.

To‘qayzor dorivor o‘simliklarining asosiy oilalari va keng tarqalgan vakillari.

Berberidaceae – Zirkdoshlar – Барбарисовые

Berberis nummularia Bunge – Tangasimon bargli zirk - Барбарис монетный

Ranunculaceae – Ayiqtovondoshlar - Лютиковые

Clematis orientalis L. – Sharq ilono‘ti, ilonpechak - Ломонос восточный

Amaranthaceae – Gultojixo‘rozdoshlar – Амарантовые

Suaeda physophora Pall. – Shishgan mevali qorabarg o‘t – Сведа вздутоплодная

Anabasis brachiata Fisch. & C.A. Mey. – sindriya anabazis, sindirim– Ежовник канделяберный

Primulaceae – Navro‘zguldoshlar – Первоцветные

Lysimachia dubia Sol. – Shubxali lizimaxiya – Вербейник сомнительный

Lysimachia vulgaris L. – Oddiy lizimaxiya – Вербейник

Rosaceae – Ra“noguldoshlar – Розоцветные

Potentilla supina L. – Pastbo‘yli g‘ozpanja – Лапчатка низкая

Lythraceae – Tolbarg – Дербенниковые

Lythrum salicaria L. – Tolbarg litrum – Дербенник иволистный

Onagraceae – Qizilbargdoshlar – Ослинниковые

Epilobium hirsutum L. – Tukli qizilbarg – Кипрей волосистый

Fabaceae – Burchoqdoshlar - Бобовые

Glycyrrhiza glabra L. – Shirinmiya –Солодка голая, солодка обыкновенная

Glycyrrhiza uralensis Fisch. ex DC. – O‘rol shirinmiyasi –
Солодка уральская

Alhagi persarum Boiss. & Buhse – Fors yantog‘i – Верблюжья
колючка персидская

Alhagi pseudalhagi (M. Bieb.) Desv. – Soxta yantoq –
Верблюжья колючка ложная

Elaeagnaceae – Jiydadoşlar – Лоховые

Elaeagnus angustifolia L. – Uzunbarg jiyda – Лох узколистый

Asteraceae – Qoqio‘tdoshlar – Сложноцветные

Artemisia absinthium L. – Achchiq shuvoq – Полынь горькая

Artemisia annua L. – Bir yillik shuvoq – Полынь однолетняя

Gentianaceae – Gazako‘tdoshlar – Горечавковые

Centaurium pulchellum (Sw.) Druce – Chiroyli ming tillachi –
Золототысячник красивый

Solanaceae – Ituzumdoshlar – Пасленовые

Lycium dasystemum Pojark. – Tukchangchi jingil, oq jingil –
Дереза волосистотычинковая

Lycium depressum Stocks – Qisilgan qorajingil – Дереза
прижатая

Lycium ruthenicum Murray – Rus qorajingili, jingil – Дереза
русская Обыкновенный

Nazorat savollari.

1. Dorivor o‘simliklarning hayotiy shakllari?
2. O‘rta Osiyoning cho‘llarida keng tarqalgan dorivor o‘simliklar?
3. Tuganak hosil qiluvchi o‘simliklar dorivor o‘simliklar?
4. Dorixonalar tizimida va farmatsiya sanoati uchun tayyorlanadigan o‘simliklar?
2. O‘zbekistonda yovvoyi holda o‘sadigan dorivor o‘simliklardan tibbiyotda foydalanish uchun tavsiyalar?
3. O‘zbekistonda yig‘ib olinishi mumkin bo‘lgan dorivor o‘simliklar?
4. Ekish uchun tavsiya etiladigan dorivor usimliklar?
5. Adir mintaqasini cho‘l mintaqasidan farqli jihatlarini izohlang.
6. Adir sharoitida yashashga moslashgan o‘simliklarning ildiz tizimi tuproqni qancha chuqurlik qatlamida joylashadi?
7. Adir mintaqasi tuproqlari tarkibida qancha gumus saqlaydi?.
8. Pastki adirlarda keng tarqalgan dorivor o‘simliklarga

misollar keltiring.

9. Yuqori adirlarda tarqalgan dorivor o'simliklarga tavsif bering.

10. Adirda eng keng tarqalgan o'simlik turlari qaysilar?

11. Kovul va dorivor gulxayrini uchrash joyini tavsiflang.

12. Rovocho'simligini dorivorlik xususiyatini tariflang.

13. Tikonli kovul g'unchalari qaysi maqsadlarda terilmoqda?

14. Oqquray o'simligidan farmatsevtikada qanday maqsadlarda foydalanilmoqda?

15. Tog' mintaqasini tuproq-iqlim sharoitini tavsiflang.

16. Tog' mintaqasining dominant o'simliklar qaysilar?

17. Tog' va yaylov mintaqalarini tuproqlarida qanday farqlar kuzatiladi?

18. Pastki tog'larda keng tarqalgan dorivor o'simliklarga misollar keltiring.

19. Yuqori tog'lardagi dorivor o'simliklarni sanang.

20. Yaylovlarda keng tarqalgan dorivor o'simlik tug'risida ma'lumot bering.

21. Zirk va arslonquyruq tarqalgan hududlarni izohlang.

22. O'rikarcha, y erqo'noq va sug'ur o'tning o'sadigan joylarni ekologik sharoitiga ta'rif bering.

23. To'qay mintaqasini o'ziga xos xususiyatlarini sanang.

24. To'qay mintaqasida yashashga moslashgan o'simliklarning namlikka bo'lgan talabi qanday ta'minlanadi?

25. To'qay mintaqasida keng tarqalgan daraxtsimon o'simlik turlarini sanab o'ting.

26. To'qaylarda keng tarqalgan dorivor o'simliklarga misollar keltiring.

27. To'qay tabiat komplekslari qayyorlarda tarqalganligi to'g'risida ma'lumot bering.

28. To'qaylarda keng tarqalgan dorivor o'simlik oilalari to'g'risida nimalarni bilasiz?

XV BOB. QIZIL KITOBGA KIRITILGAN DORIVOR O'SIMLIKLAR VA ULARNI MUHOFAZA QILISH.

O'zbekiston florasida juda boy bo'lib, gulli osimliklarning 4500 turi malum, ularning 577 taga yaqini dorivor o'simliklardir. Shulardan 120 tasidan hozirgi kunda tibbiyotda keng qo'llanilib kelinmoqda. O'zbekistonda tarqalgan o'simliklarning 10-12% muhofaza qilishga muhtoj o'simliklar hisoblanadi. So'ngi yillarda bu o'simliklardan nato'g'ri foydalanish va ayovsiz yig'ib olinishi va qarovsiz qolganligi sababli turlar soni kamayib, yo'qolib ketish arafasiga kelib qolgan. Bunday o'simliklarni himoyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi tasis etilgan bo'lib, bu kitobga 4 ta kategoriya bo'yicha o'simliklar kiritiladi.

1. Yo'qolgan yoki yo'qolib ketganligi ehtimoldan yiroq emas. Bir necha yillar davomida tabiatda uchratilmagan, lekin yig'ib olish qiyin bo'lgan ayrim joylardagina yoki madaniy sharoitda saqlab qolish ehtimoli mavjud bo'lgan turlar.

2. Yo'qolib ketish arafasida turgan. Yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan, saqlab qolinishi uchun maxsus muhofazani talab etadigan turlar.

3. Kamyob. Ma'lum kichik maydonlardagina o'ziga xos sharoitlarda saqlab qolingan, ammo tez yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan va jiddiy nazoratni talab etuvchi turlar.

4. Son jihatdan kamayib borayotgan. Soni va tarqalgan maydonlari ma'lum vaqt ichida tabiiy sabablarga ko'ra yoki inson omili ta'siri ostida kamayib ketayotgan turlar. Ayni vaqtda, bunday o'simliklarni har tomonlama nazoratga olish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi 1984-yilgi birinchi nashrida 163 tur o'simlik kiritilgan bo'lsa, 1998-yildagi nashrida bu o'simliklar soni 301 taga 2019-yildagi yangi nashrda bu raqamlar 314 taga yetdi. Bundan ko'rinib turibdiki, so'ngi yillarda hududimizdagi o'simliklarning maydonlari va turlari kamayib bormoqda. So'ngi o'n yillik natijalar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston hududida muhofazaga muhtoj yana 138 ta o'simlik turlari aniqlandi. O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasining izlanishlari natijasida O'zbekistonda uchraydigan chiroyli gullari bilan dunyoga mashhur lola va sallagullarning piyozlari bilan ayovsiz o'rib olinishi natijasida turlar soni keskin kamayib ketganligi aniqlandi. Xalq tabobatida va tibbiyotda keng qo'llaniladigan qimmatbaho dorivor o'simliklar hisoblangan yetmak, buzulbang, kovrak, shirinmiya, kovul kabi o'simliklar soni ham xom

ashyo bazasi ham sezilarli kamaydi. Bundan tashqari *Buxoro otostegiyasi*, *yirik giliostrovskiya*, *Minkivits teziumi* kabi relikt turlar yo'qolib ketish arafasiga kelib qoldi.

Dorivor o'simliklardan olinadigon moddalar hozirgi paytgacha sun'iy ravishda sintezlanmagan bo'lib, faqat tabiiy usulda o'simliklardan ajratib olish mumkin. Bunday o'simliklar sonining kamayishi esa farmakalogiya xom ashyo bazasida kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Insonlarning o'simliklardan nato'g'ri foydalanishi natijasida esa bunday o'simliklar tobora kamayib bormoqda. Qizil kitobning yangi nashrida 20 dan ortiq dorivor o'simliklar turlari kiritilgan bo'lib, ularning hammasi ham tarkibi jihatdan juda foydali hisoblanadi. Ularning tarkibida efir moylari, alkaloidlar, karotinlar flavanoidlar, kumarinlar va barcha turdagi vitaminlar mavjud.

O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan ayrim dorivor o'simliklar to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Kovrak (*Ferula*) o'simligi Ziradoshlar oilasiga mansub, ko'p yillik o'simlik. Yer yuzida bu o'simlikning 160 dan ziyod turi tarqalgan. Bo'yi 1 metrga yetadigan, poyasi tik, yo'g'on, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi bargli bandli, 3 bo'lakli, poyadagilari maydaroq, poyada ketma-ket joylashgan. Gullari soyabon to'pgulda joylashgan. Kovrak monokarp o'simlik bo'lib, 7-8 yilda bir marotaba gullab, urug' beradi (14-rasm).



14-rasm. Kovrak (*Ferula*)

Kovrak ildizi tarkibida havoda qotib qoladigon asafetida va efir moylari saqlaydi. Asfetidaning tarkibidan ferfulat kislota, qatron spirtlar,

kumarinlar ajratib olingan. Efir moyidan esa sulfidlar, kumarin va boshqa moddalar borligi aniqlangan. Ildiz tarkibida kraxmal ham bor.

Kovrak ildizidan olingan yelimdan asab sistemasi kasalliklarida, o'pkadagi shamollash astma, ko'k yo'tal, sil, zaxm kasalliklarida foydalaniladi. Kovrakdan tayyorlangan galen pereparatlari esa arterial bosimni pasaytiradi, kapillyar qon tomirlari mo'rtligini bartaraf etadi. Ildizidan tayyorlangan damlama har qanday og'riqni qoldirish xususiyatiga ega. Hozirgi kunda kovrakning ildizi bilan ayovsiz o'rib olinishi natijasida, kovrakning tabiiy tarqalgan hududlari keskin kamayib ketdi. Chunki kovrakning ildizi bilan sug'urib olingan joydan boshqa kovrak unib chiqmaydi bu esa, kovrak o'simligining soni kamayishiga yana bir sabab hisoblanadi.

Tibbiyotda qo'llanilishi. *Ferula* turkumi turlari o'zida shira, efir moyi, ildizlarida esa ko'p miqdorda uglevod va oqsil moddalari saqlaydi. Turkumning alohida turlari qadimdan dorivor o'simlik sifatida ma'lum bo'lib, o'rta asrlardan buyon tabiblar tomonidan foydalanib kelingan. Zamonaviy farmakognostikada *Ferula* turkumi turlarining shirasi gummi shiralar ichida efir moyi aralashmasi tufayli—dorixona shirasit nomli guruhga kiradi.

Abu Ali ibn Sino o'zining davolash amaliyotida kovrakdan teri kasalliklari (pes), sil, bo'g'im og'riqlari, parazitlarga qarshi, oshqozon ichak yallig'lanishi va organizm uchun zararli bo'lgan tuz va ovqat qoldiqlaridan tozalashda foydalangan.

Shunday qilib, tojik kovragidan xalq tabobatida foydalanish ko'p asrlik tarixga ega. *F. tadshikorum* xom-ashyosi uzoq yillardan buyon bo'g'imlarning yallig'lanishida va bo'g'im og'riqlarida og'riq qoldiruvchi sifatida foydalanib kelinadi. Sil, ekssudativ diatez, otit, limfadenit kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi va tomir tortishiga qarshi vosita sifatida dorivor o'simlik yig'malari tarkibiga kiritilgan.

Ayrim manbalardan ma'lumki, o'simlik bargini qatiq bilan aralashtirilganda, xavfli shish va zaxm kasalliklarida ijobiy ta'sir etadi.

O'rta Osiyo xalqlari tojik kovragi shirasini gijja tushirish, insektitsid va tomir tortishiga qarshi hamda ayrim asab va virusli kasalliklarida foydalanishadi. Bundan tashqari, shiradan meteorizm, ichaklarning bo'shashishi (gomeopatiya terapiyasida ham xuddi shu kasallik belgilarida) kasallik belgilarida galen preparati sifatida qo'llaniladi. Ko'pchilik sharq davlatlarining xalq tabobatida (Hindiston, Pokiston, Eron va Afg'oniston) tojik kovragi qatron yelimi tegishli

miqdorlarda ovqatga qo'shish orqali organizmning mustahkamligini oshiruvchi, og'riq qoldiruvchi, oshqozon va ichaklar yarasiga qarshi vosita sifatida ishlatiladi.

Yetmak (*Acanthophyllum*)- Schischk. *Caryophyllaceae* oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Poyasi kuchli shoxlangan, qisqa tuklangan yoki silliq. Poyalarining ko'p sonli shoxlanishi tufayli o'simlik sharsimon shaklga ega, balandligi va diametri deyarli bir xil 70-80 sm ga yetadi. Barglari qarama-qarshi bo'lib, uzunligi 3 sm gacha va eni 0,5 sm gacha, tekis, deyarli chiziqli yoki chiziqli-lansetsimon, uchi o'tkirlashgan. Gulyonbarglar qarama-qarshi, bigizsimon, silliq, kosachabarglardan 2-3 baravar kaltaroq. Gullari poyalar va novdalarning uchki qismida bo'sh, ayrisimon-shoxlangan, keng ro'vak to'pgullarda joylashgan. To'pgulning har bir ayri qismidagi o'rta gullari deyarli o'troq, qolgan 2 tasi uzun ipsimon gulbandli. Kosachabarglari besh bargli, silindrsimon, silliq, uzunligi 2 mm ga yaqin; 5 ta pushti gultojibarglardan iborat, tugunchasi bir uyali, changchilari 10 ta. Mevasi – yaxshi ochilmaydigan, pardasimon, 1-2 urug'li kosachabarglari saqlangan ko'sakdan iborat. Urug'lari och jigarrang, deyarli sharsimon, yon tomonlaridan biroz yassilangan, avgust oyining boshlarida pishadi, ammo kuzgacha to'kilmaydi. Ildizi o'q ildiz, ba'zan urchuqsimon, buralgan, uzunligi 2 m gacha va undan ortiq, vazni 12 kg gacha. O'q ildizidan bir nechta marta shoxlangan yon ildizlar tarqaladi. Yetmak ildizlari qazib olingandan keyin qayta tiklanish qobiliyatiga ega emas, shuning uchun xom ashyo yig'ilgandan so'ng bu o'simlikning tabiiy zich o'sish maydonlari qayta tiklanmaydi.

Yetmak faqat O'rta Osiyo tog'larida quyi tog' mintaqasidan o'rta tog' mintaqasigacha uchraydi. Janubda u Hisor tizmasida tarqalgan. Sharqiy chegara G'arbiy Tiyon-Shon bo'ylab, g'arbiy chegara esa tog'li Turkmaniston bo'ylab o'tadi. Yetmakning zich o'sgan maydonlari asosan efemer o'simliklari, vegetatsiyasi uzoq davom etuvchi chuqur ildizli ko'p yillik o'simliklar va yarim butalar jamoalarida, quyi tog' va o'rta tog' mintaqalarida o'tloq-dasht va daraxt-buta o'simliklari orasida uchraydi.

Kimyoviy tarkibi: Ildizlarda 10-30% triterpen saponinlari mavjud bo'lib, ulardan gipsogenin, akantofillazid B va akantofillazid C glikozidlari ajratib olingan. O'simlikning yer usti qismlarida ham ko'plab saponinlar mavjud. Mahalliy aholi ko'pincha ildizidan «nishollo» shirinligini tayyorlashda foydalaniladi – go'yoki qalin ko'pikli oq suyuqlik insonga quvvat beruvchi vosita deb hisoblaniladi.

Tibbiyotda qo'llanilishi: Yetmak xom ashyosi (bex) oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish, mo'ynachilik, to'qimachilik, bo'yoq va parfumeriya sanoatida qo'llaniladi. Xalq tabobatida ildiz damlamasi bronxit va boshqa nafas yo'llari kasalliklarini balg'am ko'chiruvchi sifatida, o't haydovchi, siydik haydovchi, ich suruvchi vosita sifatida qo'llaniladi (1 choy qoshiq maydalangan ildiz ustiga bir stakan sovutilgan qaynatilgan suv quyiladi, 8-10 soat damlanadi va kun davomida ichiladi).

Yetmak qaynatmasi sovun kabi ko'piklanganligi sababli o'simlik kundalik hayotda «sovunli ildiz» deb nomlanadi. Ba'zida oshqozonichak, teri (piodermiya, ekzema, furunkullarda, tangasimon lishayda), siydik-tanosil va taloq, jigar, buyrak kasalliklarida va moddalar almashinuvi buzilganda ildizlari choy sifatida damlanib ichiladi. O'simlikning yer usti qismining damlamasi ich suruvchi va balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Biroq so'nggi yillarda Yetmakning zich o'sgan maydonlari sezilarli darajada qisqarganligi bu turni O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritish uchun asos bo'lgan.

Bozulbang-Lagochilus inebrians ko'p yillik bo'yi 20-60 sm ga yetadigan asosiy ildizga ega bo'lgan o'simlik. Asosiy ildizning uzunligi 25-35 sm. Poyasi sershox, ko'tariluvchi, asos qismi yogochlashgan, to'rt qirrali bo'lib, qattiq bezli tuklar bilan qoplangan. Bargi oddiy, uch-besh bo'lakka bo'lingan, poyada va shoxlarida bandi bilan qarama-qarshi joylashgan. Yashil barglarning uzunligi 2-3 smni tashkil etadi. Gullari pushti rangli bo'lib, poyada va shoxlarida yarim halqa shaklida o'rmashtan. Mevasi 4 ta jigarrangli yong'oqcha bo'lib, iyun-sentyabr oylarida gullaydi. *L.inebrians* o'simligini mevasini yig'ib olish vaqti iyul avgust oylari hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu o'simlikning ontogenezini o'rganish orqali uning umr ko'rish davomiyligi kamida 25 yilni tashkil qilishi aniqlangan. Senopopulyatsiyalarning o'z-o'zini saqlashi faqat urug' bilan sodir bo'ladi. Turli xil ekologik va fitosenotik yashash sharoitlarida *L.inebrians* senopopulyatsiyalarining ontogenetik tuzilishini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, barcha senopopulyatsiyalar spektri o'rta yoshdagi generativ individlarda eng yuqori natijani beradi. Mahalliy aholi tamonidan uning asosan bargi va gullari yig'ib olinadi. Tabiiy yashash sharoitlarida *L.inebrians* faqat urug' bilan ko'payadi. Urug'lar fevral oyining o'rtalarida mart oyining boshida unib chiqadi. Nihollarning unib chiqishi 26% dan oshmaydi.

Bahorgi sel paytida tuproqning yuqori qismi yuvilib ketishi natijasida *L.inebrians* urug'larining qayta tiklanishida tartibsizlikning yuzaga kelishi, urug'larning unib chiqishiga to'sqinlik qilishi, o'sishning nobud bo'lishi bilan bog'liq. Bu o'simlik senopopulyatsiyasining umumiy maydoni 4-5 gektardan oshmaydi. Unda o'rganilayotgan turlarning individlari soni 400-500 ga yaqin namunani tashkil etadi, ularning barchasi generativ va postgenerativ ontogenetik holatda bo'lib, quruq oqim bo'ylab o'sishga moslashgan. O'rta va keksa generativ o'simliklar tuproqqa chuqur kirib boradigan kuchli ildiz tizimi tufayli saqlanib qoladi.

L.inebrians o'simligining kimyoviy tarkibida vitamin K, 0,6-1,97 % lagoxilin, 0,67 % flavonoid glikozidlari, 44-77 mg % askorbin kislota, 6-7 % organik kislotalar, 5-10 mg % karotin, 9,66-12,42 % smola, 2,58-2,78 % oshlovchi va boshqa moddalar hamda kalsiy va temir tuzlari bo'ladi. *L.inebrians* bargi tarkibida lagoxilin, 0,03 % efir moyi, 11-14 % oshlovchi moddalar, organik kislotalar, 7-10 mg % karotin va 77-100 mg % gacha vitamin C bo'ladi.

*Lagochilus inebrians*ning to'qimalaridan ajratib olingan faol fiziologik birikma diterpenoid, tetragidrik spirt - lagoxilin va uning suvda juda yomon eriydigan asetil hosilalari olingan bo'lib, kimyo va farmakologiyada eng muhim substansiya sifatida ishlatiladi. Uning asosida tomir ichiga va og'iz orqali yuborish uchun bir qator gemostatik preparatlar yaratilgan. Bundan tashqari, gemostatik gel, salftokalar, kollagen plyonkasi shaklida dozalash shakllari yaratilgan. *Lagochilus* o'simliklarining infuzioni va damlamasi ishlatilishi ma'lum.

Lagochilus preparatlariga talab yildan-yilga ortib bormoqda, ayni paytda yovvoyi holda o'sadigan lagoxilusning tabiiy zahiralari keskin kamayib bormoqda. 1962-1963 yillarda O'zbekistonda bu o'simlikni urug'ini ekish orqali yetishtirishga harakat qilingan. O'zbekiston Respublikasi Navoiy viloyatining tog' oldi rayonlarida yetishtirilgan namunalarida lagochilin miqdori yovvoyi o'simliklarnikiga nisbatan 17-20 foizga yuqori ekanligi ko'rsatilgan. Yovvoyi holda o'sadigan lagoxilusning urug'lanishi 22 dan 45% gacha ko'rsatilgan. Biroq, bu noyob dorivor o'simlikni hozirgi kunda biotexnologik usullar asosida keng maydonlarda o'stirish va ko'paytirish texnologiyasi joriy qilinmoqda.

Viktor omonqorasi - *Ungernia victoris* Vved. — Унгерния Виктор. Janubi-g'arbiy Pomir-Oloy tizmasidagi areali juda qisqarib borayotgan kamyob endemik o'simlik

Qisqacha tavsifi: Bo'yi 20–25 sm ga etadigan ko'p yillik, piyozli o't. Piyozining eni 4–7 sm, qoramtirqo'ng'ir rangli, ko'p qavatli qobiqlar bilan o'ralgan. Barglari 7–10 ta, qalami, ko'kimtir, silliq. Gulpoyasi avgust oyida barglari qurib ketgandan so'ng o'sib chiqadi. To'pguli soyabonsimon, 4–7 gulli. Ko'sakchasi keng yuraksimon pallali. Avgust oyida gullab, mevasi sentyabrda yetiladi

Tarqalishi: Surxondaryo viloyati: Hisor tizmasida, Cho'lbayir tog'larida, Xonaqasuv daryosining yuqori qismlarida tarqalgan. Arealining shimoliy chegaralari Qo'shtut, Sho'ra, Xonaqa dovonlari, janubda esa Bobotog'ning shimoliy yonbag'irlari orqali o'tadi. Tojikistonda ham uchraydi.

O'sish sharoiti: Tog'larning o'rta qismida mayda zarra jins tuproqli yonbag'irlar, daralar va ba'zan surilmalarda o'sadi.

Soni: Bir-biridan uzoq masofalarda joylashgan, uncha kata bo'lmagan (1–1,5 ga) maydonlarni egallaydi. Umumiy maydoni taxminan 350 ga yetadi.

Ko'payishi: Urug'idan va piyozidan ko'payadi.

O'simliklar soni va arealining o'zgarish sabablari: Uzluksiz dorivor xom ashyo sifatida yig'ib olinishi.

Madaniylashtirish: O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobida (2019) 1970 -yildan tabiiy arealiga yaqin joylarda ekib o'stirila boshlandi deb yozilgan bo'lsada, aniq o'stirilayotgan manzili keltirilmagan. F.N. Rusanov nomidagi Toshkent botanika bog'ida mavjud.

Muhofaza choralari: Tabiatda saqlanib qolgan maydonlari nazorat qilinishi, ruxsatsiz yig'maslik talab etiladi. Shuningdek, madaniy sharoitda o'stirish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilishi lozim. Cho'lbayir tog'ida tabiiy holda o'suvchi omonqoralarni saqlab qolish va urug'ini terish uchun buyurtmaxona tashkil qilinishi kerak.

Yovvoyi anor – *Punica granatum* L. – Гранат обокновенный. O'zbekistonda tabiiy holda juda kam saqlanib qolgan, areali bo'lingan relik tur.

Qisqacha tavsifi: Bo'yi 2 m ga etadigan buta. Bargi cho'ziq, teskari tuxumsimon, uzunligi 6–8 sm, eni 7–15 mm, charmsimon, qisqa shoxlarda to'p-to'p, uzun shoxlarda esa qarama-qarshi o'rnavgan. Guli kalta novdalarda joylashgan. Kosachasi qayishsimon mustahkam, tojbargi och qizil rangda. Mevasi yumaloq, yirik. May– avgustda gullab, sentyabr–oktyabr oylarida meva beradi

Tarqalishi: Surxondaryo viloyati Hisor tog'ining janubi-g'arbiy qismida To'palang, Sangardak daryolari havzalarida tarqalgan. Tojikiston, Turkmaniston, Kavkazorti, Turkiya, Shimoliy Eron, Afg'onistonda ham uchraydi.

O'sish sharoiti va ekologiyasi: Tog'ning o'rta qismida— dengiz sathidan 1000–1600 m balandlikdagi salqin va nam daralarda o'sadi.

Ko'payishi: Urug'idan va ildiz bachkisidan ko'payadi.

O'simliklar soni va arealining o'zgarish sabablari: Anorzorlarning buzib yuborilishi va mevalari pala-partish yig'ib olinishi tufayli kamayib bormoqda.

Madaniylashtirish: Anor insonlar tomonidan 4000-yildan buyon etishtirib kelinadi.

Muhofaza choralari: Maxsus muhofaza choralari ishlab chiqilmagan.

Talas parpisi, oq parpi – *Aconitum talassicum* Popov – Аконит таласский. Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizmasidagi son jihatdan qisqarib borayotgan, areali bo'lingan endemik o'simlik.

Qisqacha tavsifi: Bo'yi 1,5 m ga yetadigan, ko'p yillik, tugunak ildizpoyali o't. Ildizpoyasi tugunaklarning yonma-yon qo'shilishidan hosil bo'lgan. Poyalari oddiy, tik o'suvchi. Poyaning yuqori qismidagi barglari bandsiz, qolganlari bandli, yaprog'i asosigacha yirik tishli bo'laklarga ajralgan. Yorqin ko'kimtir rangli gullari poyaning yuqori qismida yirik shokila hosil qiladi. Iyun–iyulda gullab, mevasi iyul–avgust oylarida yetiladi.

Tarqalishi: Toshkent, Farg'ona, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari: Piskom, Chotqol, Qurama, Farg'ona, Turkiston, Zarafshon, Hisor tizmalarida tarqalgan. Tojikistonda, Qozog'iston va Qirg'izistonda ham uchraydi

O'sish sharoiti: Tog'larning o'rta va yuqori qismlaridagi nam yerlarda va yonbag'irlardagi buloqlarning atroflarida o'sadi. Ba'zan buloq bo'ylarida kichik butazorlar hosil qiladi.

Ko'payishi: Urug'idan ko'payadi.

Soni: Butun areali bo'ylab bir-biridan ancha uzoq joylashgan uncha katta bo'lmagan to'plar hosil qiladi.

O'simliklar soni va arealining o'zgarish sabablari: Xalq tabobatida dorivor o'simlik sifatida ishlatiladi.

Madaniylashtirish: Bir necha yillar davomida O'zbekiston Respublikasi FA Botanika bog'ida o'stirilgan.

Muhofaza choralari: O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobida (2019-y.) Chotqol, Zomin qo'riqxonalarida, Ugom-Chotqol va Zomin milliy tabiat bog'larida o'stiriladi deyilgan, ammo tabiiy tarqalgan areallari mavjud deyilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Komarov bo'zboshi -*Dracocephalum komarovii* Lipsky - Змееголовник Комарова. G'arbiy Tyan-Shan va Pomir Oloydagi areali bo'lingan, kamayib borayotgan endemik o'simlik.

Qisqacha tavsifi: Bo'yi 10–20 sm oralig'idagi ko'p yillik o't. Bargi uchburchak-tuxumsimon, uchi o'tkir, asosi yuraksimon, chetlari tekis, qalin, qisqa tukli, qisqa bandli, yuqoridagilari bandsiz. Poyasi ko'p, pastki qismi yog'ochlanuvchan, tik yoki biroz qiyshaygan. Guli poyaning yuqori qismidagi barglarning qo'ltig'ida bittadan qisqa bandlarda o'rnanishgan. Tojbargi sariq. Iyul–avgustda gullab, mevasi avgust–sentyabrda yetiladi.

Tarqalishi: Toshkent va Namangan viloyatlaridagi Chotqol tizmasi (Qizilnura tog'i, Maydontol va Qorabuloq daryolari vohalari hamda Orashon dovoni), Qurama tizmasi (Lashkarak, Gushsoy)da tarqalgan. Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda ham uchraydi.

O'sish sharoiti: Tog'ning yuqori qismida, toshshag'alli tuproqlarda o'sadi.

Soni: Tabiiy zahiralari kam bo'lib, bir-biridan ajralgan to'plar hosil qilgan holda o'sadi.

Ko'payishi: Urug'idan ko'payadi. **O'simlilar soni va arealining o'zgarish sabablari:** Mahalliy aholi gullab turgan paytida dorivor o'simlik sifatida ko'plab yig'ib oladi. Yoz faslida esa bu yerlarda chorva mollari boqiladi.

Madaniylashtirish: Ma'lumotlar yo'q.

Muhofaza choralari: O'simlik tarqalgan maydonlarning bir qismi Chotqol biosfera qo'riqxonasi va Ugom-Chotqol milliy tabiat bog'i hududida bo'lib, muhofaza ostiga olingan.

Dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlashni yanada rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish, sohaning eksport salohiyatini oshirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash maqsadida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

Dorivor o'simliklarni yetishtirish., saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlarini tashkil etish, shuningdek, hududlarni dorivor o'simliklar yetishtirish. bo'yicha ixtisoslashtirish;

➤ ixtisoslashtirilgan hududlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish., urug'liklar va ko'chatlar tayyorlash, bosqichma-bosqich zamonaviy dorivor o'simliklar plantatsiyalari tashkil etish;

➤ dorivor o'simliklarni yetishtirish. va urug'chiligini tashkil etishda ilg'or ilm-fan yutuqlarini qo'llash;

➤ dorivor o'simliklar yetishtirish va ularni qayta ishlash bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro faol hamkorlik qilish va sohaga bosqichma-bosqich innovatsion yechimlar (nou-xau) joriy etish;

➤ dorivor o'simliklar va ulardan olinadigan mahsulotlarga bo'lgan ichki bozor talabini qondirish hamda ularni eksport qilish;

➤ tajriba va ma'lumotlarning doimiy almashinuvini tashkil etish orqali ushbu yo'nalishdagi xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, xalqaro tadqiqot dasturlari, anjumanlar va simpoziumlarda ishtirok etish.

O'zbekiston hududida dorivor o'simliklar ko'p va ularning biz uchun ahamiyati juda ham katta. Ammo oxirgi paytlarda bu o'simliklardan noto'g'ri foydalanish va ayovsiz ularni o'rib olish ularning soni kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda. Yuqoridagi o'simliklar endilikda qizil kitob ro'yxatida ekan ulardan foydalanish mumkin emas. Oldimizda turgan eng muhim vazifa bunday noyob va dorivor o'simliklarni saqlab qolish va sonini ko'paytirish kerak. Bunday natijalarga erishish uchun biotexnologik usullar asosida O'zbekiston respublikasi qizil kitobiga kiritilgan juda ko'p o'simliklar qisqa muddatlarda, kichik maydonlarda, kasalliklardan holi bo'lgan holda yetishtirilmogda. Bu esa o'z navbatida noyob o'simliklarni tabiatda soni va turini saqlab qolishga erishishning eng ishonchli yo'lidir. Ularga kerakli ekologik sharoitni yaratish va ular o'sadigan maydonlarni ko'paytirish va maxsus plantatsiyalarni tashkil etish hamda farmokologik bazamizdagi xom-ashyolarni ko'paytirish va yana ham tibbiyotimizni rivojlantirishga sharoit yaratadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar Keller astragali, Olatog'zaafaroni, Olga soxta klausiyasi, Severtsov mug'ultog'i, Lipskaya chandiri singari turlarning o'sish maydonlarini kengayganligi aniqlanib, mavjud tabiiy va antropogen omillar yig'indisi ularning yo'qolib ketish xavf emasligi tadqiqotlar davomida o'z tasdig'ini topdi. Shunga asoslangan holda, mazkur turlar "Qizil kitob"dan chiqarildi. Maqomi 0 ga tenglashtirilgan, ya'ni yo'qolib ketgan deb hisoblanuvchi turlar soni 19 tadan 10 taga qisqardi. Shuningdek, 15 ta noyob va

mamlakatimiz florasida uchun endemik turlar ham “Qizil kitob”ga kiritildi. Qiziqarlisi shundan iboratki, ular orasida so‘nggi bir necha yilda O‘zbekistonlik olimlar tomonidan kashf etilgan va hozirgacha dunyo botanika fani uchun noma‘lum bo‘lgan turlar ham bor. “Qizil kitob”ning avvalgi nashri bilan yaqin kunlarda chop etilishi rejalashtirilayotgan yangi nashrini taqqoslaydigan bo‘lsak, endilikda 157 ta turlarning kamyoblik maqomi o‘zgardi. Shuningdek, avvalgi nashr chop etilganidan beri xalqaro botanika nomenklaturaga kiritilgan ko‘p sonli o‘zgarishlar tufayli, shu jumladan, DNK-tahlillash usulidan keng foydalanilishi munosabati bilan uzoq vaqt davomida maxsus adabiyotlarda qo‘llanilib kelingan ko‘plab taksonomik birliklar (turlar, turkumlar, oilalar)ning ilmiy nomlari ham o‘zgardi.

Ma‘lumot o‘rnida ta‘kidlash joizki, O‘zRFA Botanika instituti tomonidan dorivor va xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘simliklarning tabiiy zahiralari o‘rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan o‘simlik xomashyosi rejasiz va nazoratsiz yig‘ib olinishi natijasida sassiq kovrak (*Ferula foetida* L.), qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra* L.), Samarqand o‘lmaso‘ti (*Helichrysum maracandicum* Popov ex Kirp.) kabilarning ham tabiiy populyatsiyalarining keskin qisqarib ketganligi va zahiralari deyarli qolmaganligi aniqlandi. Bu esa mazkur o‘simliklarning ham Tojik kovragi qatorida O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi”ning navbatdagi nashriga tavsiya etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Nazorat savollari.

1. Qizil kitobga kiritilgan qanday o‘simliklarni bilasiz?
2. “Qizil kitob”ning yangi nashriga nechta dorivor o‘simlik kiritilgan.
3. Noyob o‘simliklarni biotexnologik usullar asosida asrab qolish istiqbollari?
4. Biotexnologik usullar asosida qaysi noyob dorivor o‘simliklarning plantatsiyalari tashkil etildi.
5. O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga (2019) ko‘p turlari kiritilgan o‘simliklarning oilalari ni sanab ko‘rsating. Eng ko‘p turlar qaysi oiladan va qaysi turkumdan kiritilgan?
6. Yovvoyi anorning madaniy ekin sifatida yetishtiriladigan ko‘plab navlari mavjud bo‘lganligi sababli tabiatda tarqalgan tuplarini saqlab qolish kerakmi?

7. Talas parpisining kalit morfologik belgisi nimada va u qanday yo'llar bilan ko'payadi?

8. Viktor omonqorasini qanday dorivorlik xususiyatlari mavjud?

9. Sarxush bozulbangni madaniy plantatsiyalarini tashkil etish naqadar zarur?

10. Komarov bo'zboshini tabiatda saqlab qolish uchun qanday choralar ko'rish zarur?

11. Tojik kovragi O'zbekiston Qizil kitobining nechanchi nashriga kiritilgan va kamayib ketish sabablarini tushintiring.

12. Tojik kovragini ko'paytirish va yetishtirish ishlari bo'yicha Respublikamizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

GLOSSARIY

Abiotik omillar- muhitning abiotik omillari (yun. a — inkor qo'shimchasi va bios — hayot) — muhitning tirik organizmlarga ta'sir etuvchi noorganik omillari (iqlim, t-ra, namlik, radiasiya, tuproqning sho'rxokligi va b.) majmui.

Amilazalar uglerodning 1- va 4-atamlari o'rtasidagi glyukozid bog'larini parchalash yo'li b-n kraxmal, glikogen va ularga yaqin polisaxaridlar gidrolizini tezlashtiruvchi fermentlar.

Avtogenez (avto... va yun. genesis- tug'ilish, paydo bo'lish) — evolyusion ta'limotdagi idealistik konsepsiya.

Agar-agar — ayrim dengizlarning qizil va qo'ng'ir rangli o'simliklaridan alohida usulda qaynatib olinadigan shilimshiq modda.

Agglyutinatsiya (lot. agglutinatio -yopishish) — tibbiyotda zarrachalar, bakteriyalar, qizil va oq qon tanachalari (eritrositlar va leykositlar) va b. hujayralarning agglyutinini (qon zardobi) ta'sirida bir-biriga yopishib, g'uj-g'uj bo'lib cho'kib tushishi.

Allellar (yun. allelon — birbiri o'zaro), allelomorflar, allel genlar — bir genning gomologik xromosomalarning o'zaro bir xil joy (lokus) laridagi bo'lishi mumkin bo'lgan har xil holatlari.

Anomal metabolitlar -noqulay omillar (ionlashtiruvchi nurlar, past yoki yuqori t-ra, suvsizlik) ta'sirida tirik organizm hujayralarida moddalar almashinuvining buzilishinatisida yig'ilib qoladigan yarim oksidlangan moddalar (peroksid, epoksid, oksifenol, oksixinon, gistamin, xolin va b.).

Antigenlar — ma'lum sharoitda immun javob berish va maxsus antitelalar ishlanib chiqishi, yot hujayralarni yemirib limfositlar hosil bo'lishi, immunologik holat yeki tolerantlik shakllanishiga sabab bo'ladigan turli moddalar.

Asparagin kislota (aminokax-rabokislota), - rangsiz kristallar, dikarbon aminokislotalardan biri, Mol. m. 133,1. A. k. hayvon va o'simlik oksillari tarkibida ko'p miqdorda uchraydi, ularda azot moddalarining almashinuvida muhim rol uynaydi.

Auksinlar (yun. aixo — o'stiraman) — o'simlik organizmida paydo bo'ladigan, uning o'sishi uchun zarur fiziologik faol moddalar. Hozir A.ning uch xili ma'lum: a-auksin (auksentriol kislota — $C_{18}N_{32}O_3$), fi-auksin (auksenolon kislota — $C_{18}N_{30}O_4$) va geteroauksin (R-indolilsirka kislota — $C_{10}H_9O_2N$). A. kristall holda bo'ladi. Geteroauksin sintetik yo'l b-n hosil qilingan. A. o'simliklarning

o'sishini tezlatish, yangi eqilgan kalamchanning yaxshi ildiz otishi, daraxtdagi mevalarning barvaqt to'kilishini to'xtatish, ba'zan o'simlik hosildorligini oshirish uchun ishlatiladi (yana q. O'sishni boshqaruvchi moddalar).

AEROBLAR, aerob organizmlar — erkin kislorod bo'lgan muhitda yashaydigan va rivojlanadigan organizmlar.

Adinozindifosfat, (ADF)-hujayraning energetik almashinuvida fosfat guruhini qabul qilib ATF ga aylanuvchi nukleotid.

Adenozintrifosfat kislota, (ATF) — adenin, riboza va uch molekula fosfat kislotadan tarkib topgan organik modda. Organizmda katta ahamiyatga ega bo'lgan energiya va moddalar almashinuvida ishtirok etadi.

Almashinmaydigan aminokislotalar-odam va hayvonlar organizmida sintezlanmaydigan va ovqat bilan qabul qilinadigan aminokislotalar.

Aminoatsil-tRNK sintetaza - (ARCase, kodaza) - ma'lum bir aminokislotaning tegishli tRNK molekulasi bilan esterifikatsiya reaksiyasida aminoatsil-tRNK hosil bo'lishini katalizlovchi ferment (sintetaza). Har bir proteinogen aminokislota uchun kamida bitta aminoatsil-tRNK sintetaza mavjud.

Agar-agar - ba'zi dengiz o'simliklaridan olinadigan mahsulot; uning tarkibiy qismi uglevodlar qatoriga kiradi, u sovuq suvgasolinganida bo'kadi, qaynoq suvda batamom eriydi, eritmasi soviganda ta'msiz va hidsiz, tiniq, iviq cho'kma hosil bo'ladi.

Agaroza - dengiz suvo'tlaridan olinadigan polisaxarid; elektroforez va xromatografiyada gelli muhit sifatida foydalaniladi.

Agar diffuziya testi:-Muayyan bakteriyalar uchun antibiotiklarning samaradorligini tekshirish uchun ishlatiladigan usul. Bu test bakteriya shtammi bilan urug'langan agar plitalari yuzasiga joylashtirilgan stakanlarga, quduqlarga yoki qog'oz disklarga turli konsentratsiyali antibiotik eritmalarini qo'llashni o'z ichiga oladi.

Agregatsiya - ayrim organizm yoki hujayralarning to'planishi, g'uj bo'lib qolishi.

Agrobiotsenoz - ekin ekiladigan erlarda yashaydigan organizmlar yig'indisi.

Adaptatsiya - moslashish, organizmlarning evolyusiya jarayonida yuzaga kelgan yashash sharoitiga moslashuvi.

Adventiv kurtaklar - o'simliklardagi kurtaklar, ular odatda paydo qiimaydigan hujayra va to'qimalardan hosil bo'ladi.

Adenillanish - yo'li bilan fermentlar faolligi o'zgarishining bir turi.

Adenin - (aminopurin)-azotli organik birikma bo'lib, adenine nukleotidi tarkibiga kiradi.

Azotobakterin - ushbu turga kiradigan bakteriyalardan tashkil topgan bakterial o'g'it.

Azotobakteriya - erkin holda yashab, havodan azot to'plovchi bakte-riyalar turi.

Akropetal transport - o'simlikda moddalarning poya apical meristemasi yo'nalishi bo'yicha tashilishi.

Allel bo'lmagan (noallel) genlar-gomologik bo'lmagan xromasomalarda joylashgan bo'lib bir nechta belgining mustaqil irsiylanishi va alternative namoyon bo'lishini ta'min etuvchi genlar.

Autosomalar-jinsga bog'liq bo'lmagan xromasomalari.

Avtonom plazmidalar- asosiy xromosomaga birika olmaydigan va asosiy xromasomadan mustaqil ravishda o'z-o'zini replikasiya qiladigan xalqasimon DNK malekulalari.

Amplifikatsiya - xromosoma DNKsi ketma-ketligining qo'shimcha nusxasining hosil bo'lishi.

Antimikrobial qarshilik (AMR)- atamasi bakteriyalar, zamburug'lar, viruslar va boshqa parazitlar kabi mikroblar antibiotiklar, antivirallar, antifungallar va bezgakka qarshi vositalar kabi dorilarning halokatli ta'siridan omon qolish uchun foydalanadigan turli xil mexanizmlarni tavsiflash uchun ishlatiladi.

Anaeroblar - kislorodsiz muhitda modda almashinishi va ko'payishini davom ettira oladigan mikroorganizmlar; faqat anaerob sharoitda o'sadigan mikroorganizmlar; fakultativ anaeroblar, kislorodli yoki kislorodsiz sharoitda o'sa oladigan mikroorganizmlar.

Antikorlar. Bakteriyalar, viruslar va gulchanglar kabi begona narsalarni aniqlash va zararsizlantirish uchun maxsus oq qon hujayralari (B limfotsitlari yoki B hujayralari deb ataladi) tomonidan ishlab chiqarilgan Y shaklidagi oqsillar.

Androgenez - mikrospora yoki chang donachalaridan somatic embriogenez yoki kallus hosil qilish orqali o'simlik yoki uning organlarining hosil bo'lish jarayoni.

Antagonist - raqib-mikroorganizmlar hayotini to'xtatuvchi yoki butunlay barbod qiluvchi boshqa bir mikroorganizm.

Apikal dominantlik - apikal meristemadagi gormonlar yordamida yon navdalarning yuqori meristemasi kurtaklari o'sishini to'xtatilishi.

Attragirlash xususiyati - stimulyator fitogormonlarning oziqa moddalarni o'suvchi organga katta miqdorda tashilishini faollash xususiyati.

Auksotrof mutantlar - jinsiy bo'lmagan xromosomalar to'plami (1,2, 3, va hokazo sonlar bilan belgilanadi).

Antigenlik – bu antigenning immun tizimi tomonidan tan olinishi va uning effektor qismi bilan o'zaro ta'sir qilish qobiliyati.

Antimikrobial immunitet – bu mikroblarni yo'q qilishga qaratilgan antitelalarni o'z ichiga olgan bo'lib, steril- patogenni organizmdan to'liq yo'q qilishga qaratilgan antitelalarni o'z ichiga olgan bo'lib; steril bo'lmagan- faqat organizmda patogenlar mavjudligida saqlanib qoladi.

Antroponotik infeksiyalar – bu odamdan odamga o'tuvchi patogen (infeksiya)lar.

Antropopurik – bu infeksiya o'chog'i inson faoliyati natijasida, masalan, qishloq xo'jaligi hayvonlari hisobidan shakllangan bo'ladi.

Arthrobacter simplex – bu bakteriya steroid gormonlarni tranformatsiya qilishda qo'llaniladi.

Autoantigenlar – bunda a'zolar va to'qimalarning uchraydigan ayrim moddalar, ular ma'lum sharoitlarda begona deb tan olinadi va immun reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Aktinomitsetlar – nursimon zamburug'lar, shoxlangan hujayralar yoki giflarni hosil qiluvchi bakteriyalar.

Anaerob – substrat fosforlanishi orqali kislorod yo'qligida energiya oladigan organizmlar hisoblanadi.

Aerob – erkin kislorod bo'lgan muhitda yashaydigan va rivojlanadigan organizmlar.

Autotrof – noorganik moddalardan organik moddalarni sintez qladigan organizmlar.

Aerotolerant anaeroblar – kisloroddan foydalanmaydi va elektron tashish zanjiriga ega bo'lmagan organizmlar.

Arxey bakteriyalar – eng qadimgi bakteriyalar

Auksotrof mutantlar – genetik mutatsiyalar tufayli o'sish uchun zarur bo'lgan ozuqaviy moddalarni ishlab chiqara olmaydigan organizmlar

Aeratsiya – shamollatish, havo va kislorod bilan to'yinganlik darajasi.

Aglutinatsiya – zarrachalarning birikish jarayoni antigen-antitela reaksiyasi asosida yuzaga keladi.

Aseptika – bu sterillangan mahsulotni sterillangan idishlarga qayta ishlash va qadoqlash.

Antinutrientlar – bu ozuqa moddalarning so‘rilishiga xalaqit berdaigan tabiiy yoki sentetik birikmalar.

Antitana – antigeni neytrallovchi oqsil molekulari.

Analit-Ilmiy yoki diagnostika maqsadlarida kimyoviy yoki biologik namunada tahlil qilingan molekula yoki birikmani tavsiflash uchun ishlatiladigan atama.

Angiotensinga aylantiruvchi ferment 2 (ACE2)

SARS-CoV-2 virusi tomonidan o'pka epiteliy hujayralariga kirish uchun ishlatiladigan ko'plab hujayra turlari yuzasida joylashgan retseptor.

Allergen - Tanadagi g'ayritabiiy immunitet reaksiyasini rag'batlantirishi mumkin bo'lgan yoki allergik reaksiya deb ataladigan modda, odatda oqsil. Allergenlar turli xil manbalardan, jumladan, chang oqadilar, gulchanglar va uy hayvonlari yungidan kelib chiqadi.

Adjuvan: Boshqa vositalarning ta'sirini kuchaytirish uchun qo'shiladigan farmakologik yoki immunologik vosita.

An'anaviy naslchilik- o'simliklar va hayvonlarning modifikatsiyasi selektiv naslchilik orqali an'anaviy tarzda qo'llaniladigan amaliyotlar o'simliklarni ko'paytirish biotexnologiyasining aspektlarini o'z ichiga olishi mumkin to'qimalar kulturasida va mutatsiyalarni ko'paytirish kabi.

Agglyutininlar- qon zardobida hosil bo'lgan moddalar, ularning ta'sirida oqsillarning koagulyatsiyasi, mikroblarning, qon hujayralarining yopishishi sodir bo'ladi.

Agrotsenoz- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yaratilgan va odamlar tomonidan muntazam ravishda parvarish qilinadigan o'simliklar, hayvonlar, zamburug'lar va mikroorganizmlarning biotik jamoasi.

Aneuploidiya- xromosomalar sonining ko'p bo'lmagan o'zgarishi; xromosomalarning o'zgartirilgan to'plami, unda odatdagi to'plamdan bir yoki bir nechta xromosomalar yo'q yoki qo'shimcha nusxalar bilan ifodalanadi.

Amplikon – amplifikatsiya birligi, ikki tomondan praymerlar bilan chegaralangan genni (DNK fragmentini) sintez qilingan nusxasi.

Amplifikatsiya – genni (DNK molekulasida yoki uning fragmenti) izchillik bilan ko'p marotabalab nusxalanishi.

Autoreplikatsiya (replikatsiya) DNK – DNK ni o‘z-o‘zidan ikkilanishi, bitta ona molekuladan ikkita qiz molekulani hosil bo‘lishi.

Biogen aminlar, proteino-gen aminlar — organizmda hosil bo‘ladigan azotli organik birikmalar.

Biogenez (bio... va genez) — organik birikmalarning tirik organizmlar hosil qilishi.

Biotexnologiya (bio... va yun. techne — mahorat, san‘at, logos — so‘z, ta’li-mot) — q. x., sanoat va tibbiyotning tur-li sohalarida tirik organizm va biologik jarayonlardan foydalanadigan sanoat usullari majmui.

Bakteriemiya — bu makroorganizmlarning qonida aylanib yuruvchi bakteriyalarning mavjudligi.

Bacillus thuringiensis (Bt)- Bu tuproqda yashaydigan grammusbat bakteriyalar turi. Bunday bakteriyalar qishloq xo‘jaligida foydalidir, chunki ular ba’zi zararkunandalar uchun o‘limga olib keladigan toksinlarni ishlab chiqaradi.

Bazidomitsetlar - spora hosil qiluvchi zamburug‘lar.

Bifidobacterium longum – fermentlangan sut mahsulotlarini olish uchun ishlatiladigan sut kislotali bakteriya.

Biosafesiti – biotexnologiyaning inson salomatligi, xodimlar uchun xafsizligi, patogenlar va “biologik omil ”ning boshqa zararli ta’sirdan himoyalanihini belgilaydi.

Biosecurity – biologik omildan zararli foydalanishda himoyalanihdir.

Bioreaktor – biologik reaksiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan sig‘im.

Biostimulyatorlar –o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyojini kamaytiradigan va o‘simliklarning o‘shishini, suvga va abiotik stresslarga chidamliligini oshiradigan mahsulotlardir.

Biotransformatsiya – bitta kimyoviy birikma yoki kimyoviy birikmalar aralashmasining biokimyoviy modifikatsiyasi.

Biologik xavfsizlik – bu tirik organizmlar tomonidan ularning biologik mohiyatini, biologik sifatlarini, tizimni saqlab qolish, buning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan biologik yaxlitlikni keng miqyosda yo‘qotishni oldini olish.

Biologik agentlar – bakteriyalar, viruslar, zamburug‘lar boshqa mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqaradigan toksinlardir.

Biopolimerlar – tabiatda uchraydigan va tirik organizmlar tarkibiga kiruvchi polimerlar.

Biologik faol moddalar – organizm to‘qima yoki hujayraga ta’sir ko‘rsatadigan moddalardir.

Bioremediatsiya – bu biologik ob’ektlar o‘simliklar, zamburug‘lar, hasharotlar va boshqa organizmlarning metabolik potentsialidan foydalangan holda tuproq va atmosferani tozlash usuli hisoblanadi.

Biopreparatlar – biologik kelib chiqishi bir xil bo‘lgan tabiiy mahsulotlar guruhi.

Biomassa – bir turga mansub individlar, turlar guruhlar yoki jamoasining uzi yashab turgan muhit yuzasi yoki hajm birligi.

Biofiltrlar – organik moddalarni bakteriyalar tomonidan minerilaztsiya qilish orqali oqava suvlarini sun’iy biologik tozalash uchun tuzilma hisoblanadi.

Biogen elementlar – bu organizmlarning tarkibiga doimiy ravishda kiritilgan va ularning hayoti uchun zarur bo‘lgan kimyoviy elementlardir.

Biologik omil – bakterial preparatlar tarkibidagi mikroorganizmlar, tirik hujayralar va sporelar, patogen mikroorganizmlar yuqumli kasalliklarning qo‘zg‘atuvchisi.

Bakteriofaglar – bakteriyalarni zararlovchi viruslar.

B limfotsitlari B hujayralari sifatida ham tanilgan B limfotsitlari mikroblar va boshqa begona moddalar yuzasida retseptorlarga yopishib oladigan va immunitet tizimini tajovuzkorlar mavjudligidan ogohlantiruvchi antikorlarni ishlab chiqarish uchun mas’ul bo‘lgan oq qon hujayralarining bir turi. B hujayralari suyak iligidagi ildiz hujayralaridan rivojlanadi.

Bioinformatika. Katta, murakkab biologik ma’lumotlar to’plamlarini olish va tahlil qilish uchun kompyuter vositalaridan foydalanadigan fanlararo soha.

Burkitt limfomasi. Ekvatorial Afrika va Yangi Gvineyada eng ko’p uchraydigan qon saratoni turi.

Bivalent- (lot. bis — ikki marta va valens, valentis — kuchli) — meyoza yadroning bo‘linishi tufayli hosil bo‘lib, o‘zaro chalkashgan (kon’yugatsiyalangan) gomologik xromosomalar jufti. B. xromosomalar orasida hosil bo‘lgan Xsimon figuralar — xiazmalar xromosomalar kompleksini tutib turadi. Ana shu holatda xromosomalar o‘rtasida irsiy materiallar almashinuvi ro‘y beradi. Odatda B. soni xromosomalarning gaploid soniga teng bo‘ladi.

Bekkross (ing. Backcross) — duragaylarni otaona nusxalarining biri bilan qayta chatishtirish. B.ni o'simliklar seleksiyasiga N. V. Harland va M. N. Pope kiritdi (1922). Seleksiyada o'zidan changlanadigan hamda chetdan changlanadigan o'simliklar navini yaxshilashda, duragay avlodni ota yoki ona nusxalarining kerakli xususiyatlari bilan boyitishda qo'llanadi (qarang Takroriy chatishtirish).

Binar - ikki qismdan iborat; binarli nomenklatura-mikroorganizmlarda avlod va tur nomi bilan atalishi; binarli bo'linish-hujayralarning ko'payish vaqtida ikkiga bo'linishi.

Biogenez - tirik organizmlar tomonidan organik birikmalarning hosil bo'lishi.

Biomassa - mikroorganizmlarni o'stirilganida hujayralar massasi yoki tirik organizm massasi; faol biomassa-biologik faollik ko'rsatuvchi massa; quruq biomassa-organizmlarning quruq biomassasi. U ho'l biomassaning 15-30% ini tashkil etadi; ho'l biomassa-suzish yoki aylantirish, cho'ktirish natijasida suyuq ozuqa muhitidan ajratib olinganhujayra massasi.

Bioreaktor - biologik reaksiyalarni amalga oshirishga mo'ljallangan sig'im. Bu atama aerob va anaerob organizm hujayralarini o'stirish uchun zarur bo'lgan sig'implarda hamda hujayra va fermentlarni to'plashda foydalanadigan naychalarga nisbatan ishlatiladi.

Biomakromolekulalar — biopolimerlar (nuklein kislotalar, oqsillar, polisaxaridlar) molekulasini.

Biosfera — tarkibi, strukturasi va energetikasi tirik organizmlarni majmuasining faoliyati bilan belgilanuvchi yerning qobig'i.

Biotsenoz — quruqlikda yoki suvda birgalikda yashovchi hayvonlar, o'simliklar, zamburug' va mikroorganizmlar majmuasi.

Biopolimerlar — strukturalari bir xil bo'lgan past molekulyar birikmalar (monomerlar) dan tashkil topgan, tirik organizmlarni struktura qismi bo'lgan va ularni hayotiy jarayonlarida muhim rol o'ynaydigan yuqori molekulyar tabiiy birikmalar (oqsillar, nuklein kislotalar, polisaxaridlar va ularni hosilalari).

Biochip — o'lchami bir necha santimetrdan iborat bo'lgan matritsa, uning yordamida organizmning genini funksional faolligi haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Biomateriallar — organizmni hujayra va to'qimalariga mos keladigan sun'iy materiallar.

Biomoslik – materiallar buyumlar yoki qurilmalarni tirik organizmda salbiy reaksiya chaqirmasdan o'z funksiyasini bajarishi.

Dezoksiribonuklein kislota (DNK) — nuklein kislotalarining bir turi. Tarkibida dezoksiriboza, azot asoslaridan adenin (A), guanin (G), sitozin (cytosine) (C) va timin (T) hamda fosfat kislota bo'ladi.

Destruksiya - moddalarning parchalanish orqali fiziologik faolligini yo'qotishi.

Didifferensiya - ixtisoslashgan, bo'linmaydigan hujayralarning differensiyalanmasdan bo'linayotgan kallus hujayralariga aylanishi.

Diploid - mazkur turga xos sonlami ko'rsatuvchi gomologik xromosomalarning ikkita to'plami bilan xarakterlanuvchi yadro, hujayra va organizm.

Diploidlash - xromosoma to'plamini ikki marta ko'paytiruvchi model. Xromosomalarning diploid to'plami (avtodigaploid) ota yoki ona xromosomalarini tutuvchi ikkita gaploid xromosomalar to'plami.

Differensiyalash - asosiy va yangi hosil bo'lgan hujayralar orasida, shuningdek, yangi hosil bo'lgan hujayralar orasida farq yuzaga keltiruvchi jarayonlar kompleksi.

DNK replikatsiyasi - fermentlar to'plami (DNK polimeraza, ligaza va boshqalar) yordamida DNK nusxasini hosil qilish orqali uning molekulalarini ikkilanishi (ikkimarta ko'payishi). Yopishqoq uchlar - komplementlar holdagi DNK molekulasining bitta ipli uchi bo'lib, endonukleazalar yordamida kesib olinadi.

Degradatsiya usuli-Fred Sanger tomonidan ishlab chiqilgan usul bo'lib, unda katta molekula odatda fermentlar bilan kichikroq bo'laklarga bo'linadi va keyin molekulaning qurilish bloklari ketma-ketligini ishlab chiqish uchun birlashtiriladi.

Deoksiribonukleaza (DNKaz)-DNKni parchalaydigan ferment.

Dideksinukleotid (dideoksi)-DNK polimeraza ta'sirini inhiye qiluvchi va uning nukleotidlarning o'sib borayotgan DNK zanjiriga birlashtirilishini bloklaydigan birikma.

Dideksinukleotid trifosfat (ddTTP)-Oddiy DNK polimeraza substratining analogi.

Disulfid ko'pri-ikkimarta peptid zanjirini bir-biriga bog'laydigan kimyoviy aloqalar.

DNK-Bu hujayraning yadrosi va mitoxondriyalarida joylashgan murakkab kimyoviy modda bo'lgan Deoksiribonuklein kislotasini

anglatadi. U organizmning rivojlanishi, omon qolishi va ko'payishi uchun zarur bo'lgan genetik ko'rsatmalarni beradi.

DNK mikromassivi-DNK chipi sifatida ham tanilgan DNK mikoraari bir vaqtning o'zida ko'p sonli genlarning ifoda darajasini o'lchash uchun ishlatiladigan qattiq sirtga bosilgan mikroskopik DNK dog'lari to'plamini o'z ichiga oladi.

DNK polimeraza-DNK polimeraza barcha tirik organizmlarda uchraydigan ferment turidir. DNK polimerazasining ko'p turlari mavjud. Ba'zilar hujayra bo'linganda DNKni ko'paytirishga yordam beradi, boshqalari esa DNKni kundalik ta'mirlash va saqlashda yordam beradi.

DNK probi-Namuna genomidagi komplementar ketma-ketlikni aniqlash uchun ishlatiladigan o'ziga xos nukleotidlar ketma-ketligini o'z ichiga olgan bir zanjirli DNK fragmenti. Prob qo'shimcha DNK bilan bog'langanda signal beruvchi radioaktiv yoki kimyoviy teg bilan etiketlanadi.

DNK ketma-ketligi-DNKning bir qismini tashkil etuvchi to'rtta qurilish bloklari, nukleotid asoslarining aniq tartibini aniqlash uchun ishlatiladigan biokimyoviy usul.

Dorivor o'simlik-tabiatda mavjud bo'lgan, tarkibida dorivor moddalar saqlovchi tur.

Dominant gen-geteriozigotali (Aa) holatda retsessiv allel (a) ga nisbatan to'liq ustunlik qiladigan gen alleli.

DNK ni "yopishqoq uchi" – DNK molekulasining oxiridagi qisqa “ (4 tadan 20 ta nukleotidgacha) birzanjirli qismi, u DNKni har xil fragmentlarini bog'lanish (“yopishish”) imkonini beradi.

Dendrimerlar – simmetrik strukturaga ega bo'lgan, shoxlangan sintetik polimerlar.

Differensirovka – bir xil hujayra va to'qimalar orasida farqni paydo bo'lishi organizmni rivojlanishi davomida to'qima va hujayralarni o'zgarishi va oqibatda ixtisoslashgan hujayra, to'qima hamda organlarni shakllanishi.

Embriogenez (embrion va yun. genesis — kelib chiqish, tug'ilish), embrional rivojlanish — ko'p hujayrali organizmlarning individual rivojlanish (ontogenez) davrlaridan biri. E. tuxum yoki embrion pardasi ichida boradi.

Epigenez (eli... va ...genez) — orga-nizmlarning murtakdan asta-sekin yangi shakl o'zgarishlar natijasida rivojlanishi to'g'risidagi ta'limot.

Ekzogen infeksiya - organizmga tashqaridan kiruvchi patogen (infeksiya).

Ekzotoksinlar - mikroob hujayrasi tomonidan tashqi muhitga chiqariladigan mahsulotlardir.

Embrionlar transplantatsiyasi-in vitro sharoitida embrionlarni odam va hayvonlar bachadonida ko'chirib o'tkazish.

Endogen infeksiya - patogen organizmga mavjud bo'lib, patalogik jarayonni keltirib chiqaradi.

Endotoksinlar - bu mikroob hujayrasi nobud bo'lgandan keyin atrof-muhitga tarqaladigan moddalardan hisoblanadi.

Epidemik jarayon - bu aholi orasida o'ziga xos yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishi.

Ektotizimlar - bu o'simliklar, hayvonlar va boshqa organizmlar, shuningdek ob-havo va landshaft birgalikda hayot pufagini hosil qiladigan geografik hudud.

Ekzometabolitlar - hujayradan tashqari metabolitlarni o'rganish bo'lib metabolomikaning kichik sohasi hisoblanadi.

Ekstraksiya - moddani matritsadan ajratish jarayoni.

Eprin - *Acinebacter* avlodiga mansub bakteriyalarni etanolli oziqa muhitida o'stirish orqali olingan oqsil preparati.

Epidermomikoz - terining mo'rt bo'lishiga va oson pufakchlarga olib keladigan noyob kasallik.

Ektoderma- homilaning tashqi qavati.

Endoderma-homilaning ichki qavati.

Embrional induksiya-homilaning bir qismi ikkinchi qismiga ta'sir qilib, uning rivojlanishini boshqarilishi.

Epistaz (yun. — to'xtatish, bosib turish, to'siq) — genlarning o'zaro ta'siri tiplaridan biri; bir gen allellarining boshqa genlar allellari faoliyatini bosib turishi. Epistaz dominant va retsessiv bo'ladi.

Ekssiziya-(ing. Induction-qo'zg'alish) profag holidagi bakteriofagning aktiv holatga o'tib litik reksiyaning boshlashi.

Endonukleaza - bu polinukleotid zanjirining o'rtasida fosfodiefir bog'larini ajratuvchi nukleazalar guruhidagi oqsillar. Cheklovchi endonukleazlar yoki cheklovchi fermentlar DNKni ma'lum joylarda (kesish joylari deb ataladi) parchalaydi va ta'sir qilish mexanizmiga ko'ra uch turga (I, II va III) tasniflanadi. Ushbu oqsillar ko'pincha genetik muhandislikda rekombinant DNKni yaratish uchun ishlatiladi, keyinchalik u bakteriya, o'simlik yoki hayvon hujayralariga kiritiladi.

Endofulleren – ichiga bir yoki bir nechta atomlar yoki eng sodda molekulalar kiritilgan fulleren.

Elektron mikroskop – yorug'lik oqimi o'rinda elektronlar to'plamini ishlatish hisobidan 10^6 taga kattalashtirilgan tasvir beraoladigan uskuna.

Elektrospinning – elektrostatik maydonda sun'iy tola olish usuli.

Elementar biologik membrana – barcha biologik membranalar uchun universal nom. Uning asosini lipidlarni ikki molekulyar qavati tashkil qiladi (lipidli qo'shqavat). Uni ikki tomonida va ichida oqsil joylashadi. Plazmalemma va hujayrani membranali organoidlarini hosil qiladi.

Ex-siti - dorivor o'simlikni tabiiy ekotizimlarda o'simlik turi, populyasiyalarini muhofaza qilish orqali saqlash

Fagositlar (yun. phagos — yutuv-chi va.sit) — odam va hayvonlar bi-riktiruvchi to'qimalaridagi himoyaga ixtisoslashgan, fagositoz xususi-yatiga ega bo'lgan hujayralar.

Fagositoz – organizmga tushgan yot (bakteriyalar, zarrachalar, moddalarning parchalanish maxsulotlari) amyobasimon xujayralar-fagositlar- tomonidan ushlab olinib, xazm qilinishi.

Fakultativ anaeroblar – kislorod bo'lganda xam bo'lmaganda xam yashay oladigan organizm.

Fenotip – genotip bilan tashqi muhit sharoitlarining o'zaro ta'sirida rivojlanadigan, organizmning barcha belgi va xususiyatlarining majmui. Daniyalik olim V.Ilgansen tomonidan (1909 y) atama sifatida fanga kiritilgan.

Faglar-mikroorganizmlar ichiga kirib, unda ko'payib, keyin ularni eritib yuboruvchi viruslar.

Faollashtirish - faollikni qo'zg'atish va kuchaytirish; molekulalar faolligini qo'zg'atib kimyoviy reaksiyaga kirishni tezlatish.

Fenotip-organizmlarning rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan hamma belgi va xususiyatlar yig'indisi.

Fermenter-ayrim xomashyolarni mikroorganizmlar yordamida bijg'itish uchun ishlatiladigan hamma tomoni berk asbob.

Fermentlar-biologik tezlatkichlar, enzimlar-oqsilning o'ziga hos turi; tirik hujayralarda ham tezlatkich rolini bajaradi.

Fitoaleksinlar-o'simliklarning kasalliklarga qarshi chidamlilik tizimining patogenlar rivojlanishini pasaytiruvchi genotipik va real komponentlari.

Fitogormonlar biosintezi yo'llarining ajralishi-tashqi sharoit kompleksi bilan aniqlangan bir necha fitogormonlar uchun asos bo'lgan oraliqdan u yoki bu fitogormonning bir necha fitogormonlarning fermentativ biosintezi yo'li.

Fitoregulyatorlar-o'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi, o'g'itlar va gerbitsidlar ta'siriga ega bo'lmagan tabiiy va sun'iy preparatlar.

Fosforobakterin- fosfor organik birikmalarni parchalash xususiyatiga ega bo'lgan bakteriyalardan tashkil topgan bakteriyali o'g'it.

Fotosintez-yorug'lik energiyasi ishtirokida o'simliklar, suvo'tlari va ayrim bakteriyalar hujayralarida CO₂ dan organik moddalar hosil bo'lish jarayoni.

Fragmentlar-parchalar, qismlar.

Foton nurlanishi-ta'sirini baholash uchun ekspozision doza tushunchasi kiritilgan. SI tizimida birligi (Kl/kg). $1 R = 2,58 \cdot 10^{-4} \text{ Kl/kg}$.

Foton-yorug'lik zarrachasi.

Flouressensiya-tashqi ta'sir to'xtatilgandan so'ng moddalarning qisqa vaqt ichida shulalanish hodisasi.

Fermentga bog'langan immunosorbent tahlili (ELISA): Maxsus oqsillarni aniqlash uchun antikorlardan foydalanadigan usul. Muayyan genetik jihatdan yaratilgan organizm mavjudligini tekshirish uchun ishlatiladi.

Faol immunitet: Bu kasalliklarga chidamliligini oshirish uchun olingan immunitetning bir turi. Bunday immunitetni kasallikka chalingan yoki unga qarshi emlash orqali olish mumkin.

Faol sayt: Bu oqsilning bir qismi bo'lib, agar protein ishlashi uchun ma'lum bir shaklda saqlanishi kerak.

FMT (Najas mikrobiota transplantatsiyasi) Bakterial infeksiyasi antibiotiklarga javob bermagan ichakdagi mikrobial xilma-xillikni tiklash uchun bemorga sog'lom donordan najasni transplantatsiya qilishni o'z ichiga olgan terapiya.

Ftorodinitrobenzol (DNFB yoki FDNB) Sanger reagenti dinitroflorobenzol, DNFB yoki FDNB deb ham ataladi, bu polipeptidlarning N-terminal aminokislotalari bilan reaksiyaga kirishadigan kimyoviy moddadir. U oqsillarni tartiblash uchun ishlatiladi.

FDA (Oziq-ovqat va farmatsevtika idorasi)-Inson va veterinariya preparatlari, biologik mahsulotlar va tibbiy asboblarning xavfsizligi, samaradorligi va xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan AQSh Federal agentligi.

Fraksiyalash. Aralashmaning ma'lum miqdorini bir necha kichikroq miqdorlarga bo'linadigan ajratish jarayoni.

Faj terapiyasi. Bakteriyalarni yo'q qiladigan faglar, viruslar yordamida bakterial infeksiya bilan kurashish uchun davolash.

Faglarni yozish. Bakteriyalarni ma'lum faglar tomonidan yo'q qilinishiga qarab tasniflash vositalari.

Farmakogenomika. Genetika va odamning giyohvand moddalarga bo'lgan munosabati o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan intizom.

Fenotip. Genlar, atrof-muhit, kasallik, molekulyar mexanizmlar va tasodiflar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan organizmning jismoniy xususiyatlari.

Filogenetik daraxt. Filogeniya deb ham ataladigan filogenetik daraxt - bu ma'lum bir organizmlar to'plami o'rtasidagi evolyutsion munosabatlarni ko'rsatish uchun ishlatiladigan shoxlangan diagramma.

Fermentatsiya – fermentlar yordamida yoki mikroorganizmlar ta'sirida organik moddalarni biokimyoviy qayta ishlash.

Filtratsiya – filtratda kerakli moddani ushlab qolinishi.

FISH (Fluorescent In Situ gibrizatsiyasi) sitogenetik usul bo'lib, metafaza xromosomalarida yoki in situ interfaza yadrolarida ma'lum bir DNK ketma-ketligini aniqlash va aniqlash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, FISH to'qima namunasida o'ziga xos mRNKlarni aniqlash uchun ishlatiladi.

Fibroblastlar – hujayralar orasidagi moddalarni (masalan, kollagen, elastik, mukopolisaxaridlar) ishlab-chiqaruvchi, birlashtiruvchi (bog'lovchi) to'qimaning hujayralari.

Fluoroxromlar – fluoressent mikroskopiyada obyektga ishlov berish maqsadida ishlatiladigan tabiiy yorug'lik berish xususiyatiga ega bo'lmagan modda. Bo'yoqlar (akridin) pigmentlar va ularni hosilalari (xlorofil, porfirinlar), ba'zi-bir alkaloidlar va boshqa fluoroxromlar hisoblanadi.

Fibronektin – tillo stafilokokk bakteriyasining sirtida joylashgan oqsil; biomolekulalar bilan yengil bog'lanadi, bakteriyalarni tirik hujayraga kirishiga yordam beradi.

Fibrillar – oqsil molekulalari hosil qilgan mikroskopik tolalar.

Fullerenlar – uglerodni bir ko‘rinishi (olmos, karbit va grafit qatori) ko‘p qirrali sferik (dumaloq) shaklga ega bo‘lib, juft sonli uglerod atomlardan tashkil topgan.

Gaploid- bir organizm turiga hos bo‘lgan butun to‘plamning yarmi, xromosomalar to‘plamining bilan xarakterlanuvchi yadro, hujayra, organizm.

Gen-genetik axborotlarning yagona strukturasi muayyan regulyator funktsiya, bir yoki bir nechta polipeptid zanjirlar, yoki RNK molekulasi strukturasi kodirlovchi xromosoma qismi (DNK molekulasi).

Gen muhandisligi-usullar va texnologiyalar; recombinant ribonuklein va dezoksiribonuklein kislotalar olish texnologiyasi, organizm-lardan genlarni ajratish, ular bilan turli manipulyatsiyalar o‘tkazish va ularni boshqa organizmlarga kiritish texnologiyalari.

Genetik kod (GK)- nuklein kislotalar izchilligi ko‘rinishidagi nuklein kislotalari molekulalarida nasliy axborotning yozma tizimi. GK birligi bo‘lib

kodon yoki triplet xizmat qiladi. GK sintezlanayotgan polipeptid zanjiriga aminokislotalarning birikish tartibini aniqlaydi. Nuklein kislotalari molekulalarida ketmaketlik ko‘rinishida yozilgan irsiy axborotning tirik organizmlarga hos yagona tizimi. Genetik kodning birligi kodondir.

Genetik modifikatsiyalangan transgen organizmlar (GMO)-gen– muhandisligi usullari yordamida genomiga begona genlarni kiritilishi orqali irsiyati o‘zgargan o‘simlik, hayvon, mikroorganizm va viruslar.

Genetik xavf- insonlar hayoti va sog‘ligi, atrof-muhit uchun havfli bo‘lgan kutilmagan irsiy o‘zgarishlarning genomda paydo bo‘lishi va organizmlar sifatining o‘zgarishi.

Genlar bibliotekasi-butun genomni tutuvchi klonlangan DNK fragmentlari to‘plami.

Genlar ekspressiyasi-genda ribonuklein kislota, oqsil va fenotipik xususiyatlar shaklida yozilgan genetik axborotlarning yuzaga chiqishi.

Genom-mazkur organizm protoplazmasi organellalarida joylashgan xromosomalardan tashqari genlarini tutuvchi genlar

yig'indisi. Diploid holatdagi turlar gametasida bittadan, somatik hujayra-larda esa ikkitadan genom bo'ladi.

Genoterapiya-retsipient genomiga begona genlarni kiritish yoki biologik ob'ekt to'qimalarida genetik sog'lom somatik hujayralarni olish yordamida nasliy kasalliklarini davolash.

Genotip- asos genlarining to'plami. Irsiy asosorganizmlarning genetik (irsiy) konstitutsiyasining vauning barcha genlarining majmui.

Genofond-organizm turlari yoki populyatsiyasidagi har xil genlar turlarining soni va tarixi.

Geterozis -bir-biridan qator xususiyatlar va belgilari bilan farqlanuvchi boshlang'ich shakllarni chatishtirish natijasida paydo bo'lgan birinchi avlod duragaylarining yashash qobiliyatining oshishi.

Gibrid- duragay-genetik jihatdan har xil bo'lgan turlarni chatishtirish natijasida hosil bo'lgan geterozigota jinsi. Ota-ona irsiy belgilarini o'zida mujassamlashtirgan organizm.

Genogenez- murtak xaltasi hujayralaridan o'simlik paydo bo'lish jarayoni.

Giflar- ipchalar-zamburug' tanasini tashkil etuvchi bir yoki bir necha hujayradan hosil bo'lgan, mikroskopda arang ko'rish mumkin bo'lgan iplar.

Gormon retseptor kompleks- gormon va oqsil retseptorining birikishi,

gormon ta'siri amalga oshishi-ning birinchi bosqichi.

Galobakteriyalar - sho'r suvda yashovchi noyob arxey bakteriyalar guruhi

Gemolizinlar – lipidlar va oqsillar bo'lib hujayra membranasini yo'q qilish orqali qizil qon hujayralar lizisini keltirib chiqaruvchi moddalar.

Getroantigenlar – bular o'zaro tasir qiluvchi mikroorganizmlar, o'simliklar, va hayvonlarning har xil turlari vakillarida umumiy antigenik determinantlarga ega.

Giperergik – bu holatda emlashdan so'ng, ba'zi hollarda organizmga antigenni takroriy yuborish natijisida yuqori sezuvchanlik rivojlanadi.

GMO – geni o'zgartirilgan organizmlar.

Gidrolizant – bu gidroliz natijasida olingan har qanday mahsulot.

Gibridizatsiya - DNK (DNK gibridizatsiyasi) – tajribada ikki alohida DNK zanjiridan, ikkizanjirli DNK hosil bo'lishi.

Glikokalis – plazmalemmmani membrana ustidagi qavati, uning asosini plazmalemmaning uglevod komponentlari – polisaxaridlar va oligosaxaridlar tashkil qiladi.

Granlar– xloroplastlarni ichki strukturalari bo'lib, ular birbirlarini ustiga qalin qilib bosilgan, membranali sistemalar dastasi ko'rinishidagi tilakoidlar. Granlarni membranalarida xlorofill molekulalari joylashadi va ular granlarga hamda xloroplastlarga yashil rang berib turadi.

Gematoensefalik to'siq – miyaga yirik yoki polyarli molekulalarni hamda qon hujayralarini, shu jumladan immun sistemasini ham kirib kelishiga to'sqinlik qiluvchi qon va asab to'qimalari orasidagi yarim o'tkazuvchi to'siq.

Gibridoma – ikki xil hujayrani qo'shilishidan paydo bo'lgan, B-limfotsit antitanalari va rak hujayra mielomalari hosil qiladigan gibrid hujayra (ko'payadigan hujayralar liniyasi). Hujayralarni qo'shilishi membranani buzuvchi polietilenglikol agentlar yoki Syonday virusi yordamida amalga oshadi.

Hujayra (lot. cellula, cytus - katakcha) — barcha tirik organizmlarning tuzilishi va funksional birligi, elementar tirik sistema:

Hujayra injeneriyasi - ozuqali muhitda hujayra o'stirish (hujayra kulturasini), duragayi va rekonstruksiyasiga asoslanib, yangi hujayra tipini yaratish usuli. H.i. yagona hujayra va to'qimalarni maxsus sun'iy ozuqali muhitda o'stirish b-n bog'liq.

Hujayra markazi, sentriol (lot. centrum, yun. kentron — o'rta nuqta, markaz) — hayvonlar va ayrim o'simliklar hujayrasi organoidi. Asosiy vazifasi bo'linayotgan hujayra qutblarini belgilash.

HMG- oqsillari poliakrilamid gel elektroforezida yuqori harakatchanlikka ega bo'lgan oqsillar guruhidir. DNK bilan turli yo'llar bilan o'zaro ta'sir qiluvchi yadro oqsillari.

Hujayra ichidagi retseptorlar – hujayra organoidi sirtida joylashgan retseptorlar. Oqsillarni o'z-o'zidan bir shaklga kirishi (samoorganizatsiya) oqsil molekulalarini tabiiy (nativ), uchlamchi strukturaga o'z-o'zidan yig'ilishi va o'z-o'zidan qadoqlanishi.

Hasharotlarga qarshilikni boshqarish: zararkunandalar populyatsiyasining bir qismini insektitsid bilan aloqa qilmaydigan panohda saqlash orqali pestitsidlarga chidamlilikning rivojlanishini kechiktirish strategiyasi.

Hasharotlarga chidamli ekinlar: hasharotlarga bardosh berish, ularni to'xtatish yoki qaytarish qobiliyatiga ega va shu bilan ularning o'simlik bilan oziqlanishiga to'sqinlik qiladigan o'simliklar.

Izofermentlar (izo... va fermentlar), izoenzimlar, izozimlar — ma'lum fermentning molekulyar shakllari. Bir tipdagi katalitik faollikka ega. Bir turdagi organizmlarda yoki bir hujayrada uchraydi.

Immobilashgan fermentlar — molekullari polimer birik-malar b-n kovalent bog'langan, sun'iy olinadigan ferment preparatlar. Shuning uchun I. f. denaturatsiyani vujudga keltiruvchi ta'sirlarga nisbatan chidamli bo'ladi. Bunday fermentlar nativ (tabiiy) fermentlarga nisbatan afzalliklarga ega.

Immunitet (lot. immunitas — biron narsadan xalos, ozod bo'lish, qutulish) — tirik mavjudotlarning o'z butunligi va biologik noyobligini buzuvchi «yot» omillardan himoyalanihi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligi.

Immunli nav — q. x. o'simliklarining kasallikni butunlay yuqtirmaslik (immunitet) xususiyatiga ega bo'lgan navi. I. n. o'simliklari kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarni yengish va ular ajratadigan zaharli moddalarni zararsizlantirish qobiliyati

Immunogenetika (immunitet va genetika) — immunitetning genetik mexanizmini o'rganadigan biologik fan. I. immunitet va immun reaksiyalar boshqarilishi asosini tashkil etadigan irsiylanish va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini o'rganadi hamda immunologi

Immunoglobulinlar (Ig) -umurtqali hayvonlar va odamning qon zardobidagi antitelolar faolligiga ega bo'lgan globulyar oqsillar guruhi. I. molekulasi ikkita bir xil yengil va ikkita bir xil og'ir polipeptid (q. Peptidlar) zanjirlardan iborat bo'lib, ular o'zaro, asosan, disulfid (S—S) bog'lar b-n bog'langan. I

Immunoprofilaktika (immunitet va profilaktika) — amaliy immunologiyantg bir bo'limi. Immunitet hosil qilish uchun organizmga vaksina, immun zardob, gammaglobulin kabi immunologik preparatlar yuborib, infeksiyon kasalliklarning oldini olish. Poliomiyelet, difteriya, qoqshol, qizamiq, sil, ich terlama, virusli A va B gepatit kabi infeksiyon kasalliklarga qarshi emlash. Odamning virus infeksiyasiga qarshi vaksina topish I. oldida turgan muhim vazifalardan biridir

Immunoterapiya (immunitet... va terapiya) — bemor organizmiga vaksinalar, shifobaxsh zardoblar (biopreparatlar) yuborib, infeksiyon kasalliklarni davolash. Bunda organizmga kiritilgan vaksina bemorning

o'z kuchlarini infeksiyaga qarshi kurashga safarbar qilishiga turtki beradi.

Inversiya — xromosomalarning qayta qurilishi (mutatsiya) tiplaridan biri; xromosomaning ikki nuqtasidan birdaniga uzilishi va uning segmentining ichki tomonga 180° ga burilishi (invertatsiya) tufayli kelib chiqadi.

Induksiya-1) fiziologiyada—qo'zg'alish va tormozlanishdan iborat nerv jarayonlarining o'zaro dinamik ta'siri. Bunda nerv hujayralaridagi tormozlanish qo'zg'alishni vujudga keltiradi (musbat I.) yoki, aksincha, eng avval hosil bo'lgan qo'zg'alish jarayoni tormozlanishni vujudga keltiradi

Insulin (lot. insula — orolcha) — hayvon va odamning oqsil tabiatli gormoni. Me'da osti bezining Langergans orolchalarida ishlab chiqariladi. **Irsiyat** — organizmning o'z belgilari va xususiyatlarini kelgusi avlodlarga o'tkazish, ya'ni organizmlarning o'ziga o'xshash nasllarni bunyod etish xossasi. I. tufayli avlodlar-aro moddiy va funksional izchillik ta'min etiladi.

Insektitsidga chidamlilik: hasharotlar populyatsiyasida irsiy xususiyatlarning (genlarning) rivojlanishi yoki tanlanishi, bu xususiyatni ifodalovchi shaxslarga hasharotlarning bu turini zaiflashtiradigan yoki o'ldiradigan insektitsid (biologik yoki kimyoviy nazorat agenti) darajasida omon qolish imkonini beradi. . Bunday chidamli hasharotlarning mavjudligi insektitsidni zararkunandalar populyatsiyasini boshqarish uchun kamroq foydali qiladi.

Immunoassay-Biologik namunada qiziqish uyg'otadigan ma'lum bir moddani, masalan, oqsilni aniqlash va miqdorini aniqlash uchun antigen va uning antikorlari o'rtasidagi bog'lanish reaksiyasidan foydalanadigan biokimyoviy test. Immunoassaylar juda ko'p turli formatlarga ega va diagnostika va ilmiy tadqiqotlar uchun juda ko'p turli xil ilovalar uchun ishlatiladi.

in vitro – (lotincha, “shisha ichida”) – tajribani tirik organizmdan tashqarida (“probirka”da) o'tkazish texnologiyasi.

in vivo – (lotincha, “tiriklik ichida”) – tirik organizmda tajriba o'tkazish texnologiyasi.

Intellektual mulk huquqlari-Ixtiro, shu jumladan yangi texnologiyalar yoki yangi organizmlar uchun shaxs yoki kompaniyaga berilgan huquqlar. Bunday huquqlar egasiga ulardan foydalanishni nazorat qilish va ulardan foydalanish natijasida mukofot olish imkonini beradi.

Intensiv terapiya milliy audit va tadqiqot markazi (ICNARC)- Mustaqil, notijorat, klinik audit va klinik/sog'liqni saqlash xizmatlari tadqiqotining keng dasturini nazorat qiluvchi ilmiy tashkilot. U amaliyot va siyosatni xabardor qilish uchun jiddiy kasalliklar epidemiologiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar uchun ma'lumotlar bazalariga ega.

Ion-Bir yoki bir nechta elektronning yo'qolishi yoki ortishi natijasida hosil bo'lgan elektr zaryadlangan atom.

Ionoforez (ion almashinish xromatografiyasi)-Namunadagi oqsillar va qatronda immobilizatsiyalangan zaryadlar o'rtasidagi zaryad-zaryad o'zaro ta'siriga asoslangan ajratish jarayoni.

IRES- (ichki ribosomaga kirish joyi) eukaryotlar va ularning viruslari mRNKsining tartibga soluvchi hududi bo'lib, u qopqoqdan mustaqil yoki ichki tarjima boshlanishini ta'minlaydi. Ushbu boshlash mexanizmi bilan ribosoma to'g'ridan-to'g'ri IRES mintaqasida mRNK bilan bog'lanadi, ular ko'pincha translatatsiyani boshlash joyi yaqinidagi 5' tarjima qilinmagan mintaqada (5' UTR) joylashgan bo'lib, qopqoqni aniqlash va skanerlash bosqichlarini chetlab o'tadi.

Immunologiya—organizmni himoya reaksiyalarini, ularni struktura-funksional butunligini va biologik individualligini o'rganuvchi biologik va meditsinani ilmiy sohasi.

Implantat—jarrohlik yo'li bilan odam organizmiga kiritiladigan protez (odamni yo'q organini o'rnini bosaoladigan) yoki indifikator (masalan, teri ostiga kiritib qo'yiladigan, uy hayvonlari haqida axborotlarni berib turuvchi chip) sifatida foydalaniladigan meditsina obyekti (konstruksiya yoki qurilma).

Immobilizasiya—fermentlar molekulasini buzmasdan uzoq vaqtlargacha saqlanib turishini ta'minlash.

Inserisiya—(ingl. insertion - kiritmoq) DNK bo'lagi genomning ma'lum joylariga kirishi.

Induksiya—kuchayish

Inkapsullash—fermentlar yuzasida yupqa plenka hosil qilish.

Integral oqsillar – plazmalemmalarni (hujayra membranalarini) oqsillari, ular membranaga yoki to'liq (integral oqsillar), yoki qisman (yarim integral oqsillar) kirgan bo'ladi.

Kallus- (lot. callus — qadoq) — o'simlikning shikastlangan (kesilgan) joyida hosil bo'ladigan to'qima.

Kolonizatsiya - bu mikroorganizmlarning xo'jayin organizmda tarqalish qobiliyati; organlar va to'qimalarda yuzasida ko'payish.

Koagulyatsiya – bu koagulyatsion tuzilmalarning tuzilmalarning shakllanishi bilan yopishish kuchlari ta'sirida dispers tizimlarning kichik zarralarini kattaroq agregatlarga yopishishning fizik kimyoviya jarayonlari.

Kandidoz – mikozning bir turi, odamlar va hayvonlarning yuqumli kasalligi.

Kulturalash – in vitro sharoitida ekish, o'stirish, parvarish qilish

Kallus tuqima-hujayraning bo'linishidan hosil bo'lgan, deyarli ixtisoslashmagan hujayralar massasi.

Klon – bitta hujayradan hosil bo'lgan, irsiy jihatdan o'xshash hujayralar koloniyasi.

Klonal mikroko'payish- genetik bir-biriga yaqin hujayra va to'qimalarni probirkada vegetativ ko'paytirish.

Krossingover- har xil xromosomalar orasida irsiy belgilarni almashinuvi

Kodon- har bir aminokislotani uchta nukleotidlardan iborat bo'lgan kombinasini kodlash.

Kompetensiya – hujayra, to'qima, organ va organizmning induksirolovchi ta'sirlarni qabul qilish va rivojlanishini o'zgartirish orqali spetsifik ta'sirlanishi.

Konsentrasiyalash-tarkibidagi asosiy moddani miqdorini oshirish

Ko'rish imkoniyati – asbobning obyektini bir – biriga yaqin bo'lgan nuqtalarini alohida tasvirga olish imkoniyati.

Kapsid – virusni oqsilli qobig'i.

Kapsomerlar – virus kapsulasini hosil qiluvchi oqsil subbirliги (oqsil molekulasi).

Lipidlar (yunoncha:lipos — yog') — barcha tirik hujayralar tarkibida bo'ladigan yog'simon moddalar. Tirik organizm hayot faoliyatida lipidlar muhim ahamiyatga ega.

Lizosoma (grekcha: λῑσις [lisis] - eritish, σῶμα [soma] - tana) — hujayra organoidi, hujayra ichida oziq hazm bo'lishini ta'minlaydi.

Lizotsim (liz...va yun. zyme — hamirturush), muramidaza — gidrolazalar sinfiga mansub ferment, bakteriya hujayralari pardasini yemiradi.

Lizogeniya (liz... va yun. geneia — kelib chiqish, yaratish) — hujayra ichida nopatogen (kasallik paydo qilmaydigan) profag shaklda mavjud bo'ladigan bakteriofag bilan bakteriyalar o'rtasidagi simbiotik munosabatlar.

Lizogen konversiya - lizogenizatsiya tufayli bakteriyalar xossalarining o'zgarishi. Lizogen konversiya bakteriofaglarining bakteriya genomiga yangi genetik axborot kiritilishi bilan bog'liq.

Lizis (liz...) — 1) kasallikning asta-sekin tuzala borishi; bunda yuqori haroratdagi gavda temperaturasi sekin pasayib, kasallikning boshqa belgilari ham yo'qola boradi (kr"zmsning aksi).

Lizin, a — ye-diaminokapronat kislota, $H_2N-(CH_2)_4 \sim CH(NH_2)COOH$, almashtirib'bulmaydigan aminokislotalardan biri. Mol.m. 146,19. Suyuqlanish temperaturasi 224—225°.

Liazarlar (yun. Na — tarqatish, ajratish) — qo'shbog' hosil qilish orqali muayyan guruxlarning substratdan no-gidrolitik ajraladigan reaksiyalarni yoki, aksincha, qo'shbog'ning uzilgan joyiga guruxlarni qo'shuvchi reaksiyalarni katalizlaydigan fermentlar.

Lactis aerogenes (Aerobacter aerogenes)-Zararsiz organizm ba'zan sutni qaynatishda ishtirok etadi.

Lampore-SARS-CoV-2 virusini aniqlash uchun diagnostika platformasi.

Ligatsiya-Bu atama 2 ta DNK zanjiri yoki boshqa molekulalarning birlashishini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Lipopolisakkarid-Endotoksin deb ham ataladigan lipopolisakkarid bakterial hujayra devorining tashqi membranasida joylashgan katta molekula bo'lib, u immunitet tizimini faollashtiradi va zarar etkazishi mumkin.

Loop vositachiligidagi izotermik kuchaytirish (LAMP)-An'anaviy PCRdan farqli o'laroq, termotsiklni talab qilmaydigan DNKni kuchaytirishga imkon beruvchi yagona naychali texnika.

Ligaza – DNK molekulasi uchlarini bir-biriga ulovchi ferment.

Ligirlash–DNK ning bir zanjiridagi uzulish orqali ajralgan asoslar orasidagi fosfodiefir bo'g'larining hosil bo'lishi.

Lipidli qo'shqavat (lipidli ikki qavat) – biologik membranalarni asosi; lipid molekulalarini ikki qavati bilan shakllanadi, ularni gidrofob zanjirlari lipidli qo'shqavatni ichki tomoniga, gidrofil boshchasi esa – tashqariga qaragan.

Ligirlash–DNK ning bir zanjiridagi uzulish orqali ajralgan asoslar orasidagi fosfodiefir bo'g'larining hosil bo'lishi.

Lipidli qo'shqavat (lipidli ikki qavat) – biologik membranalarni asosi; lipid molekulalarini ikki qavati bilan shakllanadi, ularni gidrofob zanjirlari lipidli qo'shqavatni ichki tomoniga, gidrofil boshchasi esa – tashqariga qaragan.

Liposoma – dumaloq pufak, ularni devori lipidlardan tashkil topgan; lipidlar – ikki qavat – lipidli qo'shqavatni shakllantiradi. **Ligaza** - ATF energiyasi hisobiga har xil molekulalararo o'zaro biriktiruvchi (tikuvchi) fermenti.

Lignin – urug'li o'simliklarda tarqalishi jihatidan sellyulozadan keyin turgan, fermentlar ta'sirida deyarli parchalanmaydigan murakkab aromatik birikma. Suvda erimaydigan aromatik spirt, amorf polimer.

Ligninlanish – hujayra po'sti ontogenezining yakuniy bosqichi. Lignin moddasi bilan qoplanganidan keyin mustahkam va pishiq bo'ladi.

Lignifikasiya – hujayra po'sti sellyulozasidagi mikrofibrillarning oralarini lignin moddasi bilan to'lishi natijasida o'zgarishlarning ro'y berish jara'eni.

Lizogen – hujayra oraliqlaridagi bir guruh hujayralarning erib ketishi.

Lizigen hujayra oralig'i - hujayra qobiqchasining erib ketishi natijasida hosil bo'ladigan hujayra oralig'i.

Lizogeniya - fag bilan zararlangan bakteriyada fag o'z DNK sini bakteriya DNK siga kiritadi va lizogen bakteriyani hosil etadi e'ki fag bakteriyani o'ldirib undagi DNK va oqsillardan ko'plab fag'larni hosil etadi.

Lokus - xromosomaning genetik xaritasida u e'ki bu genning joylashgan o'rni.

Monomerlar – strukturasi o'xshash va o'zaro bir-birlari bilan munosabatga kirishib, yuqori molekulali birikmalar – polimerlar hosil qiluvchi monomerlar.

Membranali retseptorlar – hujayra membranasi lokalizatsiya bo'lgan retseptorlar.

Membranali oqsillar – lipidli qo'shqavatni ichiga yoki sirtiga joylashgan oqsil molekulalari; membranaga o'ziga xos bo'lgan spetsifik xususiyat beradi, tashuvchilik, fermentativ faollik, struktura molekulalari funksiyasini bajaradi.

Membranali organoidlar – tarkibida elementar biologik membranalar saqlaydigan hujayra organoidlari.

Makrofaglar – organizm immun sistemasining hujayralarini bir xil bo'lmagan guruhi. Qondan kolloid bo'lakchalar va mikroorganizmlarni yutib olish xususiyatiga ega bo'lgan barcha hujayralar.

Messenger RNK (mRNK)-DNK dan oqsil sintezi joyi bo'lgan ribosomaga genetik ma'lumotni uzatuvchi hujayralardagi molekula.

Metabolizm-Moddalarni qurish va parchalash uchun tirik hujayra yoki organizmda sodir bo'ladigan kimyoviy reaksiyalar.

Metadata-Genomikada metadata genetik material olingan namunaning vaqti va kelib chiqishi, shuningdek, genomik ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish va uning kontekstini tushunish uchun muhim bo'lgan odamning yoshi kabi ba'zi xususiyatlar haqida ma'lumot beradi.

Metagenomika-Atrof-muhit yoki klinik namunalardan to'plangan genetik materialni o'rganadigan keng intizom.

Metitsillinga chidamli Staphylococcus aureus (MRSA)-Ko'p ishlatiladigan antibiotiklarga chidamli stafilokokklar turi.

Metionin-Aminokislota turi.

Mikrobiologiya-Viruslar, bakteriyalar, suv o'tlari, zamburug'lar, shilimshiq mog'or va protozoa kabi mikroskopik organizmlarning biologiyasini o'rganadigan fan.

MicroReact-Genomik epidemiologiya, filogenetik daraxtlar va metama'lumotlarni ko'rish va almashish uchun ochiq manba veb-vosita.

MinION-Oxford Nanopore Technologies tomonidan ishlab chiqarilgan portativ nanopore sekvensiyasi qurilmasi.

Mitoxondriya-Hujayra sitoplazmasida hujayrani energiya bilan ta'minlaydigan maxsus bo'linmalar mavjud.

Mitoxondriyal DNK-Ko'pgina DNK hujayra yadrosida joylashgan, ammo uni mitoxondriyalarda ham topish mumkin. Ikkala ota-onadan meros bo'lgan yadro DNKsidan farqli o'laroq, mitoxondriyal DNK faqat ona tomonidan uzatiladi.

Mitoz-Hujayra replikatsiyasi jarayoni, unda bitta hujayra bo'linib, ikkita bir xil hujayraga aylanadi.

Molekulyar biologiya-Hujayra molekularining, masalan, oqsillar va nuklein kislotalarning tarkibi, tuzilishi, funktsiyasi va o'zaro ta'sirini o'rganadigan fan sohasi.

Monoklonal antikor-laboratoriya tomonidan ishlab chiqarilgan antikor hujayralar yuzasida joylashgan maxsus retseptorlarni tanib olish va bog'lash uchun mo'ljallangan.

Multilokusli ferment elektroforezi (MLEE)-Elektroforez paytida hujayra ichidagi fermentlarning qanchalik uzoqqa ko'chishiga qarab organizmlarni farqlash imkonini beradigan texnika.

Mikobakteriya tuberkulyozi-Sil kasalligini keltirib chiqaradigan mikroorganizmlar turi.miyogloblin Yurak to'qimalarida va boshqa mushaklarda joylashgan protein.

Mutatsion naslchilik: o'simliklarda keng qo'llaniladigan amaliyotlar naslchilik va kimyoviy moddalar yoki radiatsiya mavjud bo'lgan boshqa sohalar butun organizmlarga nisbatan qo'llaniladi, masalan. o'simliklar yoki hujayralar organizm DNKsida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Massiv kartasi Bir vaqtning o'zida yuzlab real vaqtda PCR reaksiyalarini bajarishni osonlashtiradigan tanlangan primerlar va zondlar to'plamlarini o'z ichiga olgan mikrofluidik karta.

Mikrobial bioinformatika uchun bulutli infratuzilma (CLIMB)-Buyuk Britaniyadagi mikrob genomlarini tahlil qilish uchun bulutga asoslangan eng yirik tizim

Mitselliy - zamburug' tana-zamburug', jumladan sho'lasimon zamburug'larning o'sadigan tanasi bo'lib, bir va ko'p hujayrali ipchalar (gif) dan iborat.

Mikroflora - har xil turdagi mikroorganizmlarning ma'lum yashash muhitidagi to'plami; avtohton mikroflorasi; suv mikro-florasi; havo mikroflorasi; balchiq mikroflorasi; odatdagi mikroflora; organizm mikroflorasi; qo'shimcha mikroflora; tuproq mikroflorasi; rizosfera mikroflorasi.

Nishon – hujayra u yoki bu fitogarmon reseptorini tutuvchi va fitogarmonning konsentrasiyasi o'zgarganda metabolizmni o'zgartiruvchi hujayra.

Nannositlar -mayda xujayralar - ona xujayra ichidagi protoplazmaning sekin-asta bulinishi natijasida yuzaga keladigan mayda xujayralar.

Nogomologik xromosomalar - genlari uzaro fark; kiladigan va meyoza uzaro konyugasiyalashmaydigan xromosomalar.

Nonsens kodonlar - ma'nosiz kodonlar, informasiya sakdamaydigan terminator kodonlar. Bu kodonlar oksil polipeptid zanjiri sintezining tugallanishi uchun signal xisoblanadi.

Nukleoproteidlar - oddiy oqsil va nuklein kislotalarning birikishidan xosil bulgan murakkab birikma. Ular xayvonlar bilan usimliklar xujayrasi yadrosi va sitoplazma tarkibiga kiradi.

Nukleosomalar - xromosomaning gistonlar va DNKdan tashkil topgan strukturalari. Kushni nukleosomalar bir-birlari bilan k;iska DNK k;ismi orkali birikadi. DNKning giston tanachalariga uralishi DNK

bispirali uzunligini 7 martagacha kiskartiradi va DNKning usha qismida transkripsiyaga imkon bermaydi, 1 gen 6 ta nukleosomani uz ichiga olishi mumkin.

Nuklein kislotalar – polinukleotidlar, nukleotid qoldiqlaridan tashkil topgan fosfor saqlovchi yuqori molekulali organik birikmalar; nukleotid ketma-ketligi ko‘rinishida “yozilgan” irsiy axborotlarni saqlanishini amalga oshishini (realizatsiya) va uzatilishini ta’minlaydi.

Nukleotidlar – nukleozidfosfatlar, nuklein kislotalari, ko‘plab kofermentlar va boshqa biologik faol birikmalarni hosil qiluvchi birikmalar; har bir nukleotid azotli asosdan (purinli va pirimidinli), uglevoddan (riboza va dezoksiriboza) va fosfor kislotasini qoldig‘idan tuzilgan.

Nanokompozit materiallar – ikki yoki undan ko‘proq bo‘lgan moddalar (strukturalar) ishtirokida shakllangan nanomateriallar, masalan, biologik membranalar va viruslardan olinadigan, nanokompozit materiallar.

Nanolitografiya (nanobosma) – katta miqdorda biologik membrana olish usuli; “siyoh” sifatida, lipidlar ishlatiladi. Ular atom-kuchga ega mikroskoplar yordamida shishaga yoki kremniyli plastinkaga surtilib chiqiladi.

Nanosomalar – (mitsellalar) – juda mayda dumaloq pufakchalar bo‘lib, lipidlardan tashkil topganlar, ammo liposomalardan farqli o‘laroq, ular ichki bo‘shliqqa ega bo‘lmaydi; nanosomalar tashqi muhitdan bir qavatli lipidli devorlar bilan ajratilgan.

Nanotrubkalar - lipid-oqsilli strukturalar: tubulin deb yuritiladigan, globulyar oqsil bo‘lib, nanotrubkalarni o‘zagini hosil qiladi va lipidli qo‘shqavat bilan qoplanadi; xalqlar yoki zanjir bilan o‘rab olinadi.

Nanobakteriyalar (nanobamlar) – XX asrni oxirida ochilgan, diametri 20-150 nm ga teng bo‘lgan sferik (dumaloq) shakldagi eng kichik mikroorganizmlar. Hozirgacha ularni borligiga shubha bilan qaraladi.

Nanobo‘lakcha (nanostruktura) – kattaligi 1 dan 100 nanometr gacha bo‘lgan (nanometr- metrni milliarddan bir qismi, 10^{-9}) obyektlar.

Nanotexnologiyalar – nanostrukturalarni manipulyasiyasiga asoslangan fundamental texnologiya.

Nanoqoziqchalar – hujayralar o‘stiriladigan nanotrubkalar to‘plami. Nanoqoziqchalar plazmalemmalarni qiyshaytirib

sitoplazmaning har xil chuqurligiga kirib boradi, ammo hujayralarga shikast yetkazmaydi.

Nanomeditsina – odam kasalliklariga molekulyar va subhujayra darajasida diagnoz qo'yish va ularni davolash.

Nanotana – tuya antitanasini o'zgaruvchan qismi bo'lib, unda yengil polipeptid zanjiri bo'lmaydi. Nanotanalar kattaligi bo'yicha antitanadan o'n marta kamroq bo'ladi.

Nitinol – titan (55%) va nikelni (45%) aralashma qorishmasi. Yuqori darajada korroziyaga chidamli va "eslab qolish" xususiyatiga ega.

Nanoporalarni ketma-ketlashtirish-DNK ning bitta zanjiri membranaga o'rnatilgan juda kichik teshiklardan o'tayotganda ketma-ketlikni o'qilishi.

Neisseria meningitidis (N. meningitidis). Meningokokk nomi bilan ham tanilgan N. meningitidis meningit va og'ir sepsis uchun mas'ul bo'lgan gramm-manfiy bakteriyadir. Menenjit belgilari odatda charchoq, isitma va bosh og'rig'ini o'z ichiga oladi, bu tezda bo'yinning qattiqlashishi, koma va o'limga olib kelishi mumkin. Bakteriyalar ko'pincha yo'talish, hapsirma va nafas olish tomchilari orqali tarqaladi.

Neyraminidaza. Infektsiyalangan xost hujayralaridan yangi virus zarralarini chiqarishni osonlashtiradigan ferment turi.

NovaSeq. Illumina tomonidan ishlab chiqarilgan butun genom sekvensiyasi platformasi.

Organoidlar (yun. organon — organ va eidos — ko'rinish, qiyofa) — hujayraning hayot faoliyati davomida uning maxsus funksiyasining bajarilishini ta'minlovchi doimiy tarkibiy qismlari, ya'ni hujayra organlari.

Oqsillar agregatsiyasi — oqsil molekulalarini ikkilamchi strukturalar (o'ngga qayrilgan L-spiral uchastkalar) orqali o'zaro munosabatga kirishib, nadmolekulyar agregatlar hosil qilishi.

Oqsil - aminokislota qoldiqlaridan tuzilgan va barcha tirik organizmlarni hayotiy jarayonlarida eng asosiy rol o'ynovchi yuqori molekullari organik birikmalar.

Tashuvchi oqsil - transmembrana oqsili o'zini fazoviy strukturasini o'zgartirib, moddalarni membrananing lipidli qavatidan o'Mishini ta'minlovchi oqsil.

Oqsil-reseptor - hujayra membranasida lokalizatsiya bo'lgan spetsifik oqsil bo'Mib, u signalli moddalar (ligandlar) bilan bog'lanib, ular uzatadigan tashqi signalni qabul qilish xususiyatiga ega.

Organ – organizmni anatomik jihozlangan va funksional ixtisoslashtirilgan qismi; organlarni elementlari – hujayralar, hujayralar orasidagi moddalar, qon va limfa tomirlari, nerv va boshqalar bo'lishlari mumkin.

Organizm – hayotni real tashuvchisi, uni barcha fundamental xususiyatlari va ko'rinishlariga ega bo'lgan butun tirik sistema.

Oqsillarni modifikatsiyasi – polipeptidlarni kimyoviy o'zgarishi; molekulani fragmentlarga bo'linishi; polipeptidlarni alohida fragmentlarini yangi molekulaga tikilishi; oddiy oqsillarni xilma-xil moddalar bilan birikib, murakkab oqsillar – glikoproteinlar, lipoproteinlar, metalloproteinlar va boshqalar hosil qilishi; polipeptid tarkibidagi alohida aminokislotalarni kimyoviy o'zgarishi (oksidlanishi, disulfid va vodorod bog'lar hosil qilishi).

Oqsillarni oligomerizatsiyasi – polipeptidlarni (protomerlar. subbirliklar) oligomer strukturaga (oligomer molekulaga) qo'shilish jarayoni.

Oqsillarni konformatsiyasi – oqsil molekulasining fazoviy (uchlamchi) strukturasi.

Organik qishloq xo'jaligi: sintetik manbalardan foydalanmasdan ishlab chiqarishga yo'naltirilgan va transgen organizmlardan foydalanishga ruxsat bermaydigan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kontseptsiyasi va amaliyoti.

Outcrossing: turli xil populyatsiyalar yoki bir xil turdagi bir-biriga yaqin bo'lmagan shaxslar o'rtasida juftlashish. "Chiqish" atamasi gibrid urug'larni etishtirish jarayonida bir xil ekinning tashqi manbasi tomonidan mo'ljallanmagan changlanishni tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin.

Og'ir o'tkir respirator va rivojlanayotgan infeksiyalar xalqaro konsortsiumi (ISARIC) Klinik tadqiqot tarmoqlarining global federatsiyasi epidemiyaga moyil bo'lgan yuqumli kasalliklarga javob berishni muvofiqlashtirish uchun tashkil etilgan.

Oktanukleotid. Sakkiz nukleotiddan tashkil topgan DNK fragmenti.

Ochiq o'qish ramkasi (ORF). Boshlanish kordonidan (uch nukleotidlar guruhlar) boshlanadigan va har qanday tugatish kodonlari bilan tugaydigan DNKning uzluksiz cho'zilishi tasvirlangan. Boshlanish kodon odatda AUG, to'xtash kodon esa odatda UAA, UAG yoki UGA bo'ladi. Bu atama genlarni topish ishida qo'llaniladi.

Paleobotanika – qadimgi geologik davrlardagi o‘simliklar olamini o‘rganadigan botanikaning tarmog‘i.

Parakarp ginesey – meva bargchalarining chetlari birg‘biriga qo‘shilgan ginesey.

Paraspermiya – murtak xaltaning chang nayidagi hujayralar o‘zaro qo‘shilmay shimib olishi.

harakatlanmaydigan sporalar.

Parastixiya – poyada bargni spiral holda o‘ mashishi.

Partenogenez - «qizlik ko‘payish» - jinsiy ko‘payish shakllaridan biri bo‘lib, urg‘ochi gameta otalanmasdan ko‘payishi.

Poliploidiya - organizm gaploid xromosomal yig‘indisining karrali ortishi bilan bogliq boigan irsiy o‘zgaruvchanlik.

Proliferasiya - hujayra va to‘qimalarning ko‘payish yo‘li bilan hosil bolishi.

Promotor- genning transkripsiyasi boshlanishi uchun javobgar qismi.

Partenogenez- uzoq formadagi duragaylar chatishtirilganda otalik xromosomalari yo‘qolib ketgan duragay murtakdan gaploid o‘simliklar olish.

Pirimidin- DNK ning birinchi zanjiridagi purin azotli asosiga komplementar holatda 2 chi zanjirida joylashgan azotli asos.

Purin- Qo‘sh zanjirli DNK molekulasining 1-zanjirida adenin va timindan iborat asos. Komplementarlik qoidasiga binoan 1- zanjirdagi purin asosi qarshisida 2-zanjirda pirimidin asosi turadi.

Processing - RNK ning yetilish jarayoni.

Poliploidiya - organizm gaploid xromosomal yig‘indisining karrali ortishi bilan bogliq bolgan irsiy o‘zgaruvchanlik.

Promotor- genning transkripsiyasi boshlanishi uchun javobgar qismi.

Polimeraza (polimerazalar) – nuklein kislotalarni matritsalik sintezini kataliz qiluvchi fermentlar.

Praymer - ikki zanjirli DNK matritsalaridan biriga komplementar bo‘lgan qisqa (18-30 nukleotiddan iborat) oligonukleotid; praymer – amplifikatsiyaga uchraydigan uchastkani boshini yoki oxirini o‘rab oladi.

P. salmonella - bu bakteriya qorin tifi va salmonellyozning qo‘zg‘atuvchisi hisoblanadi.

P. shigella - dizenteriyani qo‘zg‘atuvchi bakteriya.

Pestitsidlar – zararli hasharotlar, kemiruvchilar, begona o'tlar, o'simliklar va hayvonlarning patogenlarini yo'q qilish uchun mo'ljallangan moddalar.

Pestitsidlarga chidamlilik: zararkunandalar populyatsiyasida irsiy xususiyatlarni (genlarni) ishlab chiqish yoki tanlash, bu xususiyatni ifodalovchi shaxslarga bu zararkunandani zaiflashtiradigan yoki o'ldiradigan pestitsid (biologik yoki kimyoviy nazorat agenti) darajasida omon qolish imkonini beradi.

Patogen. Kasallik keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan organizm. Bunday organizmlarni tasvirlash uchun ishlatiladigan boshqa atamalar "mikrob" yoki "yuqumli agent" dir.

Patogen genomikasi. Yuqumli kasallikning tarqalishini nazorat qilishda yordam berish uchun patogenlarning evolyutsiyasi va tarqalishini tushunish uchun genomik sekanslashdan foydalangan holda yondashuv.

Penitsillin. Keng tarqalgan *Penicillium* mog'orlaridan ishlab chiqarilgan antibiotiklar guruhi.

Penitsilium. Turli xil yashash joylarida o'sadigan keng tarqalgan mog'or turlari

Peptid. Ikki yoki undan ortiq aminokislotalarning zanjirda birikishidan tashkil topgan birikma.

Peptid aloqasi. Ikki aminokislota molekulasi o'rtasidagi kimyoviy bog'lanish.

Plazmidlar. Bakteriya yoki protozoa sitoplazmasida topilgan kichik o'z-o'zini ko'paytiruvchi DNK bo'lagi

Regress populyasiya – mustaqil tarzda urug' yoki vegetativ usulni tiklanishini yo'qotgan, shu boisdan urug'larini tarqatish uchun tashqi muhitga muhtoj populyasiya.

Regressiv endemizm – endem turlarning qirilishi bilan, shu boisdan tarqalgan arealini qisqarib borish hodisasi.

Rezavor meva – etdor, sersuv qismi ichida joylashgan meva.

Rezerv suv – odatda vakuolada bo'ladigan, bog'lanmagan suv.

Rezervat – tabiatning maxsus tarzda qo'riqlanadigan qo'riqxona yoki buyurtmaxona maqomidagi joy.

Rezupinatsiya – ayrim o'simliklarda (*Lobeliaceae*, *Orchidaceae* oilalari turkumlarida) gulbandni gul bilan hali yoshlik paytida S ga burilishi.

Rekapitulyasiya – organizmni individual rivojlanishi jarayonida ajdodlaridagi ayrim belgilarni takrorlashi. Organizm ajdodlarining

tarixiy bosqichlarini in'ikosi (masalan, ayrim paporotniklar ajdodlarida bo'lgan barglarida dixatomik shoxlanishning ro'y berishi).

Rekombinasion o'zgaruvchanlik - krossingover natijasidagi DNK dagi o'zgargan birikmalarini hosil bo'lishi.

Remontant o'simlik – bir yilda bir necha marta gullab, bir necha marta meva beradigan o'simlik.

Replikatsiya - DNK molekulalarining ikki hissa ko'payishi, ikkala komplementar polinukleotid zanjirining o'z-o'zini aniq paydo qilishi. Bu hodisa interfazaning sintetik davri (S) da matritsa prinsipiga muvofiq amalga oshadi.

Repressor – 1. Operondagi operator bilan birikib RNK polimerazani promotorga o'rnatishiga to'sqinlik qiluvchi va natijada strukturali genlar faoliyatini to'xtatuvchi oqsil molekulasi. 2. Repressiyani amalga oshiruvchi oqsil.

Reproduktiv rivojlanish – vegetativ organlardan maxsuslashgan generativ organlar hosil qilishga o'tish.

Resriksion endonukleazalar- DNK molekulasini mayda bo'laklarga kesuvchi fermentlar.

